Keywords: cultural diversity, socio-cultural essence, globalization, intercultural dialogue, democratic governance, interethnic harmony, social inclusion

Genişletilmiş Özet

Bu makalede çeşitlilik kavramı farklı disiplin ve bağlamlarda kazandığı anlamlar açısından ele alınmaktadır. “Oxford Learner’s Dictionary”de “diversity” terimi, birbirinden farklı insan ve nesnelerin varlığı olarak tanımlanırken; sosyolojik açıdan çeşitlilik, toplumların farklı sosyal özelliklere göre ayrışma ve kimlik kazanma sürecini ifade eden öznel bir kavram olarak değerlendirilir. Dolayısıyla çeşitlilik, çok yönlülük, geniş kapsam ve toplumsal-doğal farklılıkların ifadesi olan kavramsal bir kategori niteliğindedir.

Makale, özellikle kültürel çeşitlilik konusuna odaklanmaktadır. 2005 yılında UNESCO tarafından kabul edilen “Kültürel İfadelerin Çeşitliliğinin Korunması ve Teşviki Hakkındaki Sözleşme”ye göre, kültürel çeşitlilik “gruplar ve toplumların kültürlerinin ifadesini bulan biçimlerin farklılığı” olarak tanımlanır. Buna göre kültürel çeşitlilik, tek bir kültür sınırını aşarak kültürler arası farkları ve etkileşimleri kapsayan bir olgudur.

Konseptin farklı tanımları incelendiğinde çeşitli yaklaşımlar öne çıkmaktadır:

- Kültürel çeşitliliğin sınırlarını belirlemenin güçlüğü (örneğin, sanatsal ve kültürel çeşitlilik ayrımı);
- Kültürel tekelleşmeye karşı bir ekonomik kavram olarak değerlendirilmesi;
- Ekonomik çıkarların ötesinde, demokrasiyi ve eşit erişimi destekleyen toplumsal bir talep olarak görülmesi;
- Ulus-devletlerin oluşum sürecinde ezilen etnik azınlıkların kültürlerini koruma aracı olması;
- Kültür endüstrisinde küresel standartlaşmaya karşı ulusal kültür politikalarını meşrulaştırma aracı olarak değerlendirilmesi;
- Ulusal kültür politikalarına karşı eleştirel bir siyasal duruşun ifadesi olarak yorumlanması.

Makalede, bireyin etnik kökeninin tek kimlik unsuru olmadığı, insanların farklı etnik, cinsiyet veya diğer özelliklerine rağmen doğuştan eşit oldukları vurgulanmaktadır. İnsanlık, tüm bu farklılıkların ötesinde evrensel bir ortak değer olarak görülür. Kültürel çeşitlilik, hem bu farklılıkların hem de insanlar arası ortak yönlerin bir bileşimi olarak tanımlanır.

Felsefi yaklaşımlar bağlamında, Mortimer Adler insan tabiatının ortak yönlerine rağmen bireylerin yaşadıkları çevreye bağlı olarak büyük farklılıklar gösterdiğini savunur. Aflotun (Platon) ise insan tabiatını akıl, ruh ve istek olmak üzere üç unsurdan oluşmuş bir yapı olarak tanımlar ve bu unsurların kişiden kişiye farklı oranlarda bulunmasının farklı yaşam tarzlarını doğurduğunu belirtir. Augustinus Tanrı'nın yarattığı farklılıkların her birinin evrendeki düzenin bir parçası olduğunu, Akvinskiy ise Tanrı'nın yarattığı çeşitliliğin dünyanın mükemmelliğini sağladığını ileri sürer.

Makalede kültürel çeşitliliğin toplumsal ve kültürel özüne ilişkin şu tespitler yapılmaktadır:

- Her kültür kendi içinde zengin bir anlam taşır; ancak bireyin potansiyelini tek başına tam olarak açığa çıkaramaz. Çeşitlilik sayesinde kültürler birbirini besler ve yeni kültürel çözümler ortaya çıkar.
- Kültürel etkileşim, topluluklar arası diyalogu genişletir, eleştirel düşünciyi geliştirir ve eşitlik, adalet, hoşgörü gibi değerleri güçlendirir.
- Kültürler arası temas sanatta, estetikte, geleneklerde ve ahlaki normlarda karşılıklı etki yaratarak ortak duyarlılık ve kültürel birlik hissini güçlendirir.

Küreselleşme sürecinde kültürel çeşitlilik, toplumsal kalkınmanın önemli bir fırsatı olarak değerlendirilir. Farklı inanç, dil ve geleneklere sahip toplulukların birlikte yaşaması çeşitli sorunlar doğurabilse de bu süreçlerin etkin yönetimi sosyal katılım, demokratik yönetim ve sürdürülebilir gelişmeye katkı sağlar.

Kültürel çeşitlilik genellikle etnik, dini ve dilsel bağlamlarda sınıflandırılır, fakat bölgesel, sosyo-ekonomik ve diğer ölçütler de önemlidir. Loden ve Rosener çeşitliliği iki boyutta ele alır:

1. Temel boyutlar – cinsiyet, ırk, milliyet, yaş, fiziksel özellikler;
2. İkincil boyutlar – din, ana dil, eğitim, aile durumu, coğrafi konum vb.

Mazur, Rijamampinina ve Carmichael'in çalışmalarına dayanarak çeşitliliği üç boyutta inceler ve bu kavramı değişken, karmaşık ve bağlama bağlı bir olgu olarak

tanımlar. Mazur’a göre çeşitlilik sabit değil, dinamik bir yapıya sahiptir ve farklı koşullarda farklı biçimlerde ortaya çıkar.

Sonuç olarak, makalede kültürel çeşitlilik kavramının yalnızca sosyo-felsefi değil, aynı zamanda siyasal, ekonomik ve hukuksal yönleriyle de karmaşık ve çok boyutlu bir olgu olduğu vurgulanmaktadır. Kavramın çok katmanlı doğası, evrensel bir tanım yapmayı zorlaştırsa da, toplumsal gelişme açısından sahip olduğu teorik ve pratik önemi ortaya koymaktadır.

Kültürel çeşitlilik, farklı kültürlerin karşılıklı etkileşimi ve bütünleşmesi yoluyla toplumsal istikrar, eşitlik ve hoşgörüyü güçlendiren bir faktördür. Bu nedenle küreselleşme çağında kültürel çeşitliliği doğru anlamak, onu yönetme mekanizmalarını geliştirmek ve hem ulusal hem küresel ölçekte pozitif bir kaynak olarak değerlendirmek, çağdaş toplumların önündeki en önemli görevlerden biridir. Kültürel çeşitlilik, milletlerarası barışın, kimlik bilincinin ve kültürel işbirliğinin güçlendirilmesi için temel bir kuramsal zemin sunmaktadır.

Kirish

Xilma-xillik tushunchasi foydalanilayotgan soha va kontekstga qarab turlicha izohlanadi. Masalan, “Oxford Learner’s Dictionary”da “diversity” atamasi “bir-biridan farq qiladigan odamlar va narsalar mavjudligi”¹ sifatida talqin qilinadi. Sotsiologik nuqtai nazardan xilma-xillik “turli ijtimoiy xususiyatlarga ko‘ra jamiyatlar o‘rtasida farqlanish va o‘zini identifikatsiya qilish jarayonini ifodalovchi subyektiv tushuncha”² sifatida ham ta’riflanadi. Demak, xilma-xillik – ko‘p navlilik, keng spektr va ijtimoiy hamda tabiiy farqlar holatini bildiruvchi konseptual kategoriya hisoblanadi.

Asosiy qism

Madaniy xilma-xillik masalasi xalqaro miqyosda ham muhim nazariy-amaliy ahamiyat kasb etadi. YUNESKO tomonidan 2005-yilda qabul qilingan “Madaniy ifodalar xilma-xilligini himoya qilish va rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi Konvensiyada ushbu

¹ UNESCO. Kültürel İfadelerin Çeşitliliğinin Korunması ve Geliştirilmesi Sözleşmesi. <http://www.unesco.org.tr/Pages/179/177/> Olingan sana: 03.09.2025.

² Barbara Mazur. Cultural Diversity in Organizational Theory and Practice. Journal of Intercultural Management, Vol.2, No:2, November 2010, pp. 5-6. <https://joim.pl/wp-content/uploads/2020/02/2-2-Cultural-Diversity-in-Organisational-Theory-and-Practice.pdf> Olingan sana: 03.09.2025.

tushuncha “guruhlar va jamiyatlar madaniyati o‘z ifodasini topadigan shakllarning xilma-xilligi”³ sifatida talqin qilinadi. Boshqacha aytganda, madaniy xilma-xillik biror yagona madaniyat doirasidan tashqariga chiqib, madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni va ularning o‘zaro munosabatlarini qamrab oluvchi hodisadir.

Konsepsiyaning keng tarqalgan ta’riflarini tahlil qilganda quyidagi yondashuvlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- madaniy xilma-xillik chegaralarini aniq belgilash qiyinligi (masalan, badiiy va madaniy xilma-xillik o‘rtasidagi farqlilik orqali);
- uni madaniy monopoliyaga qarshi kurash va davlatning ushbu jarayondagi rolini belgilovchi iqtisodiy konsepsiya sifatida talqin qilish;
- iqtisodiy manfaatdan ko‘ra, madaniyatlarining demokratiyaga yo‘naltirilgan vakilligi va teng foydalanishga asoslangan ijtimoiy talab sifatida qarash;
- milliy davlatlar shakllanish jarayonida ezilgan etnik ozchiliklarning madaniyatlarini himoya qiluvchi hodisa sifatida izohlash;
- madaniyat industriyasida global standartlashtirishga qarshi milliy madaniy siyosatni qonuniylashtirish vositasi sifatida baholash;
- milliy davlatlarning madaniy siyosatiga qarshi tanqidiy pozitsiyani ifodalovchi siyosiy konsepsiya sifatida talqin etish.

Shuni ta’kidlash lozimki, shaxsning etnik kelib chiqishi uning yagona asosiy identifikatori emas. Insonlar o‘zlarining etnik, jinsiy yoki boshqa xususiyatlari bilan farq qilsalar-da, ular tabiatan teng huquqlidir. Insoniylik universal o‘ziga xoslik sifatida barcha farqlardan ustun turadi. Shaxslararo umumiylik va tafovutlar tabiatida madaniy xilma-xillikning muhim manbalari mujassamdir.

Mazkur masalaga falsafiy yondashuvlarda ham turli qarashlar mavjud. Mortimer Adlarning ta’kidlashicha, inson tabiatining umumiy jihatlariga qaramay, u turning a’zolari sifatida o‘zida juda ko‘p farqlarni o‘z ichiga oladi. Adlarning fikricha, odamlarning bir turga mansub bo‘lishiga qaramay, turli mintaqalarda yashayotganliklari kuzatilganda, individlar o‘rtasida, ayniqsa, xulq-atvor jihatlarida, nutq tilidan tortib, urf-odat va an’analargacha juda ko‘p farqlar mavjudligini ko‘rish mumkin. Shunga qaramay, tabiatan umumiy jihatlariga ega bo‘lgan odamlar turli kichik guruhlarda yashaydilar. Odamlar o‘rtasidagi tafovutlar darajasi shunday darajaga yetishi mumkinki, tashqaridan qaralganda, bu odamlarning bir xil turdagi a’zolari emasligiga jiddiy shubha tug‘ilishi mumkin. Shu

³ UNESCO. Kùltùrel İfadelerin Çeşitliliğinin Korunması ve Geliştirilmesi Sözleşmesi. <http://www.unesco.org.tr/Pages/179/177/> Olingan sana: 03.09.2025.

nuqtai nazardan ta'kidlash kerak bo'lgan narsa shundaki, inson tabiati barqaror emasligidir.⁴

Aflotun inson tabiati hamma uchun umumiy bo'lgan aql, qalb va xohishdan iborat ekanligini va bu uch unsur har bir insonda bir xil darajada emasligini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, u bu uch unsur aql tomonidan boshqariladi, desa-da, odamlarda turli daraja va hukmronlik tufayli turli xil turmush tarzi paydo bo'lganligini da'vo qildi. Xristian ilohiyotchisi Avgustin Xudoning tafovutlar uchun ahamiyatini ta'kidlab, har bir yaratilgan narsa dunyoda o'z o'rniga ega va tizimga hissa qo'shadi, deb ta'kidladi. Yana bir ilohiyot olimi Akvinskiy xudo yaratgan xilma-xillik olamni komil qiladi, olamning mukammalligi esa koinotdagi mumkin bo'lgan eng xilma-xillik bilan bog'liqligini ta'kidlagan⁵.

Madaniy xilma-xillikning ijtimoiy-madaniy mohiyatini quyidagi jihatlar orqali aniqlash mumkin:

- har bir madaniyat o'z ichida boy mazmunni mujassam etsa-da, shaxs salohiyatini to'liq ochib bera olmaydi; xilma-xillik tufayli madaniyatlar o'zaro oziqlanadi va yangi madaniy yechimlar yuzaga keladi;

- u jamiyatdagi turli jamoalar o'rtasidagi muloqotni kengaytiradi va tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi, natijada tenglik, adolat va tolerantlik kabi qadriyatlar mustahkamlanadi;

- madaniyatlar o'zaro aloqada bo'lib, san'at, estetika, an'ana va axloqiy me'yorlar darajasida bir-biriga ta'sir ko'rsatadi, umumiy sezgirlik va madaniy birlikni shakllantiradi.

Globalashuv sharoitida madaniy xilma-xillik jamiyat taraqqiyoti uchun muhim imkoniyat sifatida qaralmoqda. Chunki turli e'tiqod, urf-odat va tillarga ega jamoalarning birgalikda yashashi ko'plab ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirishi mumkin, biroq ularni samarali boshqarish orqali ijtimoiy inklyuziya, demokratik boshqaruv va barqaror rivojlanishga erishish mumkin.

Madaniy xilma-xillik asosan etnik, diniy va lingvistik kontekstlarda tasniflanadi. Shu bilan birga, mintaqaviy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa turli mezonlar bo'yicha ham farqlanishi mumkin⁶. Loden va Rosener tasnifiga ko'ra, xilma-xillik ikki turdagi o'lchovlarga ega: asosiy o'lchovlar (jins, irq, millat, yosh, imkoniyatlar) va ikkilamchi

⁴ Mortimer Adler. *Insan Dogasi, Egitim ve Kultür*. (Tarjimon: Gökem Birinci. Atılım Sosyal Bilimler Dergisi, Cilt 2, Sayı: 2, 2012. s.55.

⁵ Arthur Onken Lovejoy. *The Great Chain Of Being: A Study of the History of An Idea*. The William James lectures delivered at Harvard University. Harward University Press, 1964. pp.26-31.

⁶ Malgorzata Gocłowska & Simone Ritter & Paul Hanel. *Cultural Diversity and Creativity*. To appear in 2020 in the *Encyclopedia of Creativity*, 3rd Edition. January 2019.

o'lovlar (din, ona tili, ma'lumoti, oilaviy ahvoli, geografik joylashuv va boshqalar)⁷. Mazur esa Rijamampinina va Karmaykl ishlariga tayanib, xilma-xillikni uch o'lchamda ko'rib chiqadi va uni o'zgaruvchan, murakkab, kontekstual hodisa sifatida baholaydi⁸.

Mazur o'zining "Tashkilot nazariyasi va amaliyotida madaniy xilma-xillik" nomli tadqiqotida Rijamampinina va Karmayklning ishlari asosida xilma-xillikni uch o'lchovda tasniflaydi. Unga ko'ra, xilma-xillik ko'plab o'lchovlarga ega bo'lib, bu o'lchovlar qat'iy emas, balki dinamik va o'zgaruvchandir. Shu sababli xilma-xillik tushunchasi murakkab, ko'p qirrali hodisa sifatida qaraladi. Mazurning ta'kidlashicha, xilma-xillik o'lchovlari o'zaro bir-biriga ta'sir ko'rsatadi va ular turli kontekstlarda – vaqt, vaziyat hamda atrof-muhit sharoitlariga bog'liq holda – turlicha shakllarda namoyon bo'lishi mumkin.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, madaniy xilma-xillik konsepsiyasi nafaqat ijtimoiy-falsafiy, balki siyosiy, iqtisodiy va huquqiy jihatlarni ham o'zida mujassamlashtiruvchi murakkab hodisa hisoblanadi. Xilma-xillik tushunchasining ko'p qirraliligi uning yagona universal ta'rifini ishlab chiqishni qiyinlashtiradi, biroq bu holat mazkur kategoriyaning jamiyat taraqqiyoti uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Madaniy xilma-xillik turli madaniyatlarning o'zaro muloqoti, integratsiyasi va bir-birini boyitishi orqali ijtimoiy barqarorlik, tenglik va tolerantlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Globalashuv sharoitida madaniy xilma-xillikni to'g'ri anglash va uni boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish davlatlar va jamiyatlar oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Chunki madaniy xilma-xillik demokratik boshqaruvni rivojlantirish, ijtimoiy inklyuziyani ta'minlash va madaniy innovatsiyalarni rag'batlantirishda beqiyos imkoniyatlar yaratadi. Shu nuqtai nazardan, madaniy xilma-xillikni milliy va global miqyosda ijobiy resurs sifatida talqin etish va uni qo'llab-quvvatlash zamonaviy ijtimoiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, madaniy xilma-xillik konsepsiyasi ijtimoiy-madaniy jarayonlarni chuqurroq anglash imkonini beruvchi nazariy asos bo'lib, u millatlararo totuvlikni

⁷ Marilyn Loden & Judy B. Rosener. Workforce America! Managing Employee Diversity as a Vital Resource. Illinois, Business One Irwin, 1991.

⁸ Barbara Mazur. Culturel Diversity in Organizational Theory and Practice. Journal of Intercultural Management, Vol.2, No:2. November 2010. pp.5-6. <https://joim.pl/wp-content/uploads/2020/02/2-2-Cultural-Diversity-in-Organisational-Theory-and-Practice.pdf> olingan sana: 06.04.2025.

ta'minlash, shaxsiy va jamoaviy identifikatsiyani mustahkamlash hamda global madaniy hamkorlikni kengaytirishning zaruriy sharti sifatida qaralishi lozim.

Adabiyotlar

1. Mazur, B. Cultural Diversity in Organizational Theory and Practice. Journal of Intercultural Management, Vol. 2, No. 2, November 2010, pp. 5–6.
2. Adler, M. İnsan Doğası, Eğitim ve Kültür. Tarjimon: Görkem Birinci. Atılım Sosyal Bilimler Dergisi, Cilt 2, Sayı 2, 2012, s. 55.
3. Lovejoy, A. O. The Great Chain of Being: A Study of the History of an Idea. The William James Lectures delivered at Harvard University. Harvard University Press, 1964, pp. 26–31.
4. Gocłowska, M., Ritter, S., Hanel, P. Cultural Diversity and Creativity. To appear in Encyclopedia of Creativity, 3rd Edition, January 2019.
5. Loden, M., Rosener, J. B. Workforce America! Managing Employee Diversity as a Vital Resource. Illinois: Business One Irwin, 1991.
6. UNESCO. Kültürel İfadelerin Çeşitliliğinin Korunması ve Geliştirilmesi Sözleşmesi. <http://www.unesco.org.tr/Pages/179/177/>

SHARQ PANDNOMALARIDA AXLOQIY VA ESTETIK TARBIYA G'OYALARI

DOĞU DESTANLARINDA AHLAKİ VE ESTETİK EĞİTİM FİKİRLERİ

Ideas of Moral And Aesthetic Education in Eastern Epics

Gulchehra UMARALIYEVA*

Annotatsiya

Ushbu maqolada pandnoma an'alaridagi axloqiy-estetik g'oyalar inson tarbiyasida, ayniqsa bioestetik qadriyatlarni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Sharq mutafakkirlari — Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Navoiy va Avloniy asarlarida go'zallik, ezgulik va odob inson komilligining asosiy mezonlari sifatida talqin etiladi. "Qobusnoma", "Qutadg'u bilig" kabi pandnomalarda estetik idrok axloqiy poklik bilan uyg'unlashadi. Bioestetik tarbiya insonni tabiatga muhabbat, go'zallikka ehtirom va ezgu niyat ruhida kamolga yetaklaydi. Xulosa qilib aytganda, pandnoma an'alari zamonaviy bioestetik tarbiya tizimi uchun muhim nazariy va amaliy manbadir.

Anahtar Kelimeler: *pandnoma, axloq, ma'naviyat, Kaykovus, Qobusnoma, Yusuf Xos Hojib, Abdulla Avloniy, komil inson*

Abstract

This article analyzes the role of moral and aesthetic ideas in the pandnama (book of advice) tradition in shaping human education, particularly bioaesthetic values. Eastern thinkers such as Kaykavus, Yusuf Has Hajib, Alisher Navoi, and Abdulla Avlani regard beauty, virtue, and etiquette as essential criteria for human perfection. In works like Kabusnama and Kutadgu Bilig, aesthetic perception is harmonized with moral purity. Bioaesthetic education guides individuals toward love of nature, respect for beauty, and moral integrity. In conclusion, the pandnama tradition serves as an important theoretical and practical source for the modern system of bioaesthetic education.

Keywords: *pandnama, morality, spirituality, Kaykavus, Kabusnama, Yusuf Has Hajib, Abdulla Avlani, perfect person*

* O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti "Ijtimoiy gumanitar fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi
O'zbekiston Sanat va Kulturi Universiteti o'qituvchisi, umaraliyevab@mail.ru

Genişletilmiş Özet

Bu makalede pendnâme (öğüt kitabı) geleneği çerçevesinde şekillenen ahlaki ve estetik düşüncelerin insan terbiyesindeki rolü incelenmiştir. Özellikle *Kabusnâme*, *Kutadgu Bilig*, *Fütüvvetnâme-i Sultânî* gibi klasik eserlerde yer alan eğitim, ahlak, güzellik ve estetik değerlerin bireyin iç dünyasını şekillendirmedeki önemi üzerinde durulmaktadır. Çalışma, Şark'ın ilk uyanış (Rönesans) dönemine ait düşünürlerin insanın ahlaki ve ruhsal olgunluğa ulaşmasında estetik idrakin belirleyici unsur olduğuna dair görüşlerini temellendirmektedir.

Keykâvus'a göre insanın kemale ermesi, onun edebi, ahlaki ve merhametiyle mümkündür. *Kabusnâme*'de insanın güzelliği yalnızca dış görünüşle değil, içsel arınma, nezaket ve maneviyatla ilişkilendirilmiştir. Güzelliği idrak etmek, yani varlığa estetik bir bakışla yaklaşmak, insanın Tanrı'ya şükür ve sevgi duygularını güçlendirir. Yusuf Has Hâcib'in *Kutadgu Bilig* adlı eserinde ise doğa güzellikleri, insanın davranış ve ahlak özellikleriyle ilişkilendirilmiş; doğadaki niteliklerin insan karakterine yansıtılması gerektiği vurgulanmıştır. Ona göre güzel ahlak, tüm iyiliklerin temelidir; ahlaklı insan akıl ile hareket eder, nefsini dizginleyebilir ve toplum menfaatini kendi çıkarlarının önüne koyar.

Makalede aile eğitimi, çocuğun ilk estetik ve ahlaki duygularının oluştuğu temel ortam olarak değerlendirilmiştir. Psikolojik açıdan çocuğa güzel sözle, sevgiyle ve teşvik edici bir tavırla yaklaşmak, onda nezaket, güven ve yaratıcılık duygularını geliştirir. *Kabusnâme*'de de belirtildiği üzere, çocuğa kazandırılacak en değerli miras ilim, edep ve sanattır. Ebeveynlerin rehberliğinde çocuk, hem dini hem dünyevi bilgileri içselleştirerek olgun bir birey haline gelir.

Ahlaki ve estetik eğitim bağlamında, Mir Ali Şir Nevâyî'nin “edep küçük yaşta kazanılır ve insanı ömür boyu berekete ulaştırır” sözü, ahlak terbiyesinin çocuklukta başladığını vurgular. Abdulla Avlanî de iyi terbiyenin insanın hem bedenini hem ruhunu temizlediğini, kötü huyları iyilikle tedavi eden bir “manevi tabib” olduğunu ifade eder. Bu bakımdan eğitim, yalnızca bilgi kazandırma değil, karakter ve ruh olgunluğunu da inşa etme süreci olarak görülmüştür.

Makale, aynı zamanda pendnâmelerdeki sosyal ve kültürel öğretilere de değinir. *Kabusnâme*'de yer alan misafirperverlik, ana-babaya saygı, ilim ve meslek öğrenme, edep ve ölçülülük gibi konular, bireyin toplumla uyumlu yaşaması için gerekli görgü ve davranış ilkelerini ortaya koyar. Özellikle misafir ağırlama geleneği, Türk-İslam

kültüründe toplumsal dayanışma ve insan sevgisinin bir yansıması olarak ele alınmıştır. Keykâvus, misafire karşı nazik davranmanın, tatlı sözlü olmanın ve ölçülü olmanın önemini vurgular. *Fütüvvetnâme-i Sultânî*'de ise davet edilmeden gelen misafire dahi saygı gösterilmesi gerektiği belirtilir.

Makalede aktarılan halk kültürü örnekleri —“Mehmon atoyi Xudo” (Misafir Tanrı misafiridir) gibi atasözleri— Türk halkının misafirperverlik geleneğini yaşatan örnekler olarak değerlendirilmiştir. İbn Battûta'nın hatıralarından aktarılan bir örnekle, Anadolu insanının samimiyeti ve misafire gösterdiği gönülden misafirperverlik vurgulanmaktadır.

Çalışmada ayrıca *Kabusnâme*'deki uyarılar ve öğütlerden hareketle bireyin davranışlarında ölçülülük, edep, alçakgönüllülük ve öz denetim ilkelerinin ahlaki olgunlaşmadaki önemi açıklanmıştır. Bu ilkelerin tamamı, insanın hem toplum içinde hem de manevi yaşamında huzura ulaşmasını sağlayan bioestetik bir dünya görüşünün temellerini oluşturur.

Sonuç olarak, makalede pendnâme geleneğinin yalnızca ahlaki öğütler bütünü değil, aynı zamanda estetik değerleri temel alan bir yaşam felsefesi olduğu gösterilmektedir. Bu eserlerde yer alan öğretiler, insanı doğanın ve toplumun güzelliklerini fark etmeye, Yaradan'a şükür duygusuyla yaşamaya ve içsel olgunluğa erişmeye yönlendirir. Dolayısıyla bu mirasın incelenmesi, günümüz eğitim sisteminde ahlaki ve bioestetik değerlerin yeniden canlandırılması açısından büyük önem taşımaktadır.

Kirish

Go'zallik tuyg'usini idrok etish, ya'ni voqelikka estetik munosabat insonning axloqiy-xulqiy xislatlari orqali namoyon bo'lishi masalasi Sharq ilk uyg'onish mutafakkirlari qarashlarining mag'zi edi. Kaykovus bu masalada pand-nasihatlar qilar ekan, ular ta'lim-tarbiya orqali amalga oshishi ayriqsa, go'zallik tarbiyasi orqali o'z fikrlarini bayon qiladi. Tarbiyadan maqsad insonni komilikka erishtirishdir. inson Alloh sifatlarini borliq go'zalliklari orqali anglaydi. Shu bois go'zallikka mahliyo bo'lib, undan baxramand bo'lib yashashi, Yaratganga shukrona aytishi kerak.

Yusuf Xos Hojib o'zining “Qutadg'u bilig” asarida axloq-odobni tabiat go'zalliklariga, bu go'zallikni inson xatti-harakatiga, ularni uyg'unlashtirib, ya'ni tabiatdagi belgi-sifatlarni insonga ko'chirib tasvirlaydi. Insonning axloqiy kamoloti- uning hayot va faoliyatining asosidir: kimning odob- axloqi go'zal va to'g'ri bo'lsa, u kishi o'z

maqsadiga yetishadi va unga baxt kulib boqadi. Yaxshi axloq jamiki yaxshiliklarning asosidir.

Asosiy qism

Go'zallik tuyg'usini idrok etish, ya'ni voqelikka estetik munosabat insonning axloqiy-xulqiy xislatlari orqali namoyon bo'lishi masalasi Sharq ilk uyg'onish mutafakkirlari qarashlarining mag'zi edi. Kaykovus bu masalada pand-nasihatlar qilar ekan, ular ta'lim-tarbiya orqali amalga oshishi ayriqsa, go'zallik tarbiyasi orqali o'z fikrlarini bayon qiladi. Tarbiyadan maqsad insonni komilikka erishtirishdir. inson Alloh sifatlarini borliq go'zalliklari orqali anglaydi. Shu bois go'zallikka mahliyo bo'lib, undan baxramand bo'lib yashashi, Yaratganga shukrona aytishi kerak.

Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarida axloq-odobni tabiat go'zalliklariga, bu go'zallikni inson xatti-harakatiga, ularni uyg'unlashtirib, ya'ni tabiatdagi belgi-sifatlarni insonga ko'chirib tasvirlaydi. Insonning axloqiy kamoloti- uning hayot va faoliyatining asosidir: kimning odob- axloqi go'zal va to'g'ri bo'lsa, u kishi o'z maqsadiga yetishadi va unga baxt kulib boqadi. Yaxshi axloq jamiki yaxshiliklarning asosidir.

Yaxshi xulqli kishilar aql bilan ish ko'ruvchi kishilar bo'lib, har doim xalq va jamiyat manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yadi, birovlardan yordamini ayamaydi, nafsini jilovlay oladigan tarbiyali insonlardir. Zero, hukamolardan biri "Har bir millatning saodati, davlatning tinchi va rohati, yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdir", - degan so'zlarini isbotini bugungi kunda ko'rib turibmiz. Tarbiya esa oiladan boshlanadi. Bola tarbiyasida qo'pollikka yo'l qo'ymaslik kerak ekan bu psixologlarning fikrlari, qat'iyat, chidam va bilim bo'lsa o'ylangan maqsadimizga yetamiz ekan. Bu bola tarbiyalashning nafosatli tarbiyalash usuli hisoblanib, bola o'z fikrlarini ochiq va erkin so'zlashi mumkin. Natijada bolalarning qobiliyatlari yuzaga chiqadi, zero har bir bola qobiliyatli va uni buyuk kashfiyotlar ostonasida qo'ldan kelganicha yordam qo'lini cho'zish lozim. Bolani vaqti vaqti bilan rag'batlantirib, doimo ruhlantirib, suhbatlashib, uni qiynayotgan savollarga javob berib, buyuk shaxslar hayotidan yoki o'zining hayotidan, yutuqlarga erishishdagi mehnatlarini so'zlab berishi kerak. Farzandlarimizga Vatanimiz tarixi, qadriyatlarimiz, mentalitetimizga hos bo'lgan ijobiy fazilatlarni o'rgatib borish, bola yoshligidan o'z oilasiga, Vataniga, o'rtoqlariga mehribon bo'lib o'sishiga zamin yaratadi.

Bundan tashqari bola tarbiyasi uchun kitob muto'alasi bo'lib, kitob o'qish jarayonida bola qahramon bilan birga yashaydi, u bilan birga kuladi, yig'laydi va mushohada qiladi. Ana shunda bola qaysidir xikoya qaxramoniga o'xshab bilimli, aqlli bo'lishga yoki butun bir davlatni hayratga soluvchi kashfiyotchi bo'lib yetishadi.

Bobo va buvilar hamda ota-onalar bolaning birinchi ustozidir, u ota-onasini ko'rib ulg'ayadi, o'rnak oladi. Bolaning har bir yaxshi ishi, so'zi uchun "barakalla sen odobli bolasan" deb uni maqtab o'qilsa yoki bobo va buvilarimiz "Iloyim umringdan baraka top bolam" deb nevaralarini duo qilishsa, o'ylaymanki bunday bolalar kelajakda odobli, esli-hushli va hammani birday hurmat qiladigan insonlar bo'lib ulg'ayishadi. Hazrat Mir Alisher Navoiyning quyidagi nasihatlarini biz yoshlar uchun saboq bo'ladi, "Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va u barokotdin umrbod baxramand bo'ladi".¹

Farzand tarbiyasi murakkab jarayon. Farzandni ulg'aytirish, bilimli qilish, keng dunyoqarashli, ma'nan sog'lom etib tarbiyalash uchun ota-onalarimiz ham diniy ham dunyoviy bilimlarni egallagan, qat'iyatli, sabr-toqatli va farzandini tushuna bilishlari lozim.

Inson dastlabki tarbiyani oiladan oladi. Xalqimiz bejizga «qush inida ko'rganini qiladi» deyishmagan. Bola yoshligidan oiladagi vaziyatni ko'zatadi, ota-ona, aka-opa munosabatlarini tahlil qiladi, o'zlarini tutishi, odobi, muomalalaridan o'rnak oladi. Yaxshi tarbiya olgan farzand ota-onasiga xursandchilik keltirsa, farzand tarbiyasiga e'tibor bermagan oilada noxushlik yuzaga keladi. Ota va ona farzandiga yuksak ma'naviyatni singdirsa, axloqiy fazilatni tushuntirsa, ajdodlar qadriyatini o'rgatsa bu bilan ular farzandini haromdan hazar qilishga, sadoqatga hiyonat qilmaslikka, o'zgalarni aldab kun kechirmaslikka, manfaatning quliga aylanib qolmaydigan shaxsni shakllantirish uchun axloqiy-estetik zamin yaratgan bo'ladilar.

Oilada farzand avvalo kimning naslidan ekanligi, avlod-ajdodlari kimlar ekanligi, buyuk millat, buyuk xalq vaqili ekanligini bilib ulg'ayishi lozim. Go'dakligidan mehr berish, to'g'ri parvarishlash, Vatan muqaddas ekanligini uqtirish, atrofdagilarga nisbatan ishonch va hurmat hissini shakllantiradi. Bu xususda Kaykovus «Qobusnoma» asarida «Farzandga adab, hunar o'rgatmoqni meros deb bilgil. Agar sen xoh unga adab o'rgatgil,

¹ "Комиллик ўғитлари". Т.: "Молия". 2003.

xoh o'rgatmagil turmush mashaqqatlarining o'zi unga o'rgatur. Undoqkim debdurlar, ota-ona tarbiyalamasa, kecha-kunduz uni tarbiyalaydur»²deb ta'kidlaydi.

Mazkur pandnomada ham ota-onaning farzand tarbiyasidagi birinchi vazifasi unga odob-axloq qoidalarini o'rgatish bo'lsa, yana bir muhim vazifasi farzandni kasb-hunarga yunaldirishdir. Agar bu borada to'g'ri tarbiya berilmas ekan, farzand atrofdagi tarbiyasizlikni o'zlashtiradi.

Bundan tashhari "Qobusnoma" da ota o'z farzandiga axloq-odob va hunarni meros qilishi lozim. Odob va hunardan yaxshirok meros yo'qdir. Bundan tashqari ota-ona o'z farzandini tarbiyasida qat'iyatli turishi, muallimlariga nojuya e'tiroz bildirmaligi xususida ham so'z boradi.

Luqmoni Hakim o'z o'g'illariga debdilar: qarindosh urug'lardan aloqangni uzma, o'ylab ish qil. Bekorchi odamlar bilan ko'chada o'tirma, va'da qilsang albatta bajar". Ushbu fikrdan ham ma'lumki farzand tarbiyasida xushyor bo'lmoqlik, asosiysi odob-axloq qoidalarini o'rgatish,bo'sh vaqtdan unumli foydalanishini nazorat qilish va kasb-hunarga yo'naltirishdir.

"Qobusnomada ham ilm va hunar o'rganish inson hayotining mazmuni ekanligi bobbot ta'kidlanadi. «Farzandinga hunar-fan o'rgatmakda taksir qilmagil va har ilmni o'rgatuvchi muallimlar ta'lim uchun ursalar, sen shavkat ko'rgo'zgil, mayli ursunlar, nedinkim yosh o'g'lon ilm-adabni tayoq bilan o'rganur va o'z ixtiyori bilan o'rganmas»³.

Tarbiya borasida ayniqsa Abdulla Avloniyning: «Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak – tanani pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini to'zatk, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdir. Tarbiya qiluvchilar tabib kabi, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berub, katta qilmak lozimdur» kabi fikrlari bugun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

«Qobusnoma» asarida ota-onaga hurmat masalalari ham keng yoritilgan. Ayniqsa "Ota va ona haqqin bilmak zikrida (5-bob)

So'zlaganda ota va onani hurmat va izzat qilish farzlarini ko'rsatib o'tadi: Ey farzand, bilg'ilkim aql yuzasidan farzandga ota-onani izzat va hurmat qilish vojibdur, nedinkim, uning asli ota va onadur". Ota-onani nima uchun hurmat qilurman, deb ko'nglinga keltirmagil, bilgilki, ular sening uchun o'limga ham tayyor turadilar".

² Кайковус "Қобуснома". "Ўқитувчи".Т.:2011.

³ Кайковус "Қобуснома" .105-бет «Ўқитувчи.Т.2011.

Ushbu fikrlari orqali Kaykovus ota-onaning ko'ngli olijanobligini ularga shirin so'z bilan munosabatda bo'lish zarurligini ota onani hurmat qilish farzandlarning aqllili bilan bog'liqliligini ta'kidlaydi.

Zero, tarbiya-insonlarni buyuk maksadlariga erishish yo'lidir. Ko'zlangan maqsadimizga erishish uchun avvalambor yoshlarimizni milliy urf-odatlarimiz an'analarimizga sodiqlik tuyg'usini shakllantirish lozim.

Kaykovusning «Qobusnoma» asarida mehmon olmoq va mehmon bo'lmoq zikrida shunday deyiladi. "Har vaqt mehmonlaring uyingga oyoq qo'ysalar, sen barcha odamlaring bilan ularning oldilariga chiqqil va yaxshi so'z bilan (ularning) muloqot (ko'rishuv) qil, to ular sening shukringni aytsinlar."⁴

O'zbek xalqi, azaldan mehmondo'st xalq. Buni «Mehmon - atoyi Xudo!», «Mehmon otangday ulug'» kabi xalqimiz maqollaridan ham bilishingiz mumkin. Yurtimizda mehmondo'stlik odatlari turlicha bo'lib, ular bir-biridan go'zal, biri ikkinchisini takrorlamaydigan darajada samimiy. Uyimizga mehmon kelishi bilan avvalo mehmonga hurmat ma'nosida salomlashib uyimiz to'risini ko'rsatamiz. Xushmuomalalik bilan xol-axvol so'raymiz.

Xalqimizga xos yana bir xususiyatlardan biri bu mehmonni tanimasa ham unga nisbatan shubxa gumon bilan emas aziz inson sifatida tavoze ko'rsatishdadir. Ayniqsa mehmondorchilikda yaqin og'a-inimiz yodingizdan chiqib chaqirilmay qolib ketdi, lekin o'zi yaqinlaridan eshitib tashrif buyurgan chog'da unga yanada izzat-ikrom ko'rsatish lozim, toki u o'zini chaqirilmagan mehmon deb his etmasin. «Futuvvatnomai sultoniya»da ta'kidlagan adabga ko'ra, chaqirilmagan mehmon ko'proq hurmat o'qinishi kerak ekan. Agar mehmondorchilikda buning imkoni bo'lsa, bu ham to'g'ri.

Mashxur arab sayyohi Ibn Battutaning ajib xotirasi bor. U karvonlari bilan Turkiyaning Onaduli deb atalmish Osiyo qismidagi Dengizli shaxriga yaqinlashganida shopmuylovli barvasta bir odam yo'ldan chiqib otining jilovini maxkam tutadi-da «yur ketdik!» degan ishora qiladi. Sayyoh turkchani, u odam esa arabchani bilmaydi. Yoniga qilich osgan shopmuylovli bu odamni sayyoh qarokchi deb o'ylab, qo'rqib ketadi. Bu ham yetmaganday besh-o'n daqiqadan so'ng yana bir pahlavon odam paydo bo'lib, otning chap tomonidan jilovini ushlaydi. O'zaro nimadir deb gapirib, biri otni u tomonga, ikkinchisi bu tomonga tortqilayveradi. Gap nimada ekanini bilmagan sayyohning ko'rquvi ortaveradi. Tortishuv sababi esa oddiy edi: avval kelgan shopmuylovli pahlavon aytadiki: «birinchi

⁴ Кайковус «Қобуснома» 68-бет. «Ўқитувчи».Т.2011.

bo'lib uni men ko'rdim. Shuning uchun uni biz mehmon qilamiz». Ikkinchi bo'lib jilovni ushlagan pahlavon esa unga e'tiroz bildiradi: «Birinchi bo'lib ko'rganing to'g'ri, lekin birodar, bu yerlar bizniki-ku axir! Bu mehmonga Alloh taolo bizga nasib etgan. Biz uni yediramiz, ichiramiz, yotog'ini tayin qilib qilib beramiz. Duosini, savobini ham biz olajakmiz».

Mehmondorchilikning yana bir qoidasi mehmonga kelgan inson o'z hurmatini izzatini bilishi kerak. Ayniqsa, taomnomada kishini mast qiluvchi sharob bo'lsa mehmon nafsini tiyishi zarur. Aksi bo'lsa oqibatda mastlik qilib turli xaqoratli so'zlarni ishlatishi, mehmonni ko'nglini og'ritib qo'yishi mumkin. Ba'zida bir mehmon bo'lsak bo'libmizda qabilida dasturxonga qo'yilgan barcha ne'matlarni yeyish ham odobdan emas. Bu xususda ham «Qobusnoma»da nasihatlar mavjud. «Ey, farzand, agar mehmon bo'lsang, har kishinikiga mehmon bo'lib boravermagil, chunki zashmat (xashamat) shavkatinga ziyon yetkarursan». «Sharob ichib mast bo'lmag'il, qaytar chog'da yul asnosida mastlik agari sendin zoxur bo'lmasin va xalq xolingni bilmasunlar. Har necha mastlik tilasang o'z uyingda bo'lgil.»⁵ Muhammad (s.a.v.) Hadislarida ham «Ko'pi mast qiladigan ichimlikning o'zini ichishdan sizlarni qaytaraman».⁶

Bundan tashqari, asarda inson ko'nglini og'ritmaslik xatto u xizmatkor bo'lgan taqdirda ham. Deyiladiki: «Agar xizmatkorlaring bir xato qilg'on bo'lsalar, mehmonning qoshida turushruiy bo'lub ularni urushmag'il.

Demak, kishi mehmonga borishdan oldin tamaddi qilib olishi, mehmonga borgandan so'ng dasturxonga o'tirishdan oldin qo'l yuvishi, agar ochlik sezilmasa, taomni bir tatib ko'rib yemasligi, mehmonni xijolatga qo'ymasligi (ya'ni qahva, sok shirinliklar so'rab), qolgan mehmonlar kelguncha taomga qo'l cho'zishga sabr qilishi, yeyishni o'ng qo'ldan boshlashi, birovning luqmasiga qo'l cho'zmasligi, dasturxonga duo o'qilguncha o'rnidan turishligi odobdan ekan.

Adabiyotlar

1. Kaykovus «Qobusnoma». «O'qituvchi». Toshkent, 2011
2. Hamidjon Homidiy. «Avestodan Shohnomaga». Toshkent, 2007.
3. History of Civilizations of Central Asia The crossroads of civilizations: A.D. 250 to 750 Multiple History Series UNESCO Publishing Volume III. 1996.

⁵ Кайковус «Қобуснома» 72-бет. «Ўқитувчи» Т.2011.

⁶ Муҳаммад пайғамбар қиссаси, ҳадис. Т. «Камалак» 1991й. 73-бет

4. G Umaraliyeva. "Bioesthetic problems and their impact on our national values". Culture and Arts of Central Asia, 2018
5. G Umaraliyeva. "Socio-Philosophical Aspects Of The Concept Of Bioaesthetics". Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 2024.
6. G. B. Umaraliyeva. "Specific Features Of State And Law Relations". Mirovaya nauka, 2020
7. G.B. Umaraliyeva. "Bioesthetics: Harmony Of Form And Movement". Mirovaya nauka, 2020.

O'ZBEK TILIDA SINTAGMATIK MA'NO VA SINTAGMATIK MUNOSABAT, ULARNING IFODALANISH YO'LLARI

ÖZBEKÇEDE SENTAGMATİK ANLAM VE SENTAGMATİK İLİŞKİ, İFADE BİÇİMLERİ

Syntagmatic Meaning and Syntagmatic Relationship and Forms of Expression in Uzbek

Huriniso USMONOVA*

Xusnidaxon IMINJONOVA**

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek tilida sintagmatik ma'no va sintagmatik munosabatlarning mohiyati, ularning nutq jarayonida qanday ifodalanishi hamda sintaktik va morfologik shakllar o'rtasidagi munosabat yoritiladi. Tilning chiziqli tuzilishi bilan ma'noning iyerarxik tuzilishi o'rtasidagi nomuvofiqlik misollar orqali tushuntiriladi. Shuningdek, sintaktik ma'noning leksik, funksional va referent ma'nolar bilan bog'liqligi, murakkab birikmalarda shakl va mazmun orasidagi asimmetriya hamda Y. Kurilovichning sintaktik shakllarning birlamchi va ikkilamchi funksiyalari haqidagi qarashlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: sintagmatik ma'no, darajali munosabat, nutqiy faoliyat, funksional ma'no, referent ma'no, sintaktik shakl, morfologik shakl

Özet

Bu makalede Özbekçede sentagmatik anlam ve sentagmatik ilişkilerin niteliği, bunların konuşma sırasında nasıl ifade edildiği ve sözdizimsel biçim ile morfolojik biçim arasındaki ilişkiler ele alınmaktadır. Dilin doğrusal yapısı ile anlamın hiyerarşik yapısı arasındaki uyumsuzluk örneklerle açıklanmaktadır. Ayrıca, sözdizimsel anlamın leksik, işlevsel ve referans anlamlarıyla bağlantısı, karmaşık yapılarda biçim ve içerik arasındaki asimetri ve Y. Kuriloviç'in sözdizimsel biçimlerin birincil ve ikincil işlevlerine ilişkin görüşleri incelenmektedir.

* Namangan davlat universiteti professori

Prof. Dr., Nemangan Devlet Üniversitesi, usmonovahsh@gmail.com

** Qo'qon davlat universiteti doktoranti

Kokand Devlet Üniversitesi Doktora Öğrencisi, iminjonovaxusnidaxon@gmail.com

Anahtar Kelimeler: *sentagmatik anlam, düzey ilişkisi, konuşma etkinliği, işlevsel anlam, referans anlamı, sözdizimsel biçim, morfolojik biçim*

Abstract

This article examines the nature of syntagmatic meaning and syntagmatic relations in the Uzbek language, explaining how they are expressed in speech and how syntactic and morphological forms interact. The mismatch between the linear structure of language and the hierarchical structure of meaning is illustrated through examples. The study also analyzes the relationship of syntactic meaning with lexical, functional, and referential meanings, the asymmetry between form and content in complex constructions, and Y. Kurylowicz's views on the primary and secondary functions of syntactic forms.

Keywords: *syntagmatic meaning, level relation, speech activity, functional meaning, referent meaning, syntactic form, morphological form*

Genişletilmiş Özet

Bu makale, Özbekçede sentagmatik anlam ve sentagmatik ilişkilerin mahiyetini lisanî (dilsel) bir temelde incelemekte ve bu ilişkilerin konuşma zincirinde ortaya çıkış yollarını teorik açıdan değerlendirmektedir. Çalışmanın merkezinde, dilin zorunlu olarak çizgisel (lineer) bir diziliş içinde gerçekleşmesi ile anlamın hiyerarşik, yani “ağacı” bir yapıya sahip olması arasındaki temel uyumsuzluk yer alır. A. Martine'nin “dilin vokal tabiatı çizgisel olmayan deneyimleri çizgisel biçimde ifade etmeye zorlar” düşüncesi, makaleye nazari bir dayanak oluşturur. Örneğin baş ağrısı gibi doğrudan algılanan bir durum, kendi tabiatı gereği çizgisel değildir; ancak dil bu durumu ifade ederken onu kaçınılmaz biçimde segmentlere bölerek ardışık bir yapı içine yerleştirir.

Makalede sentaktik anlam kavramı, soylu ve işlevsel yönleriyle ele alınır. Sentaktik anlam, bir sözcüğün yalnızca leksik anlamını değil, aynı zamanda cümledeki görevsel değerini de kapsar. Ancak kimi durumlarda sözcüğün işlevsel anlamı ile referent anlamı arasında uyumsuzluk görülebilir; özellikle de işlevsel transpozisyon süreçlerinde sözcüğün temel anlamı ile üstlendiği görev arasında belirgin ayrılmalar ortaya çıkar.

Çalışmada, konuşma zincirinin fonetik olarak bölünmesi ile anlamlı birimlere ayrılması arasındaki farklılık da vurgulanır. Bu iki segmentasyon her zaman tam örtüşmez

ve bu nedenle dilbilimde işlevsel anlam ile sentaktik işlev kavramları birbirinden ayrılır. İşlevsel anlam, bir bütün olarak hem sözcüğün sözlüksel içeriğini hem de cümledeki bağlamsal görevini bir araya getirir. Buna karşılık sentaktik işlev daha çok sözdizimsel konum ve biçimle ilgilidir.

Makalede sentaktik şekil ve morfolojik şekil arasındaki ilişki ayrıntılı biçimde incelenmiştir. Sentaktik şekil bir ya da birden fazla morfolojik şekilden meydana gelebilir; çoğu durumda bu iki düzey arasında nicelik (miktar) uyumsuzluğu vardır. Örneğin “Shamoldan tez uchgan poezd” (Rüzgardan hızlı uçan tren) örneğinde tüm söyleyiş iki sentaktik birimden (belirtilen-belirten ilişkisi) oluşsa da morfolojik olarak dört parçaya bölünür. Bu durum, morfolojik şekillerin sentaktik bütün içinde kimi zaman tek bir işlevsel rol üstlendiğini, dolayısıyla biçim ve anlam arasında asimetrisinin doğal olduğunu göstermektedir.

Makalede ayrıca sözdizimsel ilişkilerin anlamsal yönüne dair değerlendirmeler de yer alır. Fiilin leksik anlamı, cümlelerin gramatik ve anlamsal merkezini oluşturduğu için sentaktik bağların niteliği doğrudan fiilin anlamıyla ilişkilendirilir. Sentaktik çözümlemelerde biçimsel modellerin uzun süre baskın olmasının, sentaktik birliklerdeki anlam-şekil asimetrisini yeterince ortaya çıkaramadığı ifade edilir.

Bu bağlamda Y. Kuriloviç'in sentaktik biçimlerin iki işlevi -birincil ve ikincil işlevler- ayırt eden nazariyesi makalede önemli yer tutar. Özne pozisyonunun çoğu zaman eylemin faili (agens) için ayrılmış olduğu bilinse de, gerçek kullanımlarda bu pozisyonu farklı anlam kategorilerinin (durumlar, nesneler, soyut kavramlar) doldurabildiği gösterilir. Böylece sözdizimsel pozisyonların çok işlevliliği, modern sentaksın temel tartışma alanlarından biri olarak sunulur.

Genel olarak çalışma, Özbekçedeki sentagmatik ilişkilerin doğasını, sentaktik ve morfolojik seviyeler arasındaki karmaşık ilişkiyi, işlevsel ve referent anlam arasındaki farkları ve dilin çizgisel yapısının anlamın çok katmanlı yapısını nasıl yansıttığını kapsamlı bir şekilde ortaya koymaktadır. Araştırma, biçim merkezli çözümlemelerin sınırlılıklarını göstererek, sentaktik yapıları anlam merkezli bir yaklaşımla incelemenin önemini vurgular ve Özbekçenin sözdizimsel yapısına dair yeni teorik açıklamalar sunar.

Kirish

Obyektiv olam haqidagi ma'lum tasavvurlarimiz tovushlar ketma-ketligi asosida tashkil topgan moddiy vositalar yordamida yuzaga chiqadi. Bu jarayonda tovushlar ketma-ketligi, til birliklarining bir chiziqda joylashuvi bilan ma'noning darajali (iyerarxik), «tobelilik daraxti» tarzida tuzilishi o'rtasida nomuvofiqlik mavjud bo'ladi. Shuning uchun ham A.Martine bu haqda tilimizning vokallik tabiati chiziqli bo'lmagan tajribalarimizni chiziqli tasvirini talab etadi, degan edi [3.277]. Bunga misol qilib bosh og'riq holati bilan uning nutqiy ifodasi o'rtasidagi munosabatni keltiradi. Darhaqiqat, insonning bosh og'rishi holatida hech qanday chiziqlilik yo'q. Lekin bu holatni ma'lum bir tilda ifodalash uchun chiziqli strukturadan foydalaniladi: Bu holatni vrachga tushuntirish uchun bo-shim og'-ri-yap-ti tarzida ketma-ket kelgan lisoniy vositalardan foydalanamiz. Nutqiy faoliyat segmentlashni talab etadi. Segmentlash esa katta butunliklarni kichik elementlarga ketma-ketlik asosida murakkabdan oddiyga qarab bo'lishni taqozo etadi.

Asosiy qism

Ayrim mualliflarning fikriga ko'ra, nutq parchasida alohida sintaktik ma'noning mavjud bo'lishi so'z shakllarining zanjirsimon (chiziqli) tartibidan ular ma'nosining «daraxtsimon» tuzilishiga o'tishni taqozo etadi.

Avvalo, sintaktik ma'no so'zlarning funktsional ma'nosi bilan leksik ma'nosini o'zida mujassam etadi. Masalan, **bugun** so'zining sintaktik ma'nosi uning **bu kun** leksik ma'nosi bilan qo'shilib ketgan. So'zning referent ma'nosi bilan sintaktik funksiyasi o'rtasida mutanosiblik mavjud.

Ko'p hollarda so'zning funktsional ma'nosi bilan referent ma'nosi o'rtasida nomutanosiblik bo'lishi mumkin. Bunday holat ayniqsa funktsional transpozitsiya hodisasi ro'y berganda ko'proq kuzatiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, nutq zanjirini fonetik segmentlarga ajratish bilan ma'noli qismlarga ajratish o'rtasida farqlanish mavjud. Ular o'rtasida ko'pincha nomutanosiblik vujudga keladi. Ana shunday nomutanosiblikni e'tiborga olgan holda tilshunoslikda ham alohida atamalar bilan farqlanadi. Funktsional ma'no va sintaktik funktsiya bir-biriga qarama-qarshi quyiladi.

Funktsional ma'no deganda ham mazmuniy yaxlitlik nazarda tutiladi. U so'zning leksik ma'nosini va nutq zanjiridagi vazifaviy ma'nolarini o'z ichiga oladi. Funktsional ma'no bir necha referent ma'nolarni o'z ichiga birlashtirishi mumkin. Masalan, **kecha**

kechqurun birikmasi butun jumla tarkibida qachon? so'rog'iga javob bo'lib, bitta funktsional ma'noni ifoda etadi. Kesimlik shaklida kelib, kesim funktsiyasi uchun xoslangan fe'l predikatning **temporal** valentligini to'ldiruvchi, uni yuzaga chiqaruvchi sintaktik birlik sanaladi.

Xuddi shuningdek, sintaktik birliklarda shakl va ma'no munosabatini e'tiborga olganda, uning shakliy tomoni ham umumiylik va xususiylik dialektikasini o'zida namoyon qilgan holda sintaktik funktsiya yoki sintaktik shakl va morfologik shakllarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan.

Har qanday sintaktik shakl sintaktik birliklarning shakliy butunligini ifodalaydi. Sintaktik shakl, o'z navbatida, morfologik shakllardan tashkil topadi. Demak, sintaktik shaklni hosil qiluvchi moddiy vositalar morfologik shakllardir.

Sintaktik shakl bilan morfologik shakl bir-biriga nisbatlanuvchi bir-birini taqozo etuvchi tushunchalar bo'lsa ham, lekin ular o'zaro ma'lum jihatlari bilan farq qiladi.

Eng avvalo, bu ikki tushuncha sath bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Morfologik shakl tilning morfologik sathiga aloqador bo'lsa, sintaktik shakl sintaktik sath birligidir. Demak, morfologik shakl sintaktik shakl uchun moddiy asos vazifasini bajaradi. Ayni paytda sintaktik shakl morfologik shakldan tashkil topadi.

Sintaktik shakl bilan morfologik shakl miqdor jihatdan ko'pincha bir-biriga teng kelmaydi. Sintaktik shakl bir morfologik shakldan tashkil topishi mumkin bo'lganidek, bir necha morfologik shakllardan ham tashkil topishi mumkin.

Sintaktik shakl bitta morfologik shakldan tashkil topganda bu ikki shakl o'rtasida miqdoriy muvofiqlik mavjud bo'ladi.

Ma'lum sintaktik shakl bir necha morfologik shakllardan tashkil topsa, bu vaqtda sintaktik shakl bilan morfologik shakl o'rtasida nomuvofiqlik vujudga keladi. Masalan, **Shamoldan tez uchgan poezd** birikmasi sintaktik shakl nuqtai nazardan ikki qismdan – aniqlovchi va aniqlanmish munosabatidan tashkil topgan bo'lsa, morfologik jihatdan to'rt qismdan iboratdir. Oldingi uchta morfologik shakl o'zaro birikib, **poyezd** so'zi uchun bitta sintaktik vazifada keladi. SHuning uchun shu birikma doirasida bu uchta morfologik shakl bitta sintaktik shakl vazifasida keladi. Morfologik shakllarni vujudga keltiruvchi grammatik vositalar sintaktik shakl uchun nofunktsional sanaladi. Ularning funktsiyasi faqat sintaktik shaklning ichki a'zolari uchun daxldor bo'ladi. Masalan, **Murodalining hovlisida qad ko'targan o'rik butun qishloqda mavjud bo'lgan daraxtlarning eng kattasi edi.**

Berilgan gapdagi **Murodalining hovlisida qad ko'targan o'rik** birikmasi ikki qismdan - **Murodalining hovlisida qad ko'targan** aniqllovchisi hamda **o'rik** aniqlanmishidan tashkil topib, morfologik jihatdan bir necha qismdan iboratdir, ya'ni pred.QbelgiQpred. munosabatidan tashkil topgan butunlik sifatida uchta morfologik shakl birligini hosil qiladi.

Ana shunga muvofiq, bunday grammatik ko'rsatkichga ega bo'lgan so'z shakllari, ya'ni morfologik shakllar ham sintaktik shaklning ichki a'zolari sifatida uni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, gapning sintaktik tuzilishida sintagmatik munosabatgina emas, balki shu gapning grammatik va mazmuniy markazi sanaluvchi fe'llarning leksik ma'nosi ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun gapni tashkil etgan a'zolar o'rtasidagi sintaktik aloqa qanchalik mazmuniy bo'lsa, shu gap tarkibidagi fe'lning leksik ma'nosi ham shunchalik sintaktikdir. Ana shuni e'tiborga olgan holda, fe'lning mazmuniy tadqiqi ham uning sintaktik aloqasiga tayangan holda olib borildi. Shuningdek, ayniqsa keyingi yillarda gapning sintaktik tahlili mazmuniy tomonini ko'proq e'tiborga oladigan bo'ldi.

Sintaktik aloqalarning mazmuniy mundarijasini struktur metodlar asosida o'rganish sintaktik birliklarning mazmuniy va shakliy tuzilishi o'rtasidagi asimmetrik munosabatni yoritishga ma'lum darajada to'sqinlik qildi. Lisoniy birliklarni struktur metod asosida o'rganish asosan sintaktik birliklarning shakliy tomoniga jiddiy e'tibor berdi. Shakliy tomoniga tayangan holda sintaktik birliklarni modellastirish asosiy maqsadga aylandi.

Keyinchalik sintaktik birliklarda omonimiya va sinonimiyaning mavjudligiga e'tiborning qaratilishi, bir sintaktik vaziyatning bir necha sintaktik qurilmalar yordamida ifodalash mumkinligiga ishonch hosil qilinishi tufayli sintaktik birliklarning shakl va mazmuni o'rtasidagi munosabatni yoritishga ehtiyojni orttirdi.

Sintaktik birliklarning shakl va mazmuni o'rtasidagi munosabatni chuqur o'rganish natijasida Ye. Kurilovich sintaktik shakllarning ikki xil funktsiyasi: birlamchi va ikkilamchi funktsiyasi mavjudligi haqidagi fikrga keldi [1.182; 2.59]. Uning bunday fikrga kelishiga sintaktik birliklarni shakl va mazmuni o'rtasidagi asimmetrik munosabatga e'tiborni tortilishi sababchi bo'ldi.

Avvalo sintaktik belgi deganda, u gap tarkibida ishtirok etgan leksemalarning konkret grammatik shakllari e'tiborga olindi. Lekin, asimmetriya funksional indekatorlarnigina emas, balki sintaktik ma'noni ifodalovchi konkret shakldan xoli bo'lgan

sintaktik pozitsiyani ham o'z ichiga oladi. Birinchi holda nutq jarayonida ishtirok etuvchi konkret so'z shakllarining turli ma'nolari haqida fikr yuritilsa, ikkinchi holatda sintaktik pozitsiyalarning polifunksionalligi haqida gap ketadi. Xususan, ega pozitsiyasida faqat harakat sub'ektigina emas, balki ob'ektiv voqelik, nutq vaziyatining boshqa ishtirokchilari – ob'ekt yoki boshqa ishtirokchilarning nomlari ham kelishi mumkin.

Demak, Y.Kurilovich kontseptsiyasiga muvofiq, nutqiy vaziyat ishtirokchilaridan sub'ekt, sub'ektning ham **agens** turi ega pozitsiyasi uchun ko'proq xoslangan. Lekin, ega pozitsiyasi faqat agens bilangina cheklanmaydi. Shu bilan birga agens doimo ega pozitsiyasida kelishi shart emas. Demak, sub'ekt-agensning ega pozitsiyasida kelishi uning birlamchi funktsiyasi bo'lsa, qolgan pozitsiyalarda kelishi esa uning ikkilamchi funktsiyasidir.

Adabiyotlar

1. Курилович Е. Проблема классификации падежей // Очерки по лингвистике. – М.: Наука, 1962.
2. Курилович Е. Деривация лексическая и деривация синтаксическая // Очерки по лингвистике. – М., 1962.
3. Общее языкознание. Внутренняя структура языка. – М., 1972.
Masalan, "Alpomish" dostonida vatanparvarlik, sadoqat, mardlik; "Temur tuzuklari" da adolat, tartib-intizom, rahbarlik mas'uliyati; "Qutadg'u bilig" da esa halollik, donolik, sabr-toqat kabi fazilatlar talabalarga namunaviy ko'rsatma beradi. Bu asarlar nafaqat milliy g'urur tuyg'usini, balki axloqiy mas'uliyat hissini ham shakllantiradi.

Badiiy asarlarning ma'naviy ta'siri insonni ezgulikka undaydi, intellektual tomoni esa tafakkurni kengaytiradi. O'quvchi asar orqali tarixiy voqealar orasidagi sabab-oqibat bog'lanishlarini tahlil qiladi, natijada tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi. Shu bilan birga, ijtimoiy sifatlari – hamdardlik, muloqot madaniyati, jamoada ishlash ko'nikmalari ham shakllanadi.

Bo'lajak pedagoglarda shaxsiy sifatlarni rivojlantirish badiiy asarlarni o'qish bilan chegaralanmaydi. Bu jarayon tahlil, qiyoslash, o'z-o'zini baholash va qadriyatlarni shakllantirish bosqichlari orqali samarali kechadi.

Avvalo, tahlil qilish usuli orqali talaba asardagi qahramonlarning harakatlarini, motivlarini va o'zgarish jarayonlarini o'rganadi. Bu esa tahliliy fikrlash va hayotiy saboq chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Qiyoslash bosqichida talaba o'z tajribasini qahramonlar hayoti bilan solishtiradi, o'xshashlik va farqli jihatlarni topadi. Bu orqali u o'zini chuqurroq anglay boshlaydi.

O'z-o'zini baholash esa talabaning ma'naviy kamolotida muhim o'rin tutadi. U asardagi murakkab holatlarga nisbatan o'z qarashini bildiradi, muammoli vaziyatlarda qanday yo'l tutishini tahlil qiladi.

Yakuniy bosqich — qadriyatlarni shakllantirishdir. Bu jarayonda qahramonlarning ijobiy fazilatlarini talaba hayotida mustahkamlanadi. Shu tariqa, o'qilgan asarlar shaxsning ichki olamiga kirib, uni ma'naviy jihatdan boyitadi.

Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchidan nafaqat bilim, balki ijodkorlik, tahliliy fikrlash va innovatsion yondashuvni talab qiladi. Shu bois badiiy-tarixiy asarlar asosida shaxsiy sifatlarni rivojlantirish jarayonida quyidagi tamoyillar muhim o'rin tutadi:

1. Shaxsga yo'naltirilganlik va ijodkorlik – har bir talaba o'ziga xos shaxs sifatida qaratiladi. Badiiy asarlar orqali uning dunyoqarashi, qiziqishlari, hayotiy tajribasi e'tiborga

olinadi. Pedagog o'qitish jarayonida talabaning ijodiy fikrlashini rag'batlantiradi, unga mustaqil xulosa chiqarish imkonini beradi.

2. Antropologik yondashuv – bu tamoyil insonni, uning hayotiy yo'lini va o'zini anglash jarayonini markazga qo'yadi. Talaba qahramonlarning kechinmalari orqali o'z shaxsiy fazilatlarini tahlil qiladi, o'zini “men kimman?” degan savolga javob izlashga o'rgatadi.

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish – AKT vositalari orqali badiiy asarlarni o'rganish jarayoni yanada qiziqarli va samarali bo'ladi. Masalan, asar tahlilini virtual muhitda o'tkazish, onlayn bahslar tashkil etish, video tahlil yoki podkastlar yaratish talabalarning faolligini oshiradi.

4. Tizimlilik va uzluksizlik – shaxsiy sifatlarni rivojlantirish bir martalik emas, balki bosqichma-bosqich jarayon bo'lishi zarur. Har bir dars, har bir tahlil avvalgisiga tayanib, keyingisini tayyorlaydi.

5. Hayot bilan aloqadorlik – o'rganilgan fazilatlar real hayotda qo'llanishi kerak. Masalan, o'qituvchi kelajakda sabr, mehr, adolat kabi fazilatlarini o'z kasbiy faoliyatida namoyon etishi lozim.

6. Erkinlik va tabiiylik – pedagogik jarayonda talabalarga fikr bildirish, bahslashish va ijod qilishda erkinlik berish shaxsning tabiiy rivojlanishini ta'minlaydi.

7. Hamkorlik va ma'naviy birdamlik – o'qituvchi va talaba o'rtasidagi ishonchli, ochiq munosabat shaxsiy fazilatlarini shakllantirishda kuchli turtki beradi. Bunday hamkorlik ilmiy va ma'naviy o'sish uchun muhim sharoit yaratadi.

Innovatsion yondashuvni amaliyotda samarali qo'llash uchun quyidagi shakl va usullar muhim ahamiyatga ega:

Interfaol tahlil – asar voqealarini guruhli muhokama qilish, dramatizatsiya yoki sahnalashtirish orqali chuqur tahlilga kirishish.

Avtobiografik yozuvlar – talabalar o'z hayotidagi tajribalarni asardagi vaziyatlar bilan bog'lab yozadilar, bu esa o'zini anglashni kuchaytiradi.

Munozara va debatlar – qahramonlarning qarorlari ustida fikr almashish orqali tanqidiy tafakkur rivojlanadi.

Multimedia vositalaridan foydalanish – asar mazmunini audio, video, grafik materiallar yordamida tahlil qilish jarayonni jonlantiradi.

Ijodiy topshiriqlar – talaba asar qahramoniga xat yozadi, yangi sahna yaratadi yoki zamonaviy kontekstda qayta talqin qiladi.

Bu usullar bilimni mustahkamlabgina qolmay, talabalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va o'zini tahlil qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy-tarixiy asarlar insonni ma'naviy, intellektual va ijtimoiy jihatdan kamolga yetkazuvchi qudratli vositadir. Ular shaxs qalbida insoniylik, vijdon, mardlik, sadoqat va fidoyilik kabi fazilatlarni uyg'otadi.

Innovatsion yondashuv tamoyillari asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni esa bu jarayonni yanada samarali va zamon talablari darajasida amalga oshirishga imkon beradi. Shaxsga yo'naltirilgan, AKT vositalariga tayanadigan, uzluksiz va tizimli ta'lim modeli badiiy asarlar orqali shaxsni har tomonlama kamolga yetkazadi.

Natijada, bo'lajak pedagoglar nafaqat kasbiy kompetensiyalarni, balki shaxsiy fazilatlarni – halollik, mehr-shafqat, sabr, vijdon va insonparvarlikni o'zida mujassamlashtirgan holda, kelajak avlodni ma'naviy barkamollikka yetaklaydigan ibratli o'qituvchilar sifatida shakllanadilar.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Vohidov R. Axloqiy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018.
3. Raximov B. Shaxs kamolotida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'rni. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
4. Yusupova D. O'quvchilarda badiiy asarlar orqali ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirish.
// Xalq ta'limi jurnali. – 2020. – №4. – B. 61–65.
5. Nazarov A. Adabiy-tarixiy meros va yoshlar ma'naviyati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2012.
6. Krayevskiy V.V. Pedagogik tadqiqot metodologiyasi. – Moskva: Akademiya, 2005.
7. Andreyev V.I. Pedagogik innovatsiyalar nazariyasi. – Qozon: Kazan universiteti nashriyoti, 2003.
8. Petrovskiy A.V. Shaxs psixologiyasi asoslari. – Moskva: Pedagogika, 2004.

NASRIY ASARLARDA OBRAZLAR IFODASI VA ULARNING BADIY TAHLILI

MENSUR ESERLERDE İMGELERİN İFADESİ VE SANATSAL ÇÖZÜMLEMELERİ

Expression of Images in Prose Works and Their Artistic Analysis

Muhayyoxon HAMIDOVA*

Annotatsiya

Ushbu maqolada nasriy asarlarda obrazlar ifodasi, ularning badiiy shakllanish jarayoni hamda estetik tahlili yoritiladi. Asarda yaratilgan obrazlarning xarakteri, ruhiy holati, ijtimoiy mavqei va muallif munosabati o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi. Shuningdek, yozuvchi tomonidan qo'llanilgan badiiy vositalar, tasvir usullari va obraz yaratishdagi individual uslub xususiyatlari ko'rib chiqildi va atroflicha tahlil qilindi, nasrda obraz badiiyatini anglash adabiy asarning g'oyaviy mazmunini to'laqonli tushunishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Kalit so'zlar: *Shukur Xolmirzayev, nasriy asar, obraz, badiiy ifoda, estetik tahlil, yozuvchi uslubi, badiiy vositalar, xarakter, nasr poetikasi*

Özet

Bu makalede, mensur eserlerde imgelerin anlatımı, sanatsal oluşum süreci ve estetik çözümlemesi ele alınmaktadır. Karakter, ruh hali, sosyal statü ve yazarın eserde yaratılan imgelere karşı tutumu arasındaki ilişki analiz edilmektedir. Yazarın imgeyi yaratırken kullandığı sanatsal araçlar, betimleme yöntemleri ve kişisel üslup özellikleri de ayrıntılı olarak ele alınıp analiz edilmiş, düzyazıdaki imgenin sanatsal boyutunu anlamanın, edebi eserin ideolojik içeriğini tam olarak anlamaya hizmet ettiği vurgulanmıştır.

Anahtar Kelimeler: *Şukur Halmirzayev, mensur eser, imge, sanatsal ifade, estetik analiz, yazım tarzı, sanatsal araçlar, karakter, nesir poetikası*

* Namangan davlat universiteti professori
Prof. Dr., Nemengan Devlet Üniversitesi, muhayyoxonhamidova72@gmail.com

Abstract

This article explores the expression of characters in prose works, their artistic formation process, and aesthetic analysis. It examines the relationship between the characters' nature, psychological state, social status, and the author's attitude toward them. In addition, the artistic devices, descriptive techniques, and the author's individual style in character creation are discussed and analyzed in detail. The study emphasizes that understanding the artistic aspects of characters in prose contributes to a deeper comprehension of the ideological and thematic content of a literary work.

Keywords: *Shukur Kholmirezayev, prose work, character, artistic expression, aesthetic analysis, author's style, literary devices, characterization, poetics of prose*

Genişletilmiş Özet

Bu çalışma, Özbek edebiyatının önde gelen temsilcilerinden Şukur Halmirzayev'in mensur eserlerinde özellikle de “Olabo‘ji” (Öcü) romanında imge ve karakter yaratımının sanatsal boyutunu incelemektedir. Düzyazı türünde imgelerin oluşumu, karakterlerin psikolojik derinliği, toplumsal konumları ve yazarın onlara karşı takındığı estetik tutum, makalenin temel inceleme alanını oluşturur. Çalışmada imgenin yalnızca betimleyici bir unsur değil, aynı zamanda yazarın dünya görüşünü, estetik idealini ve zamanın ruhunu yansıtan çok katmanlı bir anlatı ögesi olduğu vurgulanır.

Öncelikle Şukur Halmirzayev'in edebi kişiliği, üretkenliği ve Özbek nesrinin gelişimindeki yeri ele alınmaktadır. Yazarın 1960'lardan itibaren hikaye, novella ve roman türlerinde verdiği eserlerle Özbek edebiyatına “şefkatsiz realizm” anlayışını getirdiği, Baysun coğrafyası ve insanlarını merkeze alan tematik yöneliminin zamanla estetik kimliğine dönüştüğü belirtilmektedir. Halmirzayev'in gençlik romantizminden gerçekçi anlatıya yönelişi, onun karakter yaratımındaki derinlik, çatışma ve psikolojik çözümleme becerisini geliştirmiştir.

Genişletilmiş çözümlemenin merkezinde yer alan “Olabo‘ji” (Öcü) romanı, toplumsal dönüşümlerin birey üzerindeki etkilerini çok yönlü biçimde ele alan örnek bir modern Özbek mensur metnidir. Romanın başkahramanı Ultan Sultanov'un ruhsal çözülüşü, toplumsal baskılarla yoğrulan yaşamı ve yozlaşmış bürokratik yapı ile girdiği çatışma, anlatının dramatik eksenini oluşturur. Ultan'ın idealist kişiliğinin yavaş yavaş

kırılışı, onun “olabo‘ji” (öcü) imgesine dönüşmesi ve çevresiyle kurduğu problemli ilişkiler, yazarın toplum - birey arasındaki gerilimi güçlü bir psikolojik analizle işlediğini göstermektedir.

Eserdeki ikincil karakterler, özellikle Bahar ve Toklibay Koçkarov, romanın ideolojik ve estetik kurgusunu tamamlayan önemli figürlerdir. Bahor’un trajik kaderi, yozlaşmış ahlaki düzenle karşı karşıya kalan kırılğan bir kadın figürü olarak modern Özbek toplumunun dönüşüm sancılarını temsil eder. Toklibay Koçkarov ise gücün yozlaştırıcı yönünü, çıkar ilişkilerinin bireysel hayatları nasıl altüst ettiğini somutlaştıran merkezî bir imgedir. Bu karakterlerin iç dünyaları, davranışları ve ilişkileri üzerinden romanda psikologizm güçlü biçimde hissedilir; semboller, detaylar, doğa tasvirleri ve ramz (simge) kullanımı metnin estetik bütünlüğünü pekiştirir.

“Olabo‘ji” romanında imgelerin işlevi yalnızca karakter tanıtımı değildir; onlar aynı zamanda dönemin toplumsal koşullarını yansıtan estetik göstergelerdir. Ramz niteliğindeki “olabo‘ji” (öcü) imgesi, hem bireysel bir yıkımın hem de bir dönemin çöküşünün sembolik anlatımıdır. Yazarın ayrıntılara hâkimiyeti, doğa ve insan ilişkisi üzerinden kurduğu metaforik yapı, imgeleri eserin ideolojik dokusunun merkezine yerleştirir.

Sonuç olarak, bu makale Halmirzayev’in nasriy eserlerinde imgelerin nasıl üretildiğini, karakterlerin hangi sanatsal araçlarla inşa edildiğini ve psikolojik çözümlemenin romanın bütününe nasıl yön verdiğini ortaya koymaktadır. Özellikle “Olabo‘ji”nin (Öcü’nün) imge sistemine yapılan derinlemesine değerlendirme, yazarın insan ruhunu çok katmanlı bir dünyada ele alma becerisini gözler önüne serer. Dolayısıyla çalışma, hem modern Özbek düzyazısında karakter çözümlemesi hem de edebi imgelerin estetik işlevi bağlamında önemli sonuçlar sunmakta; Halmirzayev’in sanatının özünü oluşturan insan - toplum ilişkisine dair geniş bir perspektif ortaya koymaktadır.

Kirish

Adabiyot inson tafakkuri, his-tuyg‘ulari va hayotiy tajribasining badiiy in’ikosi sifatida jamiyat ma’naviyatini boyituvchi muhim sohadir. Har bir adabiy asarning badiiy kuchi, avvalo, unda yaratilgan obrazlarning hayotiyliги va ishonarliligi bilan belgilanadi. Obraz – bu yozuvchining dunyoqarashi, estetik didi hamda hayotni idrok etish uslubini ifodalovchi asosiy badiiy vositadir.

Nasriy asarlarda obraz yaratish jarayoni o'ziga xos badiiy tafakkurni, tahliliy fikrlashni va real hayot manzaralarini chuqur his etishni talab qiladi. Yozuvchi o'z asarida obraz orqali inson ruhiyati, jamiyatdagi o'rni, ichki kechinmalari va ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlarni tasvirlaydi. Shu bois nasrda obrazlar ifodasi va ularning badiiy tahlili adabiyotshunoslikda dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.

Mazkur ishda nasriy asarlarda obrazlarning yaratilish uslubi, ularni badiiy shakllantirishda qo'llanilgan vositalar, shuningdek, muallifning estetik qarashlari va individual uslubi tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – nasrda obraz badiiyatini o'rganish orqali adabiy asarning g'oyaviy mazmuni va estetik mohiyatini chuqurroq anglashdir.

O'zbekiston xalq yozuvchisi, Hamza nomidagi Davlat mukofoti sohibi Shukur Xolmirzayevning asarlarini o'qimagan o'zbek o'quvchisini topish qiyin. Sababi, betakror hikoyalari, jozibador qissalari, yuksak saviyali romanlari allaqachon o'zbek adabiyotining nodir javohirlari qatoridan o'rin olgan. Yozuvchi bir umr o'zbek xalqining xarakterini, yashash tarzini, qiyofasini badiiy obrazlar orqali tasvirlab berdi.

Asosiy qism

Nasriy asarlar adabiyotning eng keng tarqalgan va xalq hayotiga eng yaqin turlaridan biridir. Nasrda yozuvchi hayotni real shaklda, hayotiy voqealar va insonlar taqdiri orqali tasvirlaydi. Shu bois nasriy asarlarda obrazlar tizimi markaziy o'rinni egallaydi. Har bir obraz yozuvchining badiiy niyatini, estetik qarashlarini va dunyoqarashini ifodalovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Obrazning badiiy ifodasi, eng avvalo, yozuvchining tasvir uslubi, til boyligi, psixologik tahlil darajasi va tasviriy detallarni qo'llash mahoratiga bog'liq. Yozuvchi qahramonlar ruhiyatini ochishda ichki monolog, dialog, portret, muhit tasviri, tazod, ramz va detal kabi badiiy vositalardan foydalanadi. Bu vositalar orqali asarda inson ruhiyatining murakkab qatlamlari, ichki kechinmalari va ijtimoiy hayotdagi o'rni yoritiladi.

Nasrda obraz yaratishning muhim jihatlaridan biri – bu uning **psixologik tahlil** orqali ochilishidir. Yozuvchi qahramonning faqat tashqi harakatlarini emas, balki ichki kechinmalarini, fikrlari va tuyg'ularini ham tasvirlab, o'quvchini uning ichki dunyosiga olib kiradi. Shu tarzda obraz real, hayotiy va ishonarli tus oladi.

Bundan tashqari, nasrda obrazning **ijtimoiy funksiyasi** ham katta ahamiyatga ega. Har bir qahramon ma'lum bir ijtimoiy qatlam, davr yoki muhit vakili sifatida asarning

g'oyaviy mazmunini to'ldiradi. Obrazlar o'rtasidagi ziddiyat, ularning maqsad va qarashlaridagi farqlar orqali asarning drammatizmi, badiiy kuchi ortadi.

Obrazlar tahlilida yozuvchining **individualligi** alohida o'rin tutadi. Har bir ijodkor o'z hayotiy tajribasi, badiiy tafakkuri va estetik idealiga ko'ra obraz yaratadi. Masalan, Abdulla Qahhor obrazlarida hayotiylik, ichki mantiq va ijtimoiy muhit ta'siri kuchli sezilsa, O'tkir Hoshimov nasrida obrazlar ko'proq ruhiy chuqurlik, mehr va insonparvarlik tuyg'ulari bilan ajralib turadi.

Shu tariqa, nasriy asarlarda obrazlarni badiiy tahlil qilish orqali biz nafaqat yozuvchining uslubini, balki davrning ruhini, jamiyatdagi o'zgarishlarni va inson tabiatining murakkabligini ham anglaymiz.

Shukur Xolmirzayevning "Olabo'ji" romani ana shunday inson taqdiri haqida kitobxonni mulohazaga chorlovchi asarlaridan biri desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Chunki asar qahramoni Ultonning beg'ubor muhabbati toptalib, hayoti izdan chiqadi. Romanni o'qir ekanmiz, qahramonlar taqdiri bizni befarq qoldirmaydi.

Badiiylik tarixiy kategoriyasi negizida yozuvchi Sh.Xolmirzayevning voqelikni badiiy obrazlar vositasida idrok etishi, obrazli fikrlashi bilan bog'liq ijodiy-ruhiy faoliyati tahlil etilgan. Bu jarayon har bir davr ma'naviy-estetik ehtiyojlari, badiiy didi bilan bog'liq holda o'zgarib turishiga diqqat qaratilgan. Badiiy reallikning voqe bo'lishi, asarning yaxlit organik birligi ta'minlanishda shakl va mazmun mutanosibligi o'rganilgan. Zohiran reallikka monand bo'lgan irreal olamning shartlilik xususiyati, badiiy matnning estetik subyekt – o'quvchiga yo'naltirilganligi, o'ziga xos betakror hodisa bo'lgan badiiy voqelikning kitobxon tomonidan qayta yaratilishi singari masalalarga diqqat qaratilgan. So'z san'atkori ijod onlaridagi ma'naviy-ruhiy holatini tasavvur qilish orqali unga ayon bo'lgan, serqatlam ma'nolar, xususan, romanda dunyo konkret inson harakat qiladigan muhit bo'lish bilan bir qatorda ziyoli inson hamisha odam va olam muammolari bilan chambarchas bog'liq bo'lishiga diqqat qaratilganini anglashga harakat qilingan.

Adibning "Olabo'ji" romani ramziy-ishoraviy nomlanishi bilanoq e'tiborni tortadi. Ma'lumki, ramz (ar. - imo, ishora, imlash) - simvol; ko'chim turlaridan biri bo'lib, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko'chma ma'no kasb etuvchi so'z yoki so'z birikmasi, ya'ni obrazlilik turidir. Ramz mohiyatan allegoriyaga yaqin, undan farqi shuki, ramz kontekst doirasida ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda qo'llanadi. Ramzning ma'nosi kontekst doirasida va shartdan xabardorlik bo'lganda reallashadi. Shukur

Xolmirzayevning biz keng tahlilga tortgan “Olabo‘ji” romanidagi “olabo‘ji” atamasi ham ramznining yorqin misoli bo‘la oladi.

Qahramon ruhiy olami tasviri Shukur Xolmirzayev nasriy asarlarida o‘ziga xos tarzda aks etganligi bilan kitobxonning diqqatini tortmay qolmaydi. Yozuvchining “Olabo‘ji” romanini o‘qiganimizda anglaymizki, olabo‘ji – sho‘ro tuzumning yashash tarziga bo‘yin egmagan, milliy qadriyatlarimizga ixlosi baland bir devonadir. Boshqalar nazrida defona deb e’tirof etilgan bosh qahramon – buyuk arxeolog (qadimshunos), ayni chog‘da o‘ziga xos o‘jar bir insondirki, hayotning zarbalaridan qochib, tabiat bag‘riga chekinadi. Shu bois “jinni” laqabini oladi va oqibat jinnixonaga jo‘natiladi [2, 346].

Adabiyot va san’atdagi zamonaviy hayotni, unda ro‘y berayotgan muhim, jiddiy o‘zgarishlarni badiiy o‘zlashtirish, ularni haqqoniy va go‘zal badiiy obrazlar orqali aks ettirishda zuhur bo‘ladi [6, 8]. Agar “Olabo‘ji” romaniga shu nuqtai nazardan yondoshsak adibning o‘ziga xos uslubi orqali asar personajlari yorqin, to‘laqonli obraz darajasiga ko‘tariladi. Bu obrazlar zamirida yotgan milliy va ma’naviy qadriyatlar, olijanob insoniy fazilatlar zamonlar o‘tsa-da o‘zining qadr-qimmatini yo‘qotmaydi.

Shukur Xolmirzayev “Olabo‘ji” romanida mustaqillikka intilish va bozor iqtisodiyotiga “o‘tish davri” murakkabliklari hamda odamlar tabiatida kechgan o‘zgarishlarni qalamga olib, ularni bartaraf etishning yo‘llari haqida poetik hukm-xulosalar chiqargan. Bu jarayonlar roman bosh qahramoni – oddiy qishloq o‘qituvchisi, ko‘zga ko‘ringan yozuvchi Ulton Sultonovning taqdiri misolida badiiy tahlil va tadqiq etilishini o‘rganish maqsadini ko‘zlaydi.

Shubhasiz, asarda adaptatsiya masalasi inson va insoniyat qismatini ham chetlab o‘tmaydi. Shunday ekan, aytish mumkinki, roman badiiy vaqtida harakatlanuvchi personajlar taqdiri misolida yaqin o‘tmish davri zamondoshlarimiz hayoti, davr va shaxsh fojiasi o‘z aksini topgan.

Muallif roman haqida izoh berar ekan: “Olabo‘ji” o‘tgan yili “Sharq yulduzi” jurnalida e’lon qilindi. Shu asarning janrini romandan katta hikoya deb belgiladim. Bu narsani o‘zimni o‘zim aldash uchun qildim. Roman desam, voqealar tarmoqlanib, sochilib ketadigandek tuyuldi. Agar hikoya desam, men o‘zimni tiya bilarkanman. Baribir, shunday bo‘lsa ham 400-500 qog‘oz bo‘lib ketdi” [8, 124].

Asar qahramoni Ultonning yaqinlari, tanish-bilishlari bilan bo‘lgan munosabatlari, o‘zi ishongan insonlar tufayli “olabo‘ji”ga aylanishi albatta kitobxonni chuqur mulohazaga

chorlamay qolmaydi. Xarakter va voqealar o'rtasidagi munosabat insoniy muloqotlar jarayonida ochila boradi.

Sh.Xolmirzayev roman tugunidayoq voqealar qanday kechishiga kitobxonni qiziqtirib qo'yadi [4, 335-336]. Voqealarning borishidagi o'ziga xos sirlilik, roman tugunining sabablarini bilishga qiziqishni kuchaytiradi. Yozuvchi asosiy voqea bayoni bilan u bo'lib o'tadigan joylar tasvirini yonma-yon tarzda tasvirlaydi. Aytish mumkinki, roman ekspozitsiyasi yetakchi voqealarga parallel holda chiziladi. Real voqelik bilan bog'liq muammolar izlanish, iztirobli o'ylar, ajdodlar merosini o'zlashtirish va o'z fikrini ochiq aytishga, milliy qadriyatlarimiz, ma'naviy me'rosimizni asrash uchun kurashgan insonlar fojiasi romanning yechimidir.

Yozuvchi romaning asosiy qahramonlaridan biri Ulton Sultonovning og'ir iztiroblarga to'la hayotini shunday tasvirlaganki, kitobxonda Ultonga nisbatan achinish, yosh yigitni nobud qilib, "Olabo'ji"ga aylantirgan jamiyat, shu jamiyatda katta rol o'ynayotgan rahbarlarga nafrat uyg'onishi tabiiy.

Asarda bo'lib o'tgan voqealar, harakatlar bosh qahramon Ulton Sultonov taqdiri bilan uzviy bog'liq. Unda Ulton hur fikrli, sodda, tabiatni jonu dilidan sevuvchi, erk va mustaqillik, ekologik o'pirilishlarga qarshi o't ochuvchi yozuvchi shaxs sifatida tasvirlangan. U doimo tabiatdek tabiiy yashashni istaydi. Uningcha, hayotda har bir ish – tabiiy beg'araz va makru xiylalarga ustamonligi degan modullardan holi bo'lishi kerak.

Adib Ulton obrazini yaratishda psixologizmdan keng foydalanadi. Nafaqat Ulton obrazi, balki boshqa qahramonlar tasvirida ham psixologizmdan keng foydalanib, asarni kitobxonlar tomonidan sevib qarshi olinishiga erisha oldi.

Ulton o'zi tarix-arxeologiya fakultetini bitirgan bo'lib, viloyatda yozuvchi sifatida xiyla taniqli, lekin qishlog'ida tabiatshunoslik fanidan dars berishi bilan birga, darveshona hayot kechirishni yaxshi ko'radi. U tabiatni, unda yashovchi barcha jonivorlarni yaxshi ko'radi. Ko'plab hayvon, parrandalarning bekordan-bekorga nobud bo'layotganidan doimo ruhiy qiynoqqa tushadi.

Ayrim personajlari xarakteridagi o'zgarishni dalillash uchun uni jamiyatda yuz berayotgan favqulodda o'tkir voqea-hodisalar orasida ular bilan uzviy bog'liq holda voqea-hodisalarga munosabatlarini aks ettirish orqali tasvirlashsa, ayrim yozuvchilar birgina detal orqali ham qahramon va personajlar xarakteridagi to'ntarishni uddalay oladi" [5, 24]. Darhaqiqat, har bir ijodkor asarida barcha voqealarni bog'lab turuvchi, muallif g'oyasini ochishga xizmat etish vazifasini bajaradi. "Qiziq detal, chiroyli parcha asarning

qimmatini oshiradiki, shu qiziqarlighi, shu chiroyligi bilan g'oyani ochishiga xizmat qilsa" [7, 123], deydi yozuvchi Abdulla Qahhor. Yozuvchi Ulton ruhiyatini, asarning asosiy g'oyasini ochib berish uchun ayiq detalidan foydalangan.

Asarning boshi "Ulton Seton Tompsonning "Qo'ng'ir ayiq" qissasini o'qib bo'lib, o'ylanib yotgan edi, telefon jiringlab yubordi. Yigit qandaydir maxluq chinqirig'i eshitilganday cho'chib tushib, alangladi" [11, 8] parchasi bilan boshlanishi fikrimizni oydinlashtiradi.

Asarni o'qish davosida kitobxon Ultonda ham ayiqqa xos sifatlarni ko'ra boshlaydi. "Ulton qiz tomonga borarkan, allanechuk enkayib jilar, ta'bir joiz bo'lsa... ayiqqa, ha, qandaydir paxmoq-tajovuzkor maxluqqa o'xshar edi.

Yozuvchi fikrini aniqroq berish uchun momosidan yoshligida ayiq o'g'irlab ketgan qiz (Tiniqoy degan kampir-ta'kid bizniki – M.H.) haqidagi bir hikoyani [9, 148] ham asarga kiritadi. Asarda mazkur hikoyani cho'ponlar gurungida [10, 37] eshitgan tarzida tasvirlaydi. Xullas, adib o'z fikrini quyidagicha falsafiy fikrlar bilan davom ettiradi:

"Inson hayotida shunday daqiqalar bo'ladiki, nimani o'ylayotganini o'ziyam bilmaydi, ammo xatti-harakatlar go'yo chuqur fikrning natijasi o'laroq ro'yobga chiqadi. Shuning uchun shu o'rinda uqtirib o'tish lozimki, yozuvchilar goho qahramonlarning o'ylarini bayon etish asnosi ularning harakatlarini izohlasa, goho qahramonning faqat xatti-harakatini tasvirlashdan boshqa iloj topolmaydi: biroq shu narsaga amin bo'lib turadiki, xolis kishi ushbu xatti-harakatlarga aslo shubha bilan qaramaydi.

Odamzod-murakkab jonzot, qalam ahliyam uning bir qavmi, xolos"[10, 86].

Darhaqiqat, Ulton kitobxonda ana shunday murakkab, tushunish qiyin bo'lgan shaxsdek taassurot uyg'otadi. Sababi, hammaning hurmatini qozongan Ultondek yigit ustoz To'qliboy Qo'chqarovga haddan tashqari ishonadi. Buning oqibatida esa uning hayoti fojia bilan tugaydi.

Asardagi Ulton obrazini to'ldiradigan qahramonlardan biri – Bahor. Dastlab kitobxon Bahorning To'qliboy Qo'chqorovning kabinetida quyidagi ko'rinishda tanishadi: "U oppoq ityoqa ko'ylak va yo'l-yo'l beqasamdan yubka kiygan, bir qarich qoldirib kesilgan tim qora sochi yelkasiga tushgan, charos ko'zlari qandaydir chaqnoq qiz... Oqsuvdagi ambulatoriyaning bosh do'xtiri edi"[10, 30].

Turg'unlik yillaridagi inqirozlar Bahor qismati orqali asarda aks ettirilgan. Asrimiz boshida g'ayriaxloqiy hodisalar g'oyatda murosasiz edi. Tomonlar oriyat uchun kurash

olib borar edilar. Kurash turlari g'oyatda jo'n, oz, sodda edi. Yo g'alaba bilan yo o'lim bilan tugashi kerak edi.

Yillar o'tishi bilan ma'naviy tubanliklar tusini o'zgartirdi. Lekin uning yovuz qiyofasi, chirkin olami o'zgargani yo'q. Bahor ana shu "silliliklar"ning qurboni edi.

To'qliboy Qo'chqorov, Maxfirat Egamqulova kabi insonlarning ta'siri ostida Bahor singari navqiron qizlarning boshi berk ko'chalarga kirib ketishidan asrash, ularning tabiatidagi bokiralik, hayo, oriyat tuyg'ularini saqlab qolish ayollarning azaliy ma'naviy pokligiga qaytarish asarning asosiy g'oyalaridan biridir. Shundagina Bahor fojiasi boshqa biror zamondoshimiz, do'stimiz fojiasi bo'lmaydi. Romandagi Bahor obrazi shu jihatdan qaraganda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Yozuvchining o'zi aytganidek, uning har bir asari qahramonlari xoh ijobiy, xoh salbiy bo'lsin, iloji boricha unga ijobiy tarzda ham, salbiy tarzda ham yondoshishga harakat qiladi. Axir, "beayb parvardigorning o'zi", deydi xalqimiz. Shuning uchun har bir insonda yaxshi va yomon xislatlar mavjud. Buni esa o'zimiz tan olgimiz kelmaydi. Ko'p yozuvchilar ham bunga e'tiborsizlik bilan yondoshib, ijobiy xislatga, salbiy qahramonlarni salbiy xislatlarga ega qilib tasvirlashga urinadilar. Bu esa asarning qimmatiga salbiy ta'sir qiladi. Shukur Xolmirzayevning asarlarida bu holga katta e'tibor berganini sezamiz. Jumladan, "Olabo'ji" romanidagi yuqorida nomlari zikr etilgan rahbarlarda ham shu holatlar kuzatiladi.

Darhaqiqat, "romanning vazifasi masala ko'tarish emas, balki hayot o'zi ko'ndalang masalalarni inson taqdiriga singdirib yuborish", bu masalalar tagida yashirinib yotgan dramalarni ko'rsatish, ko'rsatganda ham badiiy barkamol obrazlar vositasida ko'rsatishdan iboratdir. Shuning uchun ham badiiy asarda hamma narsa, shu jumladan, ko'tarilgan masalaning muhimligi ham, badiiy obrazning mukammalligiga, ya'ni yozuvchining kitobxonni larzaga solishga qodir bo'lgan "tirik odam" yarata olish qobiliyatiga bog'liqdir" [3,116-117]. "Tirik odam" yarata olish qobiliyati esa o'z navbatida psixologik tahlildan qay darajada foydalana bilishga, uni asar to'qimasiga, muammosiga singdirib yubora olish mahoratiga ham bog'liqdir" [12, 56].

Yozuvchi asarda ana shunday "tirik odam"larni yarata olgan. Romanning markazida ishimizning boshida ta'kidlab o'tganimizdek, Ulton va To'qliboy Qo'chqorovlar xarakteri turadi.

Biri oddiy o'qituvchi Ulton, ikkinchisi esa rayon partiya Boshkotibi To'liqboy Qo'chqorovdir. Bu ikkisi bir-biridan tubdan farq qiladi.

Asarda syujetning boshidan oxiriga qadar bir-biri bilan to‘qnash keladigan, ular faoliyatining ichki sir-asrorlarini tahlildan o‘tkazilgan uch xarakter mavjud bo‘lib, bular Ulton Sultonov, Bahor Kenjaboeva va To‘qliboy Qo‘chqorovlardir. Romandagi barcha obrazlar Ulton bilan munosabatga kirishadi. Shu sabab bizda har bir xarakter ruhiyatiga ekskursiya qilish, ularni shu holga keltirgan shaxslarning ruhiy dunyosi bilan, o‘z foydasinigina o‘ylab ish qiluvchi, bu yo‘lda hyech narsadan qaytmaslik psixologiyasi yorqin tasvirlangan. Yozuvchi To‘qliboy Qo‘chqorov xarakterida shu holatlarni bera olgan. Masalan, To‘qliboy Qo‘chqorovning Ultonga aatgan quyidag so‘zlari fikrimizning yorqin dalilidir: “Rayon partiya komiteti – rayonning egasi! Xohlagan odamini, kadrini chaqirib, xohlagan ishini buyuradi [11, 29]”. Insoniy qadr-qimmatni nazar qilmaslik singari illatlar uning ruhiga singib ketganligi shu parchadan ham yorqin ko‘rinadi. Albatta, u faqat o‘zini o‘ylovchi inson bo‘lmagan. Biz voqyealar fonida muhitning insonga ta’sir etuvchi qudratini sezib turamiz. Bu esa asarni o‘qish davomida ochila boradi, ba’zi hollarda shaxs psixologiyasi, jamiyat psixologiyasidan ustun keladi. Bu albatta, Qo‘chqorov xakteri fonida sodir bo‘ladi. U rayonda qo‘lga kiritilgan barcha yutuqlarni o‘ziniki qilib ko‘rsatishga intiladi. Uning tarafdorlari ham uning bu ishini qo‘llab-quvvatlaydilar. Agar qo‘llab-quvvatlashmasa Bahorning o‘rnida oldin ishlagan, lekin u bilan kelisha olmagan uchun besh bolasi bilan qirga, cho‘ponlar huzuriga yuborilgan vrach yigit yoki o‘z xotini bilan xiyonat ustida uni ushlab olgan uchun Ultonni jinnixonaga yuborib, “Olabo‘ji” holatiga solishi mumkin. Natijada u butun boshli rayonda undan keng fikrlovchi kishining o‘zi qolmaydi. Uning xarakterini to‘laligicha tasavvur qilishga ko‘maklashadigan vosita - Ulton, Bahorlar ruhiy olami tasviri orqali bu obrazning xarakter belgilari yanada kengroq ochilishi yozuvchi psixologizmining o‘ziga xos ko‘rinishlari shaklida namoyon bo‘ladi. Asarning boshida uning o‘ziga xos xususiyatlarini-qiliqlarini Ultonning ruhiy olami tasviri orqali quyuq bo‘yoqlarda ochilib boradi. Agar adib Ulton va uning sarguzashtini tasvirda ochib berishi kerak bo‘lmaganida edi, Qo‘chqorovda mujassamlashgan o‘sha davrga xos jihatlar ochilmagan, biz esa hayot bir tekisda ketayotganiga o‘zimizni ishontirib yurishda davom etgan bo‘lar edik. “Har bir obrazning ruhiy olami, dastlab shaxsiy hayoti bilan quyuq bog‘lanadi”[12, 86]. Asarda ham shu holat kuzatiladi. Qo‘chqorovning shaxsiy hayoti jamiyat hayoti bilan to‘qnashib ketadi. Bu uning jamiyat taraqqiyotiga salbiy yoki ijobiy ta’sir qilishi bilan bog‘lanib ketadi. Shu sababli mazkur obrazga daxldor bo‘lgan psixologik tahlil uning shaxsiy

hayot va yashab turgan davrning ruhiy ko'zgusiga aylanadi. Demak, psixologik tahlil shaxs va jamiyatni bog'laydigan darajaga ko'tarila olgan.

Dastlab bizda ijobiy qahramon sifatida taassurot qoldirgan To'qliboy Qo'chqorov romanni o'qish davomida o'zining ijobiy sifatlardan ustun turuvchi salbiy sifatlari bilan ko'z o'ngimizda namoyon bo'la boradi. U bizda o'z obro'sini o'ylaydigan, bu yo'lda hech narsadan qaytmaydigan inson sifatida taassurot qoldiradi. U farzandi tengi Bahorni o'z tuzog'iga ilintiradi va bu siri boshqalarga oshkor bo'lmasligi uchun shogirdi Ultonga "mehribonchilik" qilib qizni unga olib beradi. Sovchilikka ham uning o'zi boradi. Bu to'g'rida odamlarda yaxshi taassurot qoldiradi. Buni quyidagi parchadan ham ko'rish mumkin:

“-O'zingiz o'ylab ko'ring: sovxoz direktorlarining to'yiga bormaydigan To'qliboy Qo'chqorov cho'ponning ma'rakasiga bosh bo'lib tursa!

- Ha-a, To'qliboy Qo'chqorovning joni sog' bo'lsin. Fuqaroparvarlik ham shuncha bo'ladi-da, - dedi Zokir O'rinov”[10, 73].

Asarni o'qir ekanmiz, adibning zamonda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga tamoman yangicha qarashlarini, mushohadalarini naqadar ustalik bilan ifoda etganiga ishonch hosil qilamiz.

Roman markazida turgan Ulton obrazi o'ziga xos hayot falsafasiga ega inson timsolidir. Uning kechinmalari, tabiatga, odamlar hayotiga, ezgulik va adolatga bo'lgan munosabati orqali yozuvchi insoniylik, halollik va mehr kabi abadiy qadriyatlarni yuksak darajada ifodalaydi. Shukur Xolmirzayev Ulton obrazida bir shaxsni “olabo'ji”ga aylantitgan tuzumni gavdalantirgan.

Asardagi ikkinchi darajali obrazlar ham syujetni boyitadi va bosh qahramonning ichki olamini ochishda xizmat qiladi. Yozuvchi ularning nutqi, harakati, tabiat bilan uyg'unligi orqali o'ziga xos badiiy muhit yaratadi. Tabiat tasviri, ramzlar, detallarning o'rinli qo'llanilishi asarning estetik qiymatini yanada oshirgan.

Shunday qilib, “Olabo'ji” romanidagi obrazlar tizimi Shukur Xolmirzayevning nasriy mahoratini, inson ruhiyatini chuqur tahlil eta olish qobiliyatini namoyon etadi. Muallifning til va tasvir vositalaridan mohirona foydalanishi, real hayot manzaralarini falsafiy mushohada bilan uyg'unlashtira olishi romanni o'zbek nasrining eng yorqin namunalariidan biriga aylantirgan.

Demak, “Olabo‘ji”dagi obrazlar ifodasi va ularning badiiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, haqiqiy adabiy obraz inson qalbining oynasi, davr ruhining ifodasi va muallif tafakkurining badiiy ko‘rinishidir.

Adabiyotlar

- 1.Hamidova M. Epik qahramon va uning tasviri // International Scientific Journal: Science and innovation, Series B. Volume 1 Issue 8, December 2022.-P. 1874-1879.
- 2.Ne'matillayeva F. Ozbek adabotida Shukur Xolmirzayevning tutgan orni // Ijodkor o‘qituvchi, 2023.- № 28.-345-347.
- 3.Normatov U. Roman tabiati: talab va imkoniyatlari // Talant tarbiyasi.- Toshkent: Yosh gvardiya, 1980.- B. 116-
- 4.Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. - Toshkent: Akademya, 2010. - 400 b.
- 5.Qodirov K. Hayotbaxsh shabadalar.- Toshkent: Adabiyot va san'at, 1980.- B. 24.
- 6.Soatova N.I.Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida epik tasvir an'analari: Filol.fan.nomz. ...diss.avto-ref. – Toshkent, 2000. – 24 b.
- 7.Sultonova M. Abdulla Qahhor uslubi.- Toshkent: Fan, 1967.
- 8.Xolmirzayev Sh., Yunus T. Insonni kashf etish baxti // Sharq yulduzi, 1993.- № 9.- B. 124.
- 9.Xolmirzayev Sh. Qadimiy Baqtriya tuprog‘ida // Sharq yulduzi, 1973.- № 11.- B. 148.
- 10.Xolmirzayev Sh. Olabo‘ji //Sharq yulduzi., 1992.-№ 1. – B. 37.
- 11.Xolmirzayev Sh. Olabo‘ji: roman.- Toshkent: “Ziyo nashr” nashriyoti, 2023.-608 b.
- 12.Xolmurodov A. Odil Yoqubov romanlarida psixologizm. Filol.fan.nom.diss.- Toshkent, 1991.

ИЖТИМОЙИ-МАДАНИЙ ФАОЛИЯТНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ

SOSYO-KÜLTÜREL ETKİNLİĞİN PEDAGOJİK TEMELLERİ

Pedagogical Foundations of Socio-Cultural Activity

Мусаллам АБДУЖАББАРОВА*

Аннотация

Мақолада, ижтимоий-маданий фаолиятнинг педагогик асослари таҳлил қилинган. Ижтимоий-маданий фаолият тизимидаги барча муассасалар, марказлар ва таълим даргоҳларида ўқув жараёни билан бирга, тарбия назарияси ўрганилган. Айниқса, маданият марказларидаги тўғарак раҳбарлари билан аъзолари ўртасидаги педагогик асослари назарий жиҳатдан тадқиқ қилинган. Бунда педагогик методлар, китобхонлик ҳамда бадиий адабиётнинг ўрни ва роли мисол тариқасида тавсифланган. Илмий хулосалар ва тавсиялар ҳам берилган.

Калит сўзлар: ижтимоий-маданий фаолият, педагогика, таълим, тарбия, маданият марказлари, тўғарак, метод, тадқиқот, хулоса

Özet

Makale, sosyo-kültürel faaliyetin pedagojik temellerini incelemektedir. Sosyo-kültürel faaliyet sistemindeki tüm kurum, merkez ve eğitim kurumlarındaki eğitim sürecinin yanı sıra, yetiştirme teorisi de incelenmektedir. Özellikle, kültür merkezlerindeki çevrelerin liderleri ile üyeleri arasındaki etkileşimin pedagojik temelleri teorik olarak incelenmektedir. Bu bağlamda, pedagojik yöntemlerin, okuma ve kurgunun rolü ve rolü örnek olarak açıklanmaktadır. Ayrıca bilimsel sonuçlar ve öneriler de sunulmaktadır.

Anahtar Kelimeler: sosyo-kültürel etkinlik, pedagoji, eğitim, yetiştirme, kültür merkezleri, çevre, yöntem, araştırma, sonuç

Abstract

The article analyzes the pedagogical foundations of socio-cultural activity. Along with the educational process in all institutions, centers and educational institutions in the system of socio-cultural activity, the

* ЎзДСМИ “Ижтимоий-гуманитар фанлар” кафедраси доценти, педагогика фанлар номзоди
Doç. Dr., Özbekistan Devlet Sanat ve Kültür Enstitüsü, Sosyal Bilimler Bölümü öğretim üyesi,
abdujabbarovamusallam@gmail.com

theory of upbringing is studied. In particular, the pedagogical foundations of the interaction between the leaders of the circles in cultural centers and their members are theoretically studied. In this, the role and role of pedagogical methods, reading and fiction are described as examples. Scientific conclusions and recommendations are also given.

Keywords: socio-cultural activity, pedagogy, education, upbringing, cultural centers, circle, method, research, conclusion

Genişletilmiş Özet

Bu makalede, sosyo-kültürel faaliyetin pedagojik temelleri çok yönlü biçimde ele alınmıştır. Yazar, kültür kurumları, sanat merkezleri ve kültür-sanat eğitim kurumları arasındaki bütüncül ilişkinin, toplumsal gelişimle doğrudan bağlantılı olduğunu vurgulamaktadır. Sosyo-kültürel süreçler günümüzde yalnızca estetik ve sanatsal alanlarla sınırlı kalmayıp, bireyin eğitimi, ahlakı ve manevi olgunluğu üzerinde de önemli bir etkiye sahiptir. Bu nedenle sosyo-kültürel faaliyetlerin pedagojik boyutunun yeniden tanımlanması, modern eğitim sisteminin temel ihtiyaçlarından biri olarak ele alınmaktadır.

Makalede, çağdaş kültürel süreçlerin eğitimle kesişiminde ortaya çıkan teorik ve metodolojik yönelimler incelenmiştir. Kùltürler arası etkileşim, geleneksel araştırma yöntemlerinin yeniden değerlendirilmesini ve pedagojik yaklaşımların güncellenmesini gerekli kılmaktadır. Bu bağlamda, sosyo-kültürel faaliyetlerin dönüşüm ve modernleşme süreçleri, kùltürlerin karşılıklı etkileşim mekanizmaları, ulusal kültürel değerlerin uyumlu biçimde anlaşılmasına katkı sağlayan faktörler üzerinde durulmuştur.

Eğitim ve terbiye (ahlaki eğitim) sürecinin her aşamasında sosyo-kültürel etkinliklerin yeri özel bir öneme sahiptir. Tarihî örnekler üzerinden, antik dönemden itibaren düşünürlerin insanın manevi gelişimine büyük önem verdiği hatırlatılmıştır. Farabi'nin "İnsan doğası gereği kemale ulaşmak ister ve bu kemale ancak toplum içinde erişebilir" sözü, eğitimin sosyal bir olgu olduğuna yapılan klasik bir göndermedir. Bu bakış açısı, insanın toplumsal yaşam içinde bilgi, değer ve estetik algı temelinde kendi kimliğini inşa ettiğini göstermektedir. Makalede ayrıca Comenius gibi büyük pedagogların eğitimin insanı yücelten, onu ahlaki olgunluğa ulaştıran yönleriyle ilgili fikirlerine de değinilmiştir.

Araştırmada mevcut bilimsel literatür üç ana gruba ayrılmıştır:

1. **Birinci grup**, kùltürün özünü, gelişim yasalarını ve toplumsal ilerleme süreçlerindeki yerini ele alan çalışmalardır. Bu eserlerde kùltürün eğitici işlevi,

toplumun manevi olgunluğunu sağlamak açısından temel bir unsur olarak değerlendirilir.

2. **İkinci grup**, kültürün sosyal özünü ve terbiyenin özgün yönlerini belirli bilimsel disiplinler perspektifinden inceleyen araştırmalardır.
3. **Üçüncü grup** ise doğrudan kültürün eğitici fonksiyonunun özünü analiz eden, örneğin V.B. Çurbanov, E.A. Baller, N.S. Zlobin gibi araştırmacıların eserlerini kapsar.

Yazar, kültür merkezlerinde yürütülen pedagojik ilişkileri, kulüp veya atölye yöneticileriyle katılımcılar arasındaki ortak faaliyet sistemi olarak tanımlamaktadır. Bu süreçte bilgi alışverişi, iletişim araçlarının etkin kullanımı ve karşılıklı anlayış, eğitimin temel dinamiklerini oluşturur. Pedagojik ilişki, bir yandan öğretim sürecinin duygusal yönünü, diğer yandan eğitimin içeriksel derinliğini yansıtan bir bütün olarak değerlendirilmiştir.

Makale, sosyo-kültürel eğitimde edebiyatın önemine ayrıca dikkat çekmektedir. Edebi eserler, bireyin duygu dünyasını zenginleştirir, düşünce ufkunu genişletir ve estetik duyarlılığını geliştirir. Kültür merkezlerinde görev yapan öğretmenlerin edebi birikimi, katılımcılarla etkili iletişim kurmalarına ve farklı pedagojik yöntemleri uygulamalarına olanak sağlar. Şairlerin ve yazarların yaşamı, eserleri ve düşünceleriyle tanışmak; katılımcıların bilgi, dil ve estetik algılarını derinleştirir. Bu bağlamda, Hamid Olimjon'un "Sanat ve edebiyat, kendine özgü yollarla insana iyilik ve güzelliği aşılır" sözü, sanatın eğitimdeki işlevine dair temel bir ilke olarak ele alınmıştır.

Sonuç bölümünde, sosyo-kültürel faaliyetlerin pedagojik temellerinin eğitim ve terbiye sistemiyle doğrudan ilişkili olduğu belirtilmektedir. Kültür merkezleri ve sanat kurumlarının eğitim kurumlarıyla iş birliği içinde çalışması, yeni konseptler, öğretim programları ve pedagojik modeller geliştirilmesi gerektiği vurgulanmıştır. Bu süreçte devlet politikası, reform stratejileri ve denetim mekanizmalarının uyum içinde işlemesi; kültür alanındaki bilgi tabanının ve koordinasyon sisteminin güçlendirilmesi önerilmiştir.

Genel olarak makale, kültürün yalnızca sanatsal bir alan değil, aynı zamanda pedagojik, ahlaki ve toplumsal gelişimin en önemli unsurlarından biri olduğunu ortaya koymakta; sosyo-kültürel faaliyetlerin eğitimdeki birleştirici ve dönüştürücü gücünü teorik ve pratik boyutlarıyla temellendirmektedir.

Кириш

Ижтимоий-маданий фаолият ва педагогика ўртасидаги узвий муносабатлари бевосита маданият муассасалари, маданият марказлари, санъат даргоҳлари ҳамда санъат ва маданият тизимидаги таълим даргоҳлари билан бевосита боғлиқдир. Шунинг ҳам таъкидлаш лозимки, ҳозирги замон ижтимоий-маданий жараёнлар маданиятлар ўзаро таъсирининг ўзига хос жиҳатларини яратмоқда, назарий тадқиқотларга янги йўналишлар қаторида педагогик асослар билан уйғунлиги, анъанавий тадқиқот усуллари ва методологик ёндашувларни қайта кўриб чиқишни тақозо қилмоқда. Бу эса ўз навбатида ижтимоий-маданий фаолиятнинг трансформацион ва модернизация тизими билан бойитиб бориш, ўзаро таъсири амалиётида йиғилган билимларни назарий умумлаштириш, улар ўртасидаги фарқларни, маданиятларнинг ўзига хос хусусиятларини янада равшанлаштириш, ҳамкорликдаги таъсир механизмлари, миллатлар маданий қадриятларини айнан бир хил, яъни адекват равишда тушунишга кўмаклашувчи омилларни очиб бериш эҳтиёжлари яратилмоқда.

Асосий қисм

Ижтимоий-маданий фаолият тизимидаги барча муассасалар, марказлар ва таълим даргоҳларида ўқув жараёни билан бирга, тарбия назарияси ҳам муҳим аҳамиятга эга. Тарихга назар ташласак, қадимги ва антик давр, Биринчи ва Иккинчи Ренессанс даври мутафаккирларини инсоннинг маънавий тарбияси кўп ўйлантирганлигининг гувоҳи бўламиз. Масалан, Ватанимизнинг фарзанди, жаҳон маданиятининг буюк арбоби Абу Наср Форобийнинг фикрича “Ҳар бир киши ўз табиатига кўра олий даражадаги етукликка эришиш учун интилади, бундай етукликка фақат шаҳар жамоаси орқалигана эришилади”¹.

Абу Наср Форобий бу фикри билан таълим – тарбиянинг ижтимоий ҳодиса эканлигига урғу бериш билан бирга, табиат фарзанди бўлмиш инсон фақатгина кишилиқ жамиятида ва шу жамиятда мавжуд таълим – тарбия билимлари асосида ўз инсоний қиёфасини шакллантиришини айтган. Бу ҳақиқатни англаган юксак салоҳият эгалари тарих давомида бу соҳада нодир асарлар яратганлар. Шу маънода ҳам буюк педагог Я.А.Коменский донолар бисотини ўрганиш бизни юксакликка кўтариб, қудратли ва олижаноб инсонга айлантиришини таъкидлаган.

¹ Иброҳимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси. – Тошкент: “Ўзбекистон”. 1997. – Б. 115.

Ҳозирги даврда маданият ва унинг тарбиявий моҳиятига доир илмий адабиётларни тахминан уч гуруҳга бўлиш мумкин. “Биринчи гуруҳга маданият, унинг моҳияти ва ривожланиш қонуниятлари, жамиятнинг тадрижий ривож жараёнларида маданиятнинг ўрни ва роли каби масалаларни ўрганишга бағишланган асарларни киритишииз мумкин. Бундай асарларда маданиятнинг тарбиявий функцияси жамиятнинг маънавий комиллигини таъминлашда устивор масала сифатида талқин этилади”².

“Иккинчи гуруҳга маданиятнинг ижтимоий моҳияти ва тарбиянинг ўзига хос жиҳатларини муайян фанлар нуқтаи назаридан ўрганишга бағишларган асарларни киритишимиз мумкин”³.

“Учинчи гуруҳга бевосита маданиятнинг тарбиявий функциясининг моҳиятини таҳлил этишга бағишланган асарларни киритишимиз мумкин. Бунга В.Б.Чурбанов, Э.А.Баллер, Н.С.Злобин каби олимлар асарлари мисол бўлади”⁴.

Маданият марказларида амалга ошириладиган педагогик муносабатлар марказдаги тўғарак раҳбари ва қатнашувчиларининг ўзаро биргаликдаги ҳаракати, фаолият шакли ҳамда усулларининг яхлит тизимидир. Бунда ахборот алмашинуви, тўғарак раҳбари томонидан турли хилдаги алоқа воситалари ёрдамида қатнашувчи билан ўзаро ҳамжиҳатлик ва ўзаро ҳамфикр муносабатлар, ёндашувлар ўрнатилиши мазкур муносабатнинг мазмунини ташкил қилади.

Педагогик муносабат деганда маданият марказидаги тўғарак раҳбари ва аъзолар жамоаси ўртасида биргаликдаги ҳаракати, ўқув ва тарбиявий таъсир кўрсатиш тизимидир. Тўғарак раҳбари ушбу жараённинг ташаббускори сифатида майдонга чиқади, уни ташкил қилади ва унга бошчилик қилади. Шу тариқа педагогик муносабат, бир томондан, тўғаракдаги ўқув жараёнининг ҳиссий ҳолати бўлиб, иккинчи томондан эса, унинг бевосита мазмуний таърифи сифатида намоён бўлади.

Таълим ва тарбия жараёнида адабиётдан фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади. Зеро, бадий адабиёт тўғарак аъзоларига ҳаётни чуқурроқ ва ёрқинроқ тушунишга ёрдам беради. Маданият ходими ўз фаолиятини шакллантиришда ҳам

² Арнольд А.И. Культура и современность. – Москва., 1972. – С. 65.

³ Давидович В.Е., Жданова Ю.А. Сущность культуры. – Ростов на Дону. 1979. – С. 85.

⁴ Каган М.С. Человеческая деятельность: опыт системного анализа. – Москва., 1974. – С. 95; Культура, творчество, человек. /Сост: Э.Н.Баллер, Н.С.Злобин. – М.: 1970

бадий адабиётни кўпроқ ўқишини тақазо қилади. Тўғарак аъзолари билан турли педагогик усулларида фойдалана олиши учун ҳам бадий адабиётни билиши шарт.

Шоир ва ёзувчилар ҳамда филолог олимларнинг ҳаёти ва ижодий фаолиятини, уларнинг тан олинган асарлари билан яқиндан танишиши, унинг китобларини ўқиб, таҳлил қила олиши маданият марказлари тўғаракларига қатнашувчиларининг билими ва дунёқарашини кенгайтиради, ҳис-туйғуларини ҳамда тил бойлигини такомиллаштиради. Шунингдек, тарбия беришда адабиёт эстетик идрок ва эстетик кечинмаларининг ёрқинлигини чуқурлашувини таъминлаб беради. Олим Қозоқбой Йўлдошев ўзининг “XXI аср мактаби бўсағасида” мақоласида шундай фикр юритади: “Кузатувларимизга кўра, расм, ашула, одобнома нима учун ўқитилишини кўпчилик маорифчилар теран англашмайди. Расм чизишни, ашула айтишни ҳаммага ўргатиш мумкинми? Бу зарурми ўзи? Ахир, расмни, мусиқани ҳис этиш, кўшиқни тушуниш энг аъло фазилят-ку! Расм ва мусиқа кучини ҳаққоний баҳолай оладиган одам руҳан бой бўлади. Ким қайга етакласа, индамай, эргашиб кетавермайди, ўйлайди, хулоса чиқаради. У мустақил шахс сифатида қийинчиликлар рўпарасида бўлашамайди, курашиб, ғолиб бўлишга ҳаракат қилади”⁵.

Ҳамид Олимжон ўзининг “Адабиёт ва халқ” мақоласида бундай деб ёзган эди: “Санъат ва адабиёт ўзининг хос йўллари билан одамларга яхши ва гўзал хислатларни сингдиради. Кишиларнинг кўзига яхши ва ёмонни аниқ кўрсатиш адабиётда ҳамма нарсадан кўра осонроқ кўринади”⁶.

Хуллас, ижтимоий-маданий фаолиятнинг педагогик асослари бевосита таълим ва тарбия тизимининг маданият марказлари, санъат ва маданият ўқув даргоҳлари билан бевосита боғлиқдир. Бу жараёнда янги концептуал ёндашувлар асосида янги концепциялар, ўқув дастурлари ишлаб чиқишда бу икки тизим ҳамкорликда фаолият олиб боришини тақазо қилмоқда. Давлат сиёсати, ислохотлар тизими, қарорларнинг амалиёти ва назоратини шакллантириш лозим. Бунинг учун маданият соҳаси вакиллариининг узвий системасини, маълумотлар базасини шакллантириш мақсадга мувофиқдир.

Адабиётлар

Арнодов А.И. Культура и современность. Москва., 1972.

⁵ Йўлдошев Қ. XXI аср мактаби бўсағасида // Соғлом авлод учун. 1996. №9-10. 35-б.

⁶ Х. Олимжон Адабиёт ва халқ. –Т.: 1960. 283-284-б.

Давидович В.Е., Жданова Ю.А. Сущность культуры. Ростов на Дону. 1979.

Иброхимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси. Тошкент: “Ўзбекистон”. 1997.

Йўлдошев Қ. ХХІ аср мактаби бўсағасида // Соғлом авлод учун. 1996. №9-10. – Б. 30-45.

Каган М.С. Человеческая деятельность: опыт системного анализа. – Москва., 1974.

Культура, творчество, человек // Сост: Э.Н.Баллер, Н.С.Злобин. Москва., 1970.

Олимжон Х. Адабиёт ва халқ. Тошкент., 1960.

BUXORO AMIRI SHOHMUROD IBN DONIYOLBIYNING TURK SULTONLARI BILAN ELCHILIK MUNOSABATLARI

BUHARA EMİRİ ŞAHMURAD İBN DANİYALBİY'İN TÜRK SULTANLARIYLA DİPLOMATİK İLİŞKİLERİ

Diplomatic Relations of Shahmurad ibn Daniyalbiy, Amir of Bukhara, with Turkish Sultans

Muxayyo UMAROVA*

Annotatsiya

Maqolada XVIII asrning oxirida Buxoro amirligida hukmronlik qilgan amir Shohmurod ibn Doniyolbiyning Turk sultonlari bilan elchilik sohasida amalga oshirgan munosabatlari o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari elchilik xususiyatlari bilan birgalikda Buxoro amirligi va Turk sultonligining hamkorlik va savdo aloqalari yoritib berilgan. Buxoro amiri tomonidan Turkiyaga yuborilgan elchi Muhammad Sharif sulton tomonidan yaxshi kutib olinganligi, bundan tashqari elchi tomonidan yetkazilgan Amir Shohmurodning xatida Abdulxamid I va Salim IIIga o'zining uzoq yillik orzulari yoritib berilgan. Maqolada ular o'rtasidagi yozishmalar va unda aks etgan masalalar yoritilgan. Zero, Rossiya imperiyasi juda katta tahdid o'tkazganligi hech kimga sir emas. Aynan shu muammolarga ham e'tibor qaratilgan.

Bundan tashqari o'sha davr va undan keyingi davr mutafakkirlar asarlarida diplomatik munosabatlarning yoritilishi, diplomatik munosabatlardagi muammo va yutuqlarga bag'ishlanadi. Maqolada ilm sohasida va savdo-sotiq sohasida amalga oshirilgan ishlarga ham to'xtalib o'tilgan. Ikki o'rtada ayriboshlangan tovarlar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Amir Shohmurod, Abdulhamid I, Salim III, Buxoro, Usmonlilar davlati, diplomatiya

Özet

Makalede 18. yüzyılın sonlarında Buhara Emirliği'ni yöneten Emir Şahmurad bin Daniyalbiy'in diplomatik çerçevede Osmanlı Türk sultanlarıyla ilişkileri ele alınmaktadır. Ayrıca, elçiliğin özelliklerinin yanı sıra, Buhara Emirliği ile Osmanlı Türk sultanlığı arasındaki iş birliği ve ticari ilişkiler de vurgulanmaktadır. Buhara Emiri tarafından Osmanlı devletine gönderilen elçi Muhammed Şerif'in Sultan tarafından olumlu karşılandığı ve ayrıca Emir Şahmurad'ın I. Abdülhamid ve III. Selim'e ilettiği mektupta uzun zamandır hayalini kurduğu konuları dile getirdiği vurgulanmaktadır. Makalede, hükümdarların yazışmaları ve bunlara yansıyan konular ele alınmaktadır. Nitekim bu dönemde Rus

* O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası katta o'qituvchisi, O'zR Tarix instituti mustaqil tadqiqotchisi
Özbekistan Devlet Sanat ve Kültür Enstitüsü Kıdemli Öğretim Görevlisi, muhayyo120875@gmail.com

İmparatorluğu'nun büyük bir tehdit oluşturduğu bir sır değildir. Bu sorunlara da dikkat çekilmektedir.

Ayrıca, o dönem ve sonraki dönem müelliflerinin eserlerine diplomatik ilişkilerin nasıl yansıdığı, diplomatik ilişkilerdeki sorunlar ve başarılar makalede değerlendirme konusu olmuştur. Makalede ayrıca bilim ve ticaret alanında yürütülen çalışmalara da değinilmiştir. İki ülke arasında alışverişe konu olan mal ve malzemeler hakkında bilgi verilmiştir.

Anahtar Kelimeler: Emir Şahmurad, I. Abdülhamid, III. Selim, Buhara, Osmanlı İmparatorluğu, diplomasi

Abstract

This article examines the diplomatic relations of Amir Shahmurad ibn Daniyalbiy, who ruled the Emirate of Bukhara in the late 18th century, with the Ottoman Turkish sultans. It also highlights the characteristics of the embassy, as well as the cooperation and commercial relations between the Emirate of Bukhara and the Ottoman Turkish sultanate. It emphasizes that the envoy Muhammad Sharif, sent to the Ottoman Empire by the Emir of Bukhara, was welcomed by the Sultan, and that Amir Shahmurad, in a letter to Abdulhamid I and Selim III, expressed his long-held desires. The article examines the rulers' correspondence and the issues reflected in them. Indeed, it is no secret that the Russian Empire posed a significant threat during this period. These issues are also highlighted.

The article also examines how diplomatic relations were reflected in the works of authors from that period and subsequent periods, as well as the problems and successes in these relations. The article also touches upon studies conducted in the fields of science and trade, and provides information on goods and materials exchanged between the two countries.

Keywords: Amir Shahmurad, Abdulhamid I, Selim III, Bukhara, Ottoman Empire, diplomacy

Genişletilmiş Özet

Bu makale, XVIII. yüzyılın sonlarında Buhara Emirliği'nin hükümdarı olan Emir Şahmurad ibn Daniyalbiy'in Osmanlı Türk sultanlarıyla kurduğu diplomatik ilişkileri incelemektedir. Araştırmada, Buhara Emirliği'nin o dönemde İran, Afganistan, Çin ve Rusya gibi bölge devletlerinin yanı sıra Osmanlı Devletiyle de diplomatik ve ticari ilişkiler yürüttüğü, bu ilişkilerin Şahmurad döneminde yeni bir düzeye ulaştığı vurgulanmaktadır.

Emir Daniyalbiy döneminde temeli atılan dostane ilişkiler, oğlu Şahmurad zamanında daha da güçlenmiştir. İki taraf arasındaki iletişimi geliştirmek amacıyla önce Ernazar Maksud oğlu, ardından onun oğlu Muhammed Şerif Osmanlı Devleti'ne elçi olarak gönderilmiştir. 1784 yılında Sultan I. Abdülhamid, İstanbul'da Buhara elçisini büyük bir misafirperverlikle kabul etmiştir. Muhammed Şerif'in getirdiği mektupta Emir

Şahmurad, iki devlet arasında kalıcı dostluk kurma arzusunu dile getirerek, uzak coğrafi mesafelerin dostane ilişkileri zayıflatmaması temennisinde bulunmuştur.

Osmanlı Sultanı I. Abdülhamid ise cevabında teşekkürlerini sunmuş, ancak o dönemde Küçük Kaynarca Antlaşması (1774) sonrasında Rusya'nın Kırım üzerindeki yayılmacı politikalarına duyduğu rahatsızlığı açıkça ifade etmiştir. Bu bağlamda Sultan, Buhara Emirliği'ni Rusya'ya karşı siyasi ve manevi destek vermeye davet etmiş, Rusya'nın faaliyetleri hakkında bilgi talebinde bulunmuştur. Bu yazışmalar, iki İslam devletinin hem dini hem de siyasi dayanışma arayışının bir göstergesi olmuştur.

Emir Şahmurad, Osmanlı Devleti ile ilişkilerini yalnızca diplomatik düzeyde değil, dini, kültürel ve ekonomik alanlarda da güçlendirmeye önem vermiştir. Özellikle İran'daki Şii hükümdarlarla yapılan savaşların ardından Osmanlı Sultanı ile şeriata uygun barış anlaşmaları yapılması konusunda görüş alışverişinde bulunmuştur. Ayrıca, hac güzergâhının Osmanlı topraklarından geçmesi iki ülke arasındaki ilişkilerin gelişmesine katkı sağlamıştır.

Ekonomik ilişkiler açısından, Buhara Emirliği döneminde kervansarayların inşası, ticaret yollarının genişlemesi ve uluslararası pazarların gelişmesi dikkat çekicidir. Buhara, Semerkant, Karşı ve Hisar şehirleri büyük ticaret merkezleri hâline gelmiş; Osmanlı, İran, Afganistan, Çin ve Rusya'dan gelen tüccarlar bu pazarlarda etkinlik göstermiştir. Pafta, yün, keçe, halı, şal, bakır, gümüş ve altın takılar ile deri ürünleri en çok ticareti yapılan mallar arasındaydı. Özellikle Kamaşı köyünde dokunan halılar ve keçeler, Türkiye, İran ve Rusya pazarlarında ün kazanmıştır.

Bu dönemde Buhara'nın Osmanlı ile ilişkileri yalnızca ticaretle sınırlı kalmamış, aynı zamanda bilimsel ve kültürel alışverişe de zemin hazırlamıştır. Osmanlı'dan Buhara'ya çok sayıda dini ve ilmi eser getirilmiş, Emirlik kütüphanelerinin zenginleşmesi sağlanmıştır. Şahmurad, Hanefi mezhebine bağlı bir İslam hükümdarı olarak, Osmanlı Devleti'ni hem dinî rehber hem de siyasi müttefik olarak görmüştür.

Sonuç olarak, Emir Şahmurad döneminde Buhara – Osmanlı ilişkileri dostluk, din kardeşliği, ticaret ve karşılıklı dayanışma temelinde derinleşmiştir. Bu ilişkiler, XVIII. yüzyıl sonlarında Orta Asya'nın jeopolitik dengelerinde İslam dünyasının dayanışmacı bir hattını temsil etmiş; aynı zamanda Rusya'nın bölgesel yayılmacılığına karşı diplomatik bir direnç modeli oluşturmuştur.

Kirish

XVIII asrning II yarmi yakunida Buxoro amirligi Eron, Afg'oniston, Xitoy, Rossiya davlati qatorida Turk sultonligi bilan ham diplomatik aloqalarini olib bordi. Bu davrda usmonli turklar bilan diplomatik munosabatlari yangi bosqichga o'tganligini e'tirof eta olishimiz mumkin.

Asosiy qism

Amir Doniyolbiy tomonidan boshlangan do'stona munosabatlar amir Shohmurod davrida davom etgan. Ikki o'rtada munosabatlarni yaxshilash maqsadida Buxoro amirligidan Ernazar Maqsud o'g'li Rossiyaga va Usmonli turklarga elchi qilib yuborilgan¹. Keyinchalik uning o'g'li Muxammad Sharif elchilik munosabatlarini davom ettirgan. 1784 yil Turk sultoni Abdulhamid I Istambulda Buxoro elchisini yaxshi kutib olgan. Muhammad Sharif qadimdan davom etib kelayotgan elchilik munosabatlari mustahkamlanishiga e'tibor qaratganligi uchun tashakkur bildirilgan holda, amir Doniyolbiyning maktubidan quyidagilarni yoritgan: "Bizning orzu istagimiz sizlar bilan doimiy yaxshi aloqalar o'rnatishdir. Faqat oralarimizdagi masofalar bu ishlarni qiyinlashtirmoqda. Har qanchalik bir-birimizdan uzoq joylashgan bo'lsak ham, davlatimizning rivoji va sizning sog'ligingiz uchun duo qilmoqdamiz".

Turk sultoni Abdulhamid I (1725-1789) Muhammad Sharif orqali o'z javobi yo'llab, minnatdorchiligini bildiradi. Shu bilan birgalikda, Rossiya imperiyasining Qrim xududi bo'yicha Qaynarcha shartnomasi asosida olib qo'yilganidan norozi bo'lgan Abdulhamid I Buxoro amirligini Rossiyaga qarshi hamkorlik qilishga chaqirib, o'sha paytda hokimiyat tepasiga kelgan amir Shohmuroddan Rossiyaga qarshi siyosiy va ma'naviy yordam so'raydi: "1774 yilda davlati oliyamiz Rossiya o'rtasida sulh shartnomasi imzolandi. Lekin ular bu shartnomaga amal qilmasdan turli buzg'unchilik ishlarini olib bormoqda. Ruslar hujumni boshlamaguncha hech bir mujodalaga kirmaymiz. Lekin tomonlar o'rtasidagi mujodalani zaruriy holga keltirmoqda. Agar urush boshlangudek bo'lsa, sizning

¹ Гулямов Х.Г. Из истории дипломатических отношений России Бухарском ханством XVIIIв. Т.: Фан. 1992. С.95.

ko'magingizga muhtojmiz. Shuningdek, sizlardan Rusiyaning hol va harakati to'g'risida bizga xabar berishingizni so'raymiz"².

Amir Shohmurod o'z hukmronligi davrida Turk sultoni Abdulhamid I (1725-1789) bilan ham hamkorlik qilishga ham katta e'tibor qaratgan. Turk sultonligi Buxoro amirligi uchun islomiy davlat sifatida

Ayniqsa Eron shialari bilan o'zaro urushlardan so'ng sulh tuzilishida usmonli hukmdorga xat yozib, qanchalik shialar taklif qilgan masalalar shariatga mos kelishi bo'yicha fikrlari bilan qiziqishgan. Ikki o'rtada o'zaro do'stlik va savdo aloqalari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari haj ziyoratchilari Usmonlilar xududidan o'tganligi uchun ham o'zaro manfaatli aloqalar kengayib borgan.

Juda ko'p karvonsaroylar qurilgan va tashqi savdo-sotiq yanada kengaygan. Buxoro, Samarqand, Qarshi, Hisor shaharlari amirlikning yirik savdo markazlari bo'lib, mahsulot tan narxining belgilanishida va chetga chiqarilishida katta ahamiyat kasb etgan. Buxoro amirligida tashkil etilgan savdo yarmarkalarida Eron, Afg'oniston, Xitoy, Rossiya, Turk sultonligi va amirlik viloyatlaridan savdorgarlar tashrif buyurgan va karvonsaroylardan unumli foydalangan.

Manbalarda qayd etilishicha Buxorodan Rossiya davlatiga yuborilgan paxtaning asosiy qismi Shaxrisabzga to'g'ri kelgan³. Jundan tayyorlangan gilamlar, shollar, xurjun, ayil, ot yopinchiqlari, qora uy (o'tov) uchun iplar, chakmon, kigiz kabi mahsulotlar doimiy savdo markazida bo'lgan. Qamashi qishlog'ining arabi gilamlari⁴ Buxoro amirligi bozoridan tashqari xonliklarda, Rossiya, Afg'oniston, Eron, Turkiyada ham mashhur bo'lgan. Hirot orqali Mashhadga, Rossiya, Istambul orqali Yevropa mamlakatlariga, kigizlar esa Sibir guberniyalariga jo'natilgan⁵.

Eronga eng ko'p olib ketiladigan qorako'ldan keyingi ikkinchi o'rinda kashmir shollari turgan.

Mahalliy talablardan ortib Qobul va Hindistonga jo'natiladigan mollar qatorida echki tiviti⁶ ham juda mashhur bo'lgan.

Buxoro amirligi bozorlarida Hisor, Qarshi pichoqsozlik buyumlari O'rta Osiyo va sharq bozorlariga keng tarqalgan. Hajni ixtiyor qilgan ziyoratchilar tomonidan Eron,

² Rahmonqulova Z. Buxoro amirligining diplomatik aloqalari. Jamiyat va boshqaruv. 2002. №3. B.74.

³ О нынешнем состоянии которых областей и городов Средней Азии. – С. 175.

⁴ Крестовский В.В. В гостях у эмира Бухарского. – С. 662.

⁵ Вамбери А. Путешествие по Средней Азии.. –С.211-214.; Гребенкин А.Д.Узбеки. – С. 104.

⁶ Борнс А. Путешествие в Бухару. Ч. III. – С. 251.

Turkiya, Arabistonga olib borilgan. Ular ichida dastagi oltin, kumush qoplab ishlangani alohida mashhurlikka erishgan. Bundan tashqari oltin, kumush, misdan yasalgan ayollar taqinchoqlari ham xaridorgir bo'lgan. Shuningdek, Badaxshonning lyapis (kumush tirat) toshlari va ulardan yasalgan taqinchoqlar, serdolik, la'l toshlari ham Qarshida juda ko'p bo'lib, boshqa joylarga qaraganda arzonroq bo'lgan⁷.

Buxoro amiri Shohmurod davrida Turkiya bilan aloqalar ancha mustahkamlangan. Eron hukmdorlari bilan kurashda o'zaro shartnomalar tuzilishida bevosita Turk sultoni Abdulhamid I bilan maslahatlashib, xulosa qilgan. Chunki, eronliklarning shia mazhabida bo'lganligi uchun bitimni bevosita xanafiy mazhabidan kelib chiqqan holda imzolashga e'tibor qaratgan. Amirlik kutubxonasiga turklardan juda ko'p adabiyotlarning olib kelinishi va savdo-sotiq sohasi esa serqirra bo'lishi ham buning yorqin ifodasi hisoblanadi.

Adabiyotlar

- Борнс А. Путешествие в Бухару. Ч. 3. – С. 251.
- Вамбери А. Путешествие по Средней Азии.. –С.211-214.
- Гребенкин А.Д.Узбеки. – С. 104.
- Гулямов Х.Г. Из истории дипломатических отношений России Бухарском ханством
ХВИИВ. Т.: Фан. 1992. С.95.
- Крестовский В.В. В гостях у эмира Бухарского. – С. 662.
- Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашкадари. – С. 65.
- Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга.. – С. 111.
- Небольсин П.И. Очерки торговли России по Средней Азии... – С.172.;
- Rahmonqulova Z. Buxoro amirligining diplomatik aloqalari. Jamiyat va boshqaruv. 2002.
№3. В.74.
- Умарова М. Социально-экономические реформы при правлении бухарского эмира
Шахмурада. Интернаука. сб. ст. по материалам ХЛ междунар.
- Umarova M. Shohmurod hukmronligi (1785-1800) davrida Buxoro amirligining soliq
tizimi. Buxoro Davlat Universiteti Ilmiy Axboroti. 2020. №4. 233-237.
- Umarova M. Amir Shohmurod davrida Buxoro amirligi ta'lim muassasalaridagi muhim
darslik va adabiyotlar //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – Т. 1. – №. 18.

⁷ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга.. – С. 111.; Небольсин П.И. Очерки торговли России по Средней Азии... – С.172.; Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи.. – С. 65.

Umarova M. Amir Shohmurod davrida Buxoro amirligida ilm-fanning rivoji //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – №. 7.

ARBA'INLARDAGI HADIS BO'LMAGAN MATNLAR

ARBA'IN ESERLERİNDEKİ HADİS DIŞI METİNLER

Non-Hadith Texts in Arba'in Collections

O'tkirbek MUHAMMAD SOBIR*

Annotatsiya

Ushbu maqolada arba'in turkumiga kiruvchi she'rlarda keltirilgan matnlarning manba jihatdan tahlili amalga oshirilgan. Mualliflar tomonidan hadis va oyatlar bilan bir qatorda sahobalarning so'zlari, mashhur naqlar yoki ibratli hikmatlar ham arba'in she'rlarining asosi sifatida qo'llanilgani ko'rsatib o'tilgan. Bu holat ba'zan hadis bo'lmagan matnlarni hadis sifatida keltirish xatosiga sabab bo'lgani ta'kidlanadi. Maqolada bunday misollar ilmiy tahlil qilinadi, xususan, "Aql dindandir", "Vatan sevgisi imondandir", "Adolat – mulkning asosidir" kabi ifodalarning manba jihatdan tahlili beriladi. Shu bilan birga, arba'in she'rlarida hadis va manbalarni to'g'ri qo'llash zarurati, ilmiy ehtiyot va manbaga suyanggan holda ijod qilish muhimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: *Arba'in, hadis, sahoba, hikmat, adabiy tahlil, manba, islomiy she'riyat, ma'naviyat, vatan, adolat, aql*

Özet

Bu makalede, Arbain türüne ait şiirlerde yer alan metinlerin kaynakları incelenmektedir. Hadis ve Kur'an ayetlerinin yanı sıra sahabe sözleri, meşhur sözler ve hikmetli sözlerin de Arbain şiirlerinin temeli olarak yazarlar tarafından kullanıldığı gösterilmektedir. Bu durumun, bazen hadis olmayan metinlerin hadis olarak sunulması hatasına yol açtığı vurgulanmaktadır. Makalede, özellikle "Akıl dinden önce gelir", "Vatan sevgisi imanın bir parçasıdır" ve "Adalet devletin temelidir" ifadeleri gibi örnekler üzerinde akademik bir analiz sunulmakta, bu ifadelerin sıhhatleri ve kaynakları tartışılmaktadır. Ayrıca, Arbain şiirinde hadis ve kaynakların doğru kullanılmasının önemi ve yaratma

* Pedagogika va iqtisodiyot universiteti o'qituvchisi, Andijon, O'zbekiston
Pedagoji ve İktisat Üniversitesi öğretim üyesi, otkirbekmadumarov522@gmail.com

sürecinde akademik dikkat ve sahih kaynaklara dayanmanın gerekliliği vurgulanmaktadır.

Anahtar Kelimeler: Arbain, hadis, sahabe, hikmet, edebi tahlil, kaynak, İslam şiiri, maneviyat, vatan, adalet, akıl

Abstract

This article analyzes the sources of the texts included in the poems belonging to the Arba'in genre. It is shown that, along with hadiths and Qur'anic verses, the words of the Companions, famous sayings, and wise maxims were also used by authors as the foundation of Arba'in poems. It is emphasized that this sometimes led to the mistake of presenting texts that are not hadiths as hadiths. The article provides a scholarly analysis of such examples, in particular the expressions "Reason precedes religion," "Loving one's homeland is part of faith," and "Justice is the foundation of the state," discussing their authenticity and sources. Furthermore, the article highlights the importance of using hadiths and sources correctly in Arba'in poetry, as well as the necessity of scholarly caution and reliance on authentic references in the creative process.

Keywords: Arba'in, hadith, companion, wisdom, literary analysis, source, Islamic poetry, spirituality, homeland, justice, reason

Genişletilmiş Özet

Bu çalışma, İslamî edebiyatın köklü türlerinden biri olan *arba'in* geleneğinde yer alan metinlerde hadis dışı unsurların kullanılışını tahlil etmektedir. *Arba'in* eserleri, tarih boyunca kırk hadis üzerine kurulu dinî-ahlakî öğretileri nazım veya nesir formunda halkın anlayabileceği bir üsluba dönüştürmeyi amaçlayan bir edebî türdür. Ancak bu türde yalnızca sahih hadisler değil, zamanla Kur'an ayetleri, kudsî hadisler, sahabe sözleri, tabiîn rivayetleri ve halk arasında yaygınlaşmış hikmetli ifadeler de temel kaynak olarak kullanılmaya başlamıştır. Bu durum, kimi zaman hadis olmayan metinlerin yanlışlıkla hadis gibi sunulmasına yol açmıştır.

Makale, önce *arba'in* türünün İslamî ilimler ve edebiyat içindeki yerini açıklamakta; ardından hadislere dayalı yaratım geleneğinin neden titiz bir kaynak kontrolü gerektirdiğini ortaya koymaktadır. *Arba'in* yazarlarının, kullandıkları metinlerin

çoğunlukla ikincil kaynaklara dayanması veya dönem içi rivayet zincirlerindeki karışıklıklar sebebiyle bazı ifadeleri “hadis” olarak değerlendirdikleri tespit edilmiştir.

Araştırmada bu duruma işaret eden çeşitli örnekler ayrıntılı biçimde ele alınmaktadır. Bunlardan ilki, “Aql dindan oldinda yurar” (*Akl dinden önde yürür*) mazmununu işleyen dört satırlık şiirdir. Bu ifade, halk arasında dolaşan “Aqli yo‘qning dini yo‘q” (*Akli olmayanın dini yoktur*) şeklindeki uydurma bir rivayete dayanmakla birlikte, sahih hadis kaynaklarında yer almamaktadır. Makalede, aklın dinden önce geldiğini söyleyen bu yaklaşımın hem İslamî epistemolojiye hem de klasik kaynaklara aykırı olduğu gösterilmiş, aklın ancak vahyin rehberliğiyle doğru yolu bulabileceği vurgulanmıştır.

İkinci örnek, şiirlerde sıkça rastlanan “Adalet mülkün temelidir” ibaresidir. Bu ifade bazı *arba'in* şiirlerinde Resûlullah’a isnat edilmekle birlikte, kaynaklar bunun Hz. Ömer’e ait bir söz olduğunu göstermektedir. Makalede, bu tür yanlış isnatların tarihî süreçte yaygınlaştığı, özellikle edebî metinlerde estetik bir temel oluşturma amacıyla tekrarlandığı belirtilmektedir.

Üçüncü örnek, “Vatanı sevmek îmandandır” ifadesidir. Şiirlerde hem millî duyarlılığı hem de dini bağlılığı pekiştiren güçlü bir söylem olarak kullanılan bu söz, sahih hadis kategorisine girmemesine rağmen, İslam ahlakı ve kültürel hafızayla uyumlu olduğu için yaygınlık kazanmıştır. Makalede, bu durumun edebî eserin mesajını güçlendirse de hadis ilmi açısından dikkat gerektirdiği belirtilmektedir.

Ayrıca, Hazreti Ali ve Zülfikâr’a dair övgü niteliğindeki “Ali’den başka yiğit, Zülfikâr’dan başka kılıç yoktur” şeklindeki meşhur tarihî ibarenin de hadis olmadığı, buna rağmen *arba'in* şiirlerinde “hadisî ruhu” güçlendirme amacıyla kullanıldığı ifade edilmektedir. Yine Hz. Ali’ye atfedilen “helal ve haram” konulu hikmetli sözler, bazı şiirlerde hadis olarak işlenmiş olsa da gerçekte sahabe sözü niteliğindedir.

Bu örnekler üzerinden makale, *arba'in* metinlerinde görülen hadis dışı içeriklerin temel nedenlerini şu şekilde belirlemektedir:

- Kullanılan kaynakların sahlilik bakımından yeterince incelenmemesi.
- Sonraki dönemlerde ortaya çıkan rivayet katkıları ve halk arasında yaygınlaşmış sözlerin dini rivayetlerle karışması.
- Edebî söylemde ahlakî mesajı güçlendirme amacıyla hikmetli ifadelerin hadis kategorisiyle bütünleştirilmesi.

Sonuç olarak makalede, *arba'in* türünde karşılaşılan hadis dışı metinlerin varlığının hem edebiyat hem de hadis ilmi açısından dikkatle ele alınması gerektiği vurgulanmaktadır. *Arba'in* şiirlerinin temel işlevi, sahih dini öğretileri şiirsel biçimde aktarmak olduğundan, metinlerde yer alan her ifadenin kaynağının doğru tespit edilmesi zorunludur. Kaynak tenkidi ve metin doğruluğunu esas alan bir yaklaşım, hem dini rivayetlerin güvenilirliğini koruyacak hem de İslamî edebiyatın özgün ve sağlam bir zeminde gelişmesine katkı sağlayacaktır. Bu yönüyle çalışma, *arba'in* geleneğinin ilmî açıdan yeniden değerlendirilmesi ve gelecekteki araştırmalar için sağlam bir metodolojik temel oluşturması bakımından önemli bir katkı sunmaktadır.

Kirish

Islom ma'naviy dunyoqarashining asosiy manbalari – Qur'oni karim, hadislar, qudsiy hadislar, sahobalar va tobeinlar so'zlari, ilk islom ulamolarining hikmatli mulohazalari ming yillar davomida musulmon adiblari ijodining ma'naviy va estetik poydevori bo'lib kelgan. Shu jihatdan islomiy g'oyalarga asoslangan arba'inlar ham faqatgina nabaviy hikmatlarga emas, balki Qur'on oyatlari, qudsiy hadislar, sahobalar so'zlari va tobeinlarning naqlariga tayanilgan holda yuzaga kelganini ta'kidlash zarur.

Shu bilan birga, arba'in janri faqat diniy-ma'rifiy mazmunga ega bo'lishi bilan cheklanmay, balki badiiy-estetik jihatdan ham musulmon adabiyotining yuksak bosqichini ifodalaydi. Unda hadis va oyatlardagi ilohiy ma'no go'zal badiiy shaklda ifoda etilib, o'quvchini nafaqat bilim, balki ruhiy tarbiya sari yetaklaydi. Arba'inlarda keltirilgan hikmatlar insonni tafakkurga chorlaydi, imon, sabr, adolat, saxovat, vatanparvarlik, mehr-oqibat kabi yuksak fazilatlarini targ'ib etadi. Shu bois bu turkumdagi asarlar diniy ilmlar bilan bir qatorda adabiyotshunoslik, falsafa va ma'naviyat tadqiqotlari nuqtayi nazaridan ham alohida ahamiyatga ega.

Islomiy adabiyot an'analarida manbaga tayangan holda ijod qilish mezon sanalgan. Har bir hadis yoki hikmatni asliga, isnod zanjiriga, manba ishonchliligiga ko'ra qo'llash adibning ilmiy mas'uliyatini namoyon etadi. Shu sababli, arba'in she'rlari yaratishda faqat hadis ilmini emas, balki tafsir, kalom, tasavvuf, tarix va arab adabiyoti manbalarini chuqur bilish zarur bo'lgan. Bunday yondashuv asarlarning ma'naviy asosini mustahkamlab, ularni soxta yoki noaniq ma'lumotlardan saqlaydi.

Natijada, arba'in janri diniy hikmatlarni badiiy ifoda orqali xalq ongiga yaqinlashtirish, hadis va oyatlarning ruhini so'z san'ati vositasida tarannum etish vazifasini bajargan. Bu jihatdan u nafaqat diniy-ma'rifiy, balki tarbiyaviy, estetik va falsafiy ahamiyatga ega bo'lgan noyob adabiy hodisa sifatida e'tirof etiladi.

Asosiy qism

Mualliflar arba'in tartib berayotganlarida oyat va qudsiy hadislar qatorida sahobalarning qavllariga ham o'rin ajratganlar. Ba'zan bu urinish hadis bo'lmagan matnlarni hadis sifatida keltirishdek xatoga ham olib kelgan. Albatta, bu ular murojaat qilgan manbalardagi yanglishliklar bilan bog'liq. Quyidagi to'rtlikda ana shunday xato kuzatiladi:

*Haq buyurmish, dindan oldinda yurar doim aql,
Chun aqlni rahbar etmak bo'lsin oyining sening.
Aql-u idrok nuridin har dam munavvar bo'lmasa,
Kamil ermas, nomukammaldir magar dining sening...*

Bu she'rga «Aqli yo'qning dini yo'q» degan uydirma hadis asos qilib olingan ko'rinadi. Chunki aql dindan oldinda yurishi mantiqqa to'g'ri kelmaydigan hodisa. Hatto aqlning o'zi hidoyat bo'lmasligi kitoblarda bayon qilingan. «Aql ham to'la hidoyatga qodir emas, dunyoga nazar soling: har kim o'z aqlini ishga solib, turli yo'lga kirmoqda va har kim o'zinikini to'g'ri, deb da'vo qilmoqda. Lekin hammalari bir-birlariga xilof ish qiladilar. Ko'pincha ular aqlga or bo'ladigan narsalarni ham qonun-qoida qilib olaveradilar. Shuning uchun aqlning o'zi insonni ikki dunyo baxt-saodati yo'lga yetarli darajada hidoyat qila olmaydi. Aqlning ustidan ham hukmini o'tkazuvchi hidoyat bor».

Quyidagi she'rda roshid xalifa Umar roziyallohu anhuning so'zi Payg'ambarimiz alayhissalomning qavli o'laroq qayd etilgan:

*Haq rasuli baski «Al adlu asosil mulk» demish,
Ki adolat birla mulku mamlakat obod erur.
Gar adolat bo'lmasa, elda razolat bo'lgusi,
Zulmi zolimdin raiyat turmushi barbod erur...*

Boshqa mualliflarda ham bu kabi holatlar kuzatiladi. Masalan, Mansur Jumayev yurtga muhabbat mavzusi yoritilgan to'rtligida «Vatanni sevmok iymondandir» hikmatini she'rga poydevor sifatida qo'ygan:

Vatanni sevisht ham iymon matlabi,

Demak, unga eltar sog'inch markabi.

Mazkur o'rinda shoir vatan muhabbatini iymon bilan bog'laydigan ilmiy-ma'naviy yondashuvni namoyon etadi. Birinchi misrada «Vatanni sevish ham iymon matlabi» degan ifoda orqali milliylik tuyg'usi Islom qadriyatlari bilan chambarchas aloqada ekanini, vatanga muhabbat shunchaki hissiy holat emas, balki iymon bilan uzviy bog'liq diniy masala ekanini ta'kidlaydi. Keyingi misradagi «sog'inch markabi» iborasi yurtga bo'lgan muhabbat insonni harakatga undayotgan ma'naviy kuch sifatida talqin qilinganidan dalolatdir. Shoir sog'ichni vatanga yetkazuvchi ulovga uyg'un qilib, yurtga qaytish, unga sadoqat bilan yashashni ma'naviy burch sifatida baholaydi.

She'rga faqat hikmat asos bo'lmagan, matnning keyingi ikki qatoriga Anas roziyallohu anhu rivoyat qilgan hadis mazmuni singdirilgan: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam safardan qaytganlarida Madinaning baland yo'llarini ko'rib, tuyalarini shoshtirar edilar. Agar boshqa ulov bo'lsa, uni ham tezlatar edilar». Abu Abdulloh aytadi: «Horis ibn Umayr Humayddan rivoyat qilib, «Unga (Madinaga) bo'lgan muhabbatlaridan tezlatar edilar»ni qo'shimcha qilgan». Anas roziyallohu anhudan qilingan boshqa bir rivoyatda «devorlarini» deyilgan.

Yurtga shosh Madina devorlarini

Ko'rib ot tezlatgan payg'ambar kabi.

Bu misralarda g'oya tarixiy misol orqali yanada dalillanadi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning Madinaga kirib kelayotganlarida otlarini tezlashtirgan hollari haqidagi voqeaning tilga olinishi yurtga talpinishni nabaviy bir namuna sifatida ko'rsatishga xizmat qiladi. Demak, vatanga muhabbat va unga talpinish payg'ambar sunnatining bir ko'rinishi sifatida talqin qilingan. Bu yerda Madina nomi alohida urg'u bilan keltirilib, uning muqaddasligi orqali yurt sevgisiga diniy ma'no qo'shilmoqda. Shoir uchun vatanga muhabbat faqat jismoniy hududga bog'liq hissiyot emas, balki Allohning elchisi sollallohu alayhi vasallam tomonidan amalda ko'rsatilgan bir namuna, iymonli insonning ma'naviy kasbidir.

She'rda hayot va tarix o'rtasida o'ziga xos bog'lanish yaratiladi: bugungi insonning yurtga bo'lgan sog'inch va muhabbati nabaviy fazilatlar bilan ulug'lanadi. Shu bilan birga, ijodkor yurtsevarlik g'oyasini yuqori estetik ruhda ifodalab, uni umumislomiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga erishadi.

Mazkur muallifning boshqa bir to'rtligida Ali roziyallohu anhuning shoni tilga olingan va bu ham hadis emas.

*Hayot janggohida erta horidik,
Alam gurilladi do'zax noridek.
El Ali tug'madi Alidan bo'lak,
Qilich topilmadi Zulfiqoridek.*

She'ning birinchi satrida hayotning og'ir va serkurash tabiati tasvirlangan. «Hayot janggohi» metaforik birikmasi qayg'uli, og'ir davrlarni, qiynalishlarini anglatadi. «Erta horidik» deb yozilishi umrning navqiron davrlarida ham og'riqlar va muammolar bilan kurashishni bildirib, yoshlikning tashvishli bo'lishini ifodalaydi. «Alam gurilladi do'zax noridek» satrida mashaqqatli hodisalarga, qayg'ularga chorasizlik bilan qarashni ko'rish mumkin. «Alam» qiynalish va dushvorlikni bildirsa, «do'zax noridek» tashbehi ushbu qayg'uning zo'r va og'irligini ko'rsatadi. Shuningdek, do'zax aniq va noaniq azobni tasvirlashda ishlatiladigan bir obrazga aylanadi. Bu metafora («do'zax nori») qayg'u va azobning yuqori cho'qissini ham ifodalaydi. Mazmun tadriji hayotiy sinovlarda musulmonlarga ibrat bo'lgan Ali roziyallohu anhuri eslashga o'tadi:

*El Ali tug'madi Alidan bo'lak,
Qilich topilmadi Zulfiqoridek.*

Bu satrlarda tarixiy va ma'naviy ramzlar ishlatilgan: hazrati Ali – Islomdagi buyuk shaxslardan bo'lib, musulmonlarning to'rtinchi xalifasidir. Aslida mazkur bayt «Alidan boshqa yigit, Zulfiqordan boshqa qilich yo'q» degan mashhur arab iborasi ning vazn va qofiyaga solingan shaklidir. Shoir to'rtlikda «el» va «Ali» so'zlarini yonma-yon qo'llash orqali uning ohangdorligini oshirgan. Muallif mazkur she'rda aniq bir hadisga suyanmagan bo'lsa-da, hadislarda maqtalgan shaxsni yodga oladi. Shuningdek, Zulfiqor qilichi Payg'ambarimiz alayhissalomdan Ali roziyallohu anhuga hadya sifatida o'tgani uchun ushbu to'rtlikni arba'in she'r sifatida baholay olamiz.

Shukur Qurbon mazkur ulug' sahobiyning butun islom olamida mashhur naqlini o'z to'rtligiga asos qilib olgan:

*Haloliga hisob borligi – aniq,
Haromiga azob borligi – aniq.
Ko'ra-bila turib bu oqibatni,
Haromiy yo'llardan qaytganlar qani?*

Ushbu baytda shoir halol-harom masalasini e'tiqodiy nuqtayi nazardan yoritadi. Ilk ikki misra Ali roziyallohu anhurining, dunyo nima, degan savolga javobi bo'lib, unda insonning halol rizq ortidan yurishi farz ekani, har bir halol luqma uchun hisob-kitob

bo'lishi muqarrarlari eslatib o'tiladi. Shu bilan birga, harom rizqning oqibati qat'iy ravishda azob ekanini ta'kidlanadi. Ya'ni halol va haromning oqibatini qarama-qarshi qo'yish orqali insonni ma'naviy o'yga chorlaydi. U uchinchi va to'rtinchi misralarda bu haqiqatni «ko'ra-bila turib» so'zi orqali yanada kuchaytirib, bu kundek ravshan haqiqat ekanini o'ziga xos tanbeh tarzida bildirgan.

Muhim jihati shundaki, shoir halol va haromning oqibati belgilanganligiga qaramay, odamlarning ko'pchiligi bu haqiqatni nazar-pisand qilmay, harom yo'llarga moyil bo'lib yashayotganini hasrat ruhida tilga oladi. «Haromiy yo'llardan qaytganlar qani?» degan savol shaklidagi murojaat bu masala bo'yicha jiddiy mulohaza qilinishini talab qiladi. Bu orqali Shoir ham ayblash, ham ogohlantirish vazifasini bajargan. She'r umumiy ma'noda islomiy axloq ta'limotining asosiy nuqtalaridan biri bo'lgan halol rizqqa intilish g'oyasini ilmiy-ma'rifiy ruhda bayon etadi. Shu tariqa ijodkor zamonaviy jamiyatda uchrayotgan haromga moyillikni tanqid qilar ekan, uning oqibati dunyo va oxirat uchun xatarli ekanini qat'iy ravishda eslatib o'tadi.

Xulosa

Keltirilgan misollardan ma'lum bo'ladiki, arba'in tartib berayotgan mualliflar ko'p hollarda oyat va qudsiy hadislar qatorida sahobalarning qavllari yoki mashhur naqllarga ham tayanadi. Natijada ba'zan hadis bo'lmagan matnlar ham hadis sifatida she'rning poydevori qilib qo'yiladi. Bu esa ko'proq ular murojaat qilgan manbalardagi yanglishliklar va keyingi targ'ib jarayonida paydo bo'lgan bo'rttirishlar bilan bog'liq. Bunday holatlar o'quvchidan manba nuqtayi nazaridan alohida e'tibor talab qiladi.

Ba'zi hollarda hadis bo'lmagan matnlarning she'r asosiga hadis sifatida qo'yilishi muallifning diniy manbalarni to'liq tekshirmasdan foydalanishi yoki manbada allaqachon noto'g'ri keltirilgan rivoyatlarga tayanishi oqibatida yuzaga kelgan. Ayniqsa, "Aql dindand oldinda yurar", "Vatanni sevmoq iymondandir", "Adolat – mulkning asosidir" kabi mashhur iboralar diniy mazmunga ega bo'lishiga qaramay, sahih hadislar sirasiga kirmaydi. Shunga qaramay, ularning ma'naviy-axloqiy mohiyati musulmon tafakkuriga yaqin bo'lgani sababli, asrlar davomida she'riyatda keng qo'llanilgan.

Demak, arba'in janrini o'rganishda manba tanqidiga alohida e'tibor qaratish, har bir keltirilgan matnning asliyatini aniqlash muhim ilmiy vazifadir. Bu nafaqat diniy matnlarning ishonchliligini ta'minlaydi, balki musulmon adabiyotining manba tomonidan sof va haqqoniy asosda rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan, kelgusida yaratiladigan

arba'inlar va ularni o'rganuvchi tadqiqotlar manbaga suyanish, ilmiy tekshiruv va ishonchli rivoyatlarga asoslanish tamoyiliga qat'iy amal qilishi zarur. Ana shundagina arba'in janri o'zining asl ma'naviy vazifasini, ya'ni hadis va hikmatlar orqali insonni ezgulik, adolat va imon sari yetaklash maqsadini to'laqonli amalga oshira oladi.

Adabiyotlar

1. Камол, Жамол. Шеър санъати. Сайланма. Олти жилдлик. Тўрт жилд. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2018.
2. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол, 1-жуз. – Тошкент: Sharq, 2012.
3. Камол, Жамол. Шеър санъати. Сайланма. Олти жилдлик. Тўрт жилд. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2018.
4. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва ҳаёт, 1-жуз. Муқаддима. – Тошкент: Sharq, 2011.
5. Қурбон, Шукур. Ҳикматлар анжумани: Тўртликлар. – Тошкент: Sharq, 2016.
6. https://shomila.islomiy.info/index.php?act=book&sec=17&b_id=41&s_id=3975 / Mulla Ali Qori. Al-Masnu' fiy ma'rifat al-hadis al-mavzu'. 398-jumla.
7. <https://bekiryetginbal.com/adalet-mulkun-temelidir-sozu-hz-omere-aittir/> / İbn Kesir "El-Bidâye ve'n-Nihâye" (cilt 7, s. 68)
8. https://t.me/Mansur_Jumayev/1726
9. <https://hadis.islom.uz/kitob/30/29/862>
10. https://t.me/Mansur_Jumayev/1113
11. https://shomila.islomiy.info/index.php?act=book&sec=251&b_id=218&s_id=25557

ESTRADA SAN'ATI ORQALI MA'NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

*HAFIF (ESTRADA) MÜZİĞİ ARACILIĞIYLA RUHSAL EĞİTİMİN
OLUŞTURULMASININ PEDAGOJİK TEMELLERİ*

*Pedagogical Foundations of Creating Spiritual Education Through Pop (Estrada)
Music*

Rahima YUSUPOVA*

Annotatsiya

Ushbu maqolada estrada san'ati orqali ma'naviy tarbiyani shakllantirishning pedagogik asoslari o'rganilgan. Estrada san'ati yoshlar ongida ma'naviy qadriyatlarni singdirish, ularni estetik did va madaniy ko'nikmalar bilan boyitishda samarali vosita sifatida ko'riladi. Maqolada estrada san'atining pedagogik faoliyatda qo'llanilishi, uning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni va ahamiyati, shuningdek, zamonaviy pedagogik metodlar yordamida ma'naviy tarbiyani rivojlantirish yo'llari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *estrada san'ati, ma'naviy tarbiya, pedagogika, yoshlar tarbiyasi, ta'lim metodikalari*

Özet

Bu makale, hafif müzik (estrada) aracılığıyla manevi eğitimin oluşumunun pedagogik temellerini incelemektedir. Pop art, gençlerin zihnine manevi değerleri aşlamak, onları estetik zevk ve kültürel becerilerle zenginleştirmek için etkili bir araç olarak kabul edilmektedir. Makale, pop art'ın pedagogik faaliyetlerde kullanımını, eğitim sürecindeki rolünü ve önemini ve modern pedagogik yöntemler kullanılarak manevi eğitimin nasıl geliştirilebileceğini incelemektedir.

Anahtar Kelimeler: *pop (estrada) sanatı, manevi eğitim, pedagoji, gençlik eğitimi, eğitim metodolojileri*

Abstract

This article studies the pedagogical foundations of the formation of spiritual education through pop art. Pop art is considered an effective

* O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, Madaniyat va san'at menejmenti kafedrası dotsenti
Doç. Dr., Özbekistan Devlet Sanat ve Kültür Enstitüsü

tool for instilling spiritual values in the minds of young people, enriching them with aesthetic taste and cultural skills. The article analyzes the use of pop art in pedagogical activities, its role and significance in the educational process, as well as ways to develop spiritual education using modern pedagogical methods.

Keywords: *pop (estrada) art, spiritual education, pedagogy, youth education, educational methodologies*

Genişletilmiş Özet

Bu makale, estrada sanatı (hafif müzik veya pop müzik) aracılığıyla manevi/ruhsal eğitimin temellerini, kapsamını ve pedagojik yönlerini incelemektedir. Çalışmada estrada sanatının yalnızca eğlence amaçlı bir müzik türü olmadığı, aynı zamanda ahlaki, estetik ve kültürel değerleri genç kuşaklara aktarmada güçlü bir araç olduğu vurgulanmaktadır. Küreselleşme ve hızlı dijitalleşme çağında gençlerin duygusal ve estetik duyarlılıklarını geliştirmede sanatın, özellikle de popüler müziğin, etkili bir eğitim aracı hâline geldiği ileri sürülmektedir.

Makale, estrada müziğinin pedagojik süreçlerde kullanılma biçimlerini analiz ederek, bu sanat dalının estetik zevk, milli kimlik, ahlaki değerler ve ruhsal denge kazandırmadaki rolünü ele almaktadır. Estrada sanatı; melodik yapısı, sözsel içeriği ve sahne performansı ile gençlerin duygu dünyasına doğrudan hitap etmekte, onların düşünsel ve ruhsal gelişimini olumlu yönde etkilemektedir. Özellikle “millî öz”ü güçlendiren, vatan sevgisi, dürüstlük, sevgi, çalışkanlık, insanlık ve dostluk gibi değerleri öne çıkaran eserlerin eğitim süreçlerinde kullanılması önerilmektedir.

Yazar, estrada sanatının sadece sanatsal değil aynı zamanda pedagojik bir fenomen olarak değerlendirilmesi gerektiğini savunmaktadır. Çünkü bu sanat türü geniş bir kitleye ulaşmakta, gençlerin bilinçaltına estetik ve ahlaki mesajları kolayca yerleştirebilmektedir. Bu nedenle, eğitim ortamlarında estrada sanatı örneklerinin bilinçli, seçici ve metodik bir yaklaşımla kullanılması gerektiği ifade edilmektedir. Aksi takdirde, düşük nitelikli veya ticari amaçlı popüler müzik ürünleri gençler üzerinde olumsuz etki yaratabilir.

Makale, pedagojik uygulamalarda estrada sanatının etkili biçimde kullanılabilmesi için şu unsurlara dikkat edilmesini önermektedir:

- Kullanılan müzik ve içeriklerin fikrî ve ahlaki temizliği,
- Öğretmenlerin müzik-estetik yeterliliğe sahip olmaları,
- Her yaş grubuna uygun materyal seçimi,

Estrada sanatının ders içeriklerine entegrasyon olanaklarının sağlanması.

Ayrıca, müziğin eğitimde dijital teknolojilerle birleştirilmesi gerektiği vurgulanmaktadır. Videoklipler, dijital uygulamalar, çevrimiçi müzik platformları ve görsel materyaller aracılığıyla gençlere hem estetik hem manevi yönden zenginleştirici içeriklerin sunulması önerilmektedir. Bu yaklaşım, çağdaş gençliğin dijital kültürüne uyum sağlarken, aynı zamanda onların maneviyatını güçlendiren bir köprü işlevi görecektir.

Çalışmada, millî estrada örneklerinin (örneğin Yulduz Usmanova, Azadbek Nazarbekov, Şerali Corayev, Farruh Zakirov gibi sanatçıların eserleri) eğitimde kullanılmasının, gençlerde milli gurur, estetik duyarlık ve manevi bağ duygularını güçlendirdiği ifade edilmektedir. Bu şarkıların şiirsel derinliği, melodik yapısı ve tematik saflığı sayesinde öğrencilerde sanatsal beğeni gelişmekte, manevi bağışıklık oluşmaktadır.

Sonuç olarak, estrada sanatı, çağdaş eğitimde manevi terbiyeyi güçlendiren, gençlerin ahlaki, estetik ve kültürel gelişimine katkı sağlayan güçlü bir pedagojik araç olarak tanımlanmaktadır. Makale, pedagojik kurumlarda bu sanat türünün sistemli biçimde öğretilmesi, öğretmenler için metodik kılavuzların hazırlanması, yaş gruplarına uygun repertuarların oluşturulması ve sanat-eğitim entegrasyonunun dijital ortamda geliştirilmesi gerektiğini önermektedir. Yazarın vardığı sonuç, estrada sanatının “Kuvvetli maneviyat – kuvvetli toplum” ilkesinin uygulanmasında köprü işlevi gördüğüdür. Estrada sanatı; gençlerin kalbine iyilik, vatan sevgisi, estetik duyarlık ve toplumsal sorumluluk bilinci yerleştiren, böylece modern Özbek eğitiminin insani temellerini güçlendiren çağdaş bir eğitim aracıdır.

Kirish

Keyingi paytlarda insoniyat taqdiridan xavotirga tushgan minglab ma'rifatparvarlar, ziyolilar dunyoni faqat va faqat ma'naviyat, ma'rifat qutqaradi, shuning uchun ham “ma'rifatli dunyo”ni barpo etish jahon afkor ommasining eng ustuvor vazifasi bo'lishi kerak deb bong urmoqda [1, 3]. Shuning uchun ham bugungi globallashuv va tezkor axborot oqimi sharoitida yosh avlod tarbiyasida ma'naviyatga tayanuvchi, estetik didni shakllantiruvchi, axloqiy qadriyatlarni singdiruvchi omillarning roli tobora ortib bormoqda. XXI asr texnologiyalar, sun'iy intellekt, raqamli madaniyat asri bo'lishi bilan birga, inson

ruhiyatiga, qalb dunyosiga, ijtimoiy ongiga ta'sir etuvchi eng kuchli manba san'at bo'lib qolmoqda.

Estrada san'ati, bir tomondan, zamonaviylikka hamohang bo'lsa, ikkinchi tomondan, yoshlarni badiiy-estetik qadriyatlar bilan boyituvchi vosita hisoblanadi. Uning musiqiy ohanglari, ijodiy asarlari va mazmunan boy kompozitsiyalari yoshlarning qalbida ijodkorlik uchqunini uyg'otadi. Bu san'at turi faqat ko'ngilochar vosita emas, balki ma'naviyatni mustahkamlash, milliy madaniyatni keng targ'ib etish va umumbashariy qadriyatlarni singdirishning samarali yo'nalishidir [2, 551]. Xususan, estrada san'ati bugungi kunda yoshlarning hayot tarzi, fikrlash madaniyati va axloqiy qadriyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biriga aylanmoqda desak, adashmagan bo'lamiz. Shu bois pedagogik faoliyatda estrada san'atining ma'naviy tarbiya vositasi sifatida imkoniyatlarini o'rganish dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biridir. Bu nafaqat yoshlarning estetik didini shakllantirish, balki ularda milliy o'zlikni anglash, axloqiy qadriyatlarni qadrlash, g'oyaviy immunitetni mustahkamlashda ham muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Sababi, estrada san'ati – nafaqat badiiy ifoda, balki axborot vositasi, ijtimoiy ongni shakllantiruvchi kuch, tarbiya vositasi sifatida keng auditoriyani qamrab oladi. Ommaviylik xususiyati sababli estrada san'atining ijodiy mahsulotlari o'quvchi-yoshlar ongiga ko'proq va bevosita ta'sir etadi. Shu sababli pedagogik jarayonda bu san'at turidan ongli va metodik asoslangan tarzda foydalanish zarur.

Asosiy qism

Bugun ta'lim muassasalarida ma'naviy tarbiya muammolari, yoshlar orasida ommaviy madaniyat ta'sirining kuchayishi, g'oyaviy bo'shliq muammolari mavjud bo'lib, bu esa estrada san'ati vositasida ma'naviy tarbiyani tizimlashtirish zaruratini tug'diradi. Mazkur masalaning ham asosiy maqsadi, pedagogik faoliyatda estrada san'atini ma'naviy tarbiya vositasi sifatida qo'llashning nazariy asoslarini aniqlash, metodik yondashuvlarini yoritish hamda ushbu jarayonning o'ziga xos pedagogik xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Shaxs ijtimoiy tarbiya orqali shakllanadi. Shaxsni shakllantirish, boshqarish, nazorat xarakteriga ega bo'lib, bu borada belgilangan vazifalarni tasodifiy harakatlar orqali emas, balki oldinda belgilangan va puxta o'ylangan rejalar asosida hal etib boriladi. Tarbiya jarayonida uning maqsadi, shakl va metodlari, shaxsning o'zini-o'zi tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim o'rin tutadi [3, 6]. Ushbu jarayonda ma'naviy tarbiya

alohida o'ringa ega bo'lib, u yosh avlodda axloqiy mezonlar, ijtimoiy xulq-atvor normalari, madaniy qadriyatlar, estetik tushunchalar va ruhiy barqarorlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Ma'naviy tarbiya jamiyatning ichki tafakkur manzarasini anglashga qaratilgan faoliyat bo'lib, u orqali shaxsda ezgulik, Vatanga muhabbat, halollik, bunyodkorlik, badiiy did, mas'uliyat, mehr-oqibat kabi qadriyatlar yuksaladi. Aynan shu ma'naviy boyliklar insonni "inson" qiluvchi asosiy mezonlardir. Ma'naviy tarbiyasiz ta'lim jarayoni quruq nazariyaga, amaliyotsiz g'oyaga aylanib qoladi.

Bugungi o'zgaruvchan axborot makonida yoshlar ko'proq emotsional, musiqiy, vizual kontentlar orqali ta'sirlanadi. Aynan estrada san'ati esa – bu uchala komponentni o'zida mujassam etgan eng kuchli vositalardan biridir. Estrada qo'shiqlari orqali talaba-yoshlarga nafaqat axborot, balki hissiy ta'sir, ruhiy motivatsiya, estetik zavq, g'oyaviy yo'nalish ham beriladi [4, 156]. Ammo estrada san'atidan samarali tarbiyaviy foydalanish uchun pedagog ushbu madaniy fenomenning ichki mohiyatini chuqur anglagan, tahlil qilgan, ilmiy asosda yo'naltira oladigan bo'lishi kerak. Aks holda, estrada orqali yetkazilayotgan qarama-qarshi axborotlar (masalan, ayrim tijoriy, past darajadagi estrada mahsulotlari) yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu sababli, pedagogik faoliyatda estrada san'atini ma'naviy tarbiya vositasiga aylantirish uchun quyidagi omillar muhim:

-  estrada kontentining g'oyaviy-tozalik darajasi;
-  pedagog tomonidan musiqiy-estetik kompetensiyaning yetarli darajada shakllanganligi;
-  yosh avlodni yoshiga mos materiallar tanlanishi;
-  dars mazmuniga integratsiyalash imkoniyatlarining mavjudligi.

Pedagogik faoliyatning ma'naviy tarbiyaviy mazmuni o'z mohiyatiga ko'ra estrada san'ati vositalari bilan uyg'unlashtirilsa, natijada o'quvchining nafaqat aqliy salohiyati, balki qalb boyligi, axloqiy ongi, ijtimoiy faolligi, estetik qarashlari ham yuksaladi.

Estrada san'ati o'zining demokratikligi, ommabopligi, ko'ngilocharligi va eng asosiysi ijtimoiy hayotdagi mavjudligi tufayli, tomoshabin didi va ehtiyojlariga yaqin turadi. Bu esa uning badiiy tafakkur bilan anglash va tasvirlash imkoniyatlari bilan birga, axloqiy, professional va baholovchi mezonlarini belgilashda murakkablikni yuzaga keltiradi [5, 78]. Estrada san'atining badiiy-emotsional funksiyasi orqali inson qalbida ma'naviy tafakkur, estetik sezgi, axloqiy mulohaza uyg'otish mumkin. Har qanday estrada asari – u qo'shiq, sahna chiqishi yoki musiqiy-kompozitsiyaviy kompozitsiya bo'lishidan

qat'i nazar o'zida ichki g'oya, ma'naviy ishora va muayyan qadriyatlarni mujassamlashtiradi. Masalan, Vatanga muhabbat, ona tiliga ehtirom, mehr-oqibat, insonparvarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, sadoqat kabi g'oyalar estrada san'atining doimiy mavzularidandir.

Undan tashqari, estrada san'atining milliy madaniyatni saqlab qolish va targ'ib qilishdagi roli alohida e'tiborga loyiq. Milliy kuylar, xalqona ohanglar, maqomga yaqin tuzilmalarning zamonaviy estrada shakllarida ifodalanishi yoshlarda milliy o'zlikni anglash, o'z xalqiga g'urur bilan qarash, estetik zavq olish kabi his-tuyg'ularni uyg'otadi. Masalan, o'zbek estrada san'atidagi "O'zingdan qo'ymasin xalqim" (Yulduz Usmonova ijrosida), "Jon O'zbekiston" (Ozodbek Nazarbekov ijrosida), "Onaginam" (Sherali Jo'rayev ijrosida), "Munis Onam" (Farruh Zokirov ijrosida), "Navro'z kelibon jumlai jahon" (Sarvinoz Ruziyeva ijrosida) kabi qo'shiqlar o'zining musiqiy-fonetik jozibasi, she'riy badiiyligi, va eng muhimi, g'oyaviy sofliги bilan yoshlar qalbiga tez yo'l topadi. Bunday asarlar orqali ularda badiiy did shakllanadi, ma'naviy immunitet mustahkamlanadi. Bundan tashqari, estrada san'atining ko'ngilocharlik xususiyati tarbiya jarayoniga yengillik, quvonch, qiziqish olib kiradi. Aynan shu jihati bilan u an'anaviy ma'naviy-tarbiyaviy uslublardan farq qiladi. Zero, bugungi axborot asrida yoshlarga kuchli g'oyaviy-tarbiyaviy yuklamalarni berishda emotsional, zamonaviy va ko'ngilga yaqin uslublar afzalroq natija beradi. Shunday ekan, estrada san'ati nafaqat madaniy mahsulot, balki tarbiya vositasi sifatida qaralishi lozim. Buning uchun esa pedagog estrada san'atining g'oyaviy yo'nalishini, badiiy chuqurligini va yosh avlodga ta'sir qilish mexanizmlarini chuqur anglagan holda foydalanishi zarur.

Avvalo, estrada san'atidan foydalanishda pedagogik maqsad aniqligi muhim. Har bir musiqiy asar yoki qo'shiq tanlanayotganda, u qanday axloqiy g'oyani yetkazadi, qanday ma'naviy qadriyatni targ'ib qiladi, degan savolga javob bo'lishi kerak. Masalan, "fidoyilik", "sadoqat", "Vatanga muhabbat", "odamiylik", "el-yurtga xizmat" g'oyalari qamrab olingan estrada asarlari pedagogik jarayonda tarbiyaviy kuchga ega bo'la oladi. Shuningdek, estrada san'atini dars jarayoniga integratsiyalash samarali metodik yondashuvlardan biridir. Musiqa, adabiyot, tarix, ona tili, ma'naviyat darslarida estrada san'atining tarbiyaviy ahamiyatga ega namunalarini foydalanish yosh avlodning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mavzuni his-tuyg'u orqali chuqurroq anglashga yordam beradi. Masalan, "Vatanni sevmok imondandir" g'oyasini yoritayotgan darsda O'zbekiston haqida yozilgan estrada qo'shig'i eshittirilsa, bu nafaqat darsning ma'naviy saviyasini

kuchaytiradi, balki o'quvchilarda g'urur, minnatdorlik, vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otadi.

Nihoyat, estrada san'atidan pedagogik foydalanishda raqamli texnologiyalarning integratsiyasi zamonaviy va samarali yondashuvdir. Videokliplar, animatsion estrada ko'rinishlari, mobil ilovalar, onlayn audio platformalardagi pedagogik yo'nalishdagi estrada asarlarini darsga jalb qilish orqali nafaqat o'quv jarayoni boyitiladi, balki zamonaviy raqamli muhitga moslashgan yoshlar ongiga ma'naviy g'oyalar tezroq singdiriladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, estrada san'ati pedagogik faoliyatda nafaqat estetik zavq bag'ishlovchi vosita, balki yuksak tarbiyaviy salohiyatga ega ma'naviy manba sifatida katta imkoniyatlarga ega. Uning yordamida o'quvchilar, talaba-yoshlarda insoniylik, milliylik, vatanparvarlik, do'stlik, halollik kabi yuksak qadriyatlar shakllantiriladi. Ayniqsa, yoshlarning musiqaga bo'lgan qiziqishi yuqori bo'lgan hozirgi davrda estrada san'atini pedagogik vosita sifatida ishlatish g'oyat samarali yechim bo'la oladi. Pedagoglarga estrada san'atini tanlashda, uni darsga yoki darsdan tashqari tarbiyaviy ishga jalb qilishda maxsus tavsiyanomalar, metodik qo'llanmalar kerak. Shuningdek, zamonaviy estrada qo'shiqlarining g'oyaviy sifati, axloqiy darajasi va badiiy chuqurligi tizimli tahlil etilishi lozim. Aks holda, bu vositaning noto'g'ri tanlovi maqsadga zid natijalarni keltirib chiqarishi mumkin.

Tavsiyalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Pedagoglar uchun estrada san'atidan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar yaratish;
2. Milliy estrada namunalarining g'oyaviy-estetik tahlilini amalga oshirib, maxsus repertuarlar tuzish;
3. Dars va tarbiyaviy tadbirlarga estrada san'atini integratsiyalashda raqamli texnologiyalardan foydalanishni yo'lga qo'yish;
4. Har bir yosh toifasiga mos estrada namunalarini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish;
5. Pedagogik oliygohlar ta'lim dasturlariga "Estrada san'atining tarbiyaviy imkoniyatlari" bo'yicha alohida kurslar kiritish.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, estrada san'ati zamonaviy jamiyatda ma'naviy tarbiyani yangi bosqichga olib chiqadigan noyob pedagogik vositadir. Uning salohiyatini chuqur anglab yetish, ilmiy asoslangan yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tatbiq etish bugungi ma'naviy va axloqiy tarbiyada ustuvor ahamiyat kasb etadi. Estrada san'ati orqali yoshlarning qalbiga ezgulik urug'ini qadash, ularni g'oyaviy immunitetli, ruhiy barkamol, badiiy didli shaxslar qilib tarbiyalash har bir zamonaviy pedagogning maqsad va mas'uliyatiga aylanishi zarur.

Ayniqsa, "Kuchli ma'naviyat – kuchli jamiyat" tamoyili asosida yosh avlodni tarbiyalashda estrada san'ati ko'prik vazifasini o'taydi. Bu ko'prik orqali yoshlar qalbiga milliy g'urur, estetik sezgirlik, hayotiy prinsiplar va jamiyatdagi mas'uliyatli pozitsiya singdiriladi. Shu bois, estrada san'ati va ma'naviy tarbiyani uyg'unlashtirgan holda, zamonaviy pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish, ularni tajriba-sinov asosida tatbiq etish, metodik qo'llanmalar yaratish, ilg'or o'qituvchilar tajribasini ommalashtirish zamonaviy o'zbek ta'limi oldidagi dolzarb vazifalardandir. Bu yo'nalishda olib boriladigan har bir izlanish, har bir ilmiy yondashuv ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash sari qo'yilgan muhim qadam bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Mavkulov A.A. Mustaqillik va ma'naviyat. Gaz. Yangi O'zbekiston, 164-son. 2025. – 3 b.
2. Zaripova K. F. O'quvchilarni estrada va san'at yo'nalishida tarbiyalash muammolari // Inter education & global study. – 2025. – №. 1. – C. 548-556.
3. Ziyayev A. Umumiy pedagogika (Tarbiya nazariyasi): o'quv qo'llanma; o'quv-uslubiy nashr // – Farg'ona: Farg'ona nashriyoti, 2020. – 176 b.
4. Gutman I., Deng H., Radenkovic S. The Estrada index: an updated survey // Selected Topics on Applications of Graph Spectra, Math. Inst., Beograd. – 2011. – C. 155-174.
5. Рашидов Т. М. Феномен эстрадного искусства // European Journal of Arts. – 2019. – №. 1-2. – C. 78-81.

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA PEYZAJ LIRIKASINING POETIK AHAMIYATI

KLASİK ÖZBEK EDEBİYATINDA TABİAT ŞİİRLERİNİN POETİK ÖNEMİ

The Poetic Importance of Nature Poems in Classical Uzbek Literature

Shaxnoza JUMANOVA*

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda o‘zbek mumtoz adabiyotida peyzaj lirikasi — ya’ni tabiat manzaralarining badiiy talqini va poetik vazifalari masalasi ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Mumtoz adabiyotimizda tabiat manzaralari nafaqat estetik go‘zallikni aks ettiruvchi vosita, balki insonning ruhiy holatida kechadigan ichki kechinmalari, psixologik holati hamda o‘ziga xos falsafiy qarashlarini ifoda etuvchi badiiy tizimning muhim elementi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, tabiat lirikasi mumtoz she’riyatda uning badiiy-estetik xususiyatini boyitgan, ijodkorlar dunyoqarashini ramz hamda timsollar vositasida ochib beruvchi asosiy unsurlardan biridir.

Maqolada Atoiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Muhammad Rizo Ogahiy kabi mumtoz adabiyot vakillarining asarlarida tabiat manzaralarining o‘ziga xos poetik talqini o‘rganilgan. Jumladan, Navoiy g‘azallarida bog‘, gul, bulbul, shamol, yomg‘ir kabi tabiat unsurlari inson qalbining ichki, yashirin kechinmalari hamda muhabbat tuyg‘ularining ramziy ifodasi sifatida tahlil qilinadi. Bobur she’riyatida esa tabiat obrazlari realistik aniqlik bilan, lekin ijodkorning vatan sog‘inchi, shaxsiy kechinmalari hamda hayotning mavjud falsafasi bilan uyg‘un holda aks etganini ko‘rish mumkin. Mashrab lirikasida esa, peyzaj lirikasining ilohiy muhabbat, ruhiy ozodlik hamda tasavvufiy yuksalish ramziga aylanfanini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, tabiat tasvirlarining badiiy vositalari — epitet, metafora, tashbeh, ramz va tamsil kabi unsurlarning qo‘llanishi orqali shoirning poetik maqsadi qanday ifoda etilishi, peyzaj lirikasi orqali yaratilgan estetik makon

* Qo‘qon universiteti dotsenti, (PhD), O‘zbekiston, ORCID: 0009-0003-1170-1929
Doç. Dr., Kokand Üniversitesi, shahnozajumanova13081989@gmail.com

ijodkorning ichki qalb dunyosi bilan o'zaro hamohanglikda tahlil etilib, ushbu jarayon mumtoz she'riyatda "inson–tabiat–ruh" uyg'unligini aks ettiruvchi poetik tamoyil sifatida baholangan.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tabiat tasviri o'zbek mumtoz adabiyotining badiiy-estetik sistemada chuqur semantik yuklama kasb etib, ijodkorlarning o'zigagina xos bo'lgan uslubini, estetik didini va falsafiy qarashlarini ochib beruvchi muhim badiiy manba hisoblanadi. Shunday qilib, peyzaj lirikasi faqat tashqi go'zallikni tasvirlovchi vosita emas, balki inson ruhiyatining badiiy ifodasini aks ettiruvchi, lirikaning mazmuniy qatlamlarini boyituvchi estetik fenomen sifatida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: mumtoz adabiyot, peyzaj lirikasi, poetika, tabiat manzarasi, badiiy obraz, estetik tafakkur, ramz, lirika, falsafiy mazmun

Özet

Bu çalışma, Özbek klasik edebiyatında tabiat şiirleri, yani doğa manzaralarının sanatsal yorumu ve şiirsel işlevleri konusuna ışık tutmaktadır. Klasik edebiyatımızda doğa manzaraları, yalnızca estetik güzelliği yansıtan bir araç değil, aynı zamanda bir kişinin içsel deneyimlerini, psikolojik durumunu ve benzersiz felsefi görüşlerini ifade eden sanatsal sistemin önemli bir unsurudur. Bu açıdan tabiat şiirleri, klasik şiirin sanatsal ve estetik karakterini zenginleştiren ve sanatçıların dünya görüşünü semboller ve imgeler aracılığıyla ortaya koyan başlıca unsurlardan biridir. Makalede, Atai, Ali Şir Nevai, Zahirüddin Muhammed Babur, Baba Rahim Meşreb ve Muhammed Rıza Agehi gibi klasik edebiyat temsilcilerinin eserlerinde doğa manzaralarının benzersiz şiirsel yorumu incelenmektedir. Özellikle Nevai'nin gazellerinde bahçeler, çiçekler, bülbüller, rüzgar ve yağmur gibi doğal unsurlar, insan ruhunun içsel, gizli deneyimlerinin ve aşk duygularının sembolik ifadeleri olarak analiz edilmektedir. Babur'un şiirinde, doğa imgelerinin gerçekçi bir doğrulukla, ancak yaratıcının vatan özlemi, kişisel deneyimleri ve mevcut yaşam felsefesiyle uyum içinde yansıtıldığı görülebilir. Meşreb'in şiirlerinde ise tabiat şiirlerinin ilahi aşk, manevi özgürlük ve mistik yükselişin sembolüne dönüşümü görülebilir. Ayrıca, şairin şiirsel amacını ifade etmek için doğa imgelerinin sanatsal araçlarının - epitetler, metaforlar, benzetmeler, semboller ve alegoriler - kullanımı ve tabiat şiirleriyle yaratılan estetik alan, yaratıcının iç dünyasıyla uyum içinde analiz edilir ve bu süreç, klasik şiirde "insan-doğa-ruh" uyumunu yansıtan şiirsel bir ilke olarak değerlendirilir.

Araştırmanın sonuçları, doğa imgesinin Özbek klasik edebiyatının sanatsal ve estetik sisteminde derin bir anlamsal yüke sahip olduğunu, yaratıcıların özgün üslubunu, estetik zevkini ve felsefi görüşlerini ortaya koyan önemli bir sanatsal kaynak olduğunu göstermektedir. Böylece tabiat tasviriyle ilgili şiirler yalnızca dış güzelliği betimlemenin bir aracı olarak değil, aynı zamanda insan ruhunun sanatsal ifadesini yansıtan ve şiirin içerik katmanlarını zenginleştiren estetik bir olgu olarak da ele alınmaktadır.

Anahtar Kelimeler: *klasik edebiyat, tabiat şiirleri, şiirsellik, doğal manzara, sanatsal imge, estetik düşünce, sembol, şarkı sözleri, felsefi içerik*

Abstract

This study sheds light on nature poems in Uzbek classical literature, namely the artistic interpretation and poetic functions of natural landscapes. In our classical literature, natural landscapes are not only a means of reflecting aesthetic beauty but also an important element of the artistic system, expressing a person's inner experiences, psychological state, and unique philosophical views. In this respect, nature poems are one of the primary elements that enrich the artistic and aesthetic character of classical poetry and reveal the artists' worldview through symbols and imagery. This article examines the unique poetic interpretation of natural landscapes in the works of representatives of classical literature such as Atai, Ali Shir Navai, Zahiruddin Muhammad Babur, Baba Rahim Mashrab, and Muhammad Riza Agehi. In Navai's ghazals, in particular, natural elements such as gardens, flowers, nightingales, wind, and rain are analyzed as symbolic expressions of the inner, hidden experiences of the human soul and feelings of love. In Babur's poetry, it can be seen that natural images are reflected with realistic accuracy, yet in harmony with the creator's longing for home, personal experiences, and current philosophy of life. In Mashrab's poems, the transformation of nature poems into symbols of divine love, spiritual freedom, and mystical elevation can be observed. Furthermore, the poet's use of artistic tools of nature imagery—epithets, metaphors, similes, symbols, and allegories—to express his poetic purpose, and the aesthetic space created by nature poems, are analyzed in harmony with the creator's inner world. This process is evaluated as a poetic principle reflecting the harmony of "humanity, nature, and soul" in classical poetry.

The results of the research demonstrate that nature imagery holds a profound semantic load in the artistic and aesthetic system of Uzbek classical literature, serving as a significant artistic resource that reveals the creators' unique style, aesthetic taste, and philosophical views. Thus, poems depicting nature are considered not only as a means of depicting external beauty, but also as an aesthetic phenomenon that reflects the artistic expression of the human soul and enriches the poetic content.

Keywords: *classical literature, nature poems, poetics, natural landscape, artistic imagery, aesthetic thought, symbol, lyrics, philosophical content*

Genişletilmiş Özet

Bu çalışma, Özbek klasik edebiyatında tabiat tasvirinin şiirsel işlevini, yani peyzaj lirikasının poetik değerini incelemektedir. Klasik şiirde tabiat, yalnızca dış görünüşün estetik bir yansıması değil; insan ruhunu, duygu dünyasını, içsel çatışmalarını ve şairin felsefi bakışını yansıtan çok katmanlı bir ifade alanı olarak konumlanır. Bu nedenle peyzaj lirikası, yalnızca bir dekoratif unsur değil, klasik şiir geleneğini şekillendiren temel poetik sistemlerden biridir. Araştırma, tabiatın klasik şiirde nasıl bir estetik, simgesel ve düşünsel yük taşıdığını ortaya koymak amacıyla yürütülmüştür.

Makale, Atai, Ali Şir Nevai, Zahirüddin Muhammed Babur, Baba Rahim Meşreb ve Muhammed Rıza Agehi gibi klasik Özbek edebiyatının önde gelen temsilcilerinin eserlerinde tabiat tasvirinin işlevini karşılaştırmalı olarak ele alır. Atai'nin şiirlerinde bahçe, çiçek ve mevsim imgelerinin benzetme ve karşılaştırmalar aracılığıyla zarif bir lirizm kazandığı; Nevai'de tabiatın aşk, ayrılık, vecd ve ruhsal arınma gibi duyguların sembolik zeminine dönüştüğü; Babur'da doğa imgelerinin vatan özlemi, bireysel duyarlık ve hayat felsefesiyle iç içe geçtiği; Meşreb'de ise peyzajın tasavvufi yükseliş, ilahi aşk ve ruhsal özgürlük metaforlarına dönüştüğü gösterilmektedir. Agehi'nin özellikle kış manzaralarını felsefi bir yoğunlukla işlemesi, tabiatın mevsimsel değişimlerini insan hayatının iniş çıkışlarıyla ilişkilendiren bir bakış açısını yansıtır.

Çalışmanın kuramsal bölümü, peyzaj lirikasının yalnızca dış dünyanın betimi olarak değil, aynı zamanda “insan-tabiat-ruh” üçgeninde gelişen poetik bir ilke olarak klasik şiirde önemli bir yer tuttuğunu vurgular. Bahar, yaz, kış ve sonbahar gibi mevsimsel unsurların, gul, lale, bülbül, şafak, akşam, rüzgar, yağmur ve nehir gibi tabiat detaylarının

şairlerin duygu ve düşünce dünyasını yansıtmak için birer simgesel mekana dönüştüğü belirtilir. Bu çerçevede peyzaj, hem estetik bir atmosfer yaratır hem de şiirin anlam katmanlarını derinleştiren bir metafor evreni oluşturur.

Makale, tabiat tasvirlerinin klasik estetikteki işlevini daha iyi açıklamak amacıyla badiî san'atların (edebi sanatlar) rolüne de dikkat çeker. Epitet, metafor, teşbih, istiare, tamsil ve teşhis gibi sanatlar aracılığıyla tabiat, yalnızca betimlenen bir unsur değil, şiirin anlam dünyasını genişleten yaratıcı bir araç haline gelir. Özellikle Ali Şir Nevai'nin "Fusûlü Erbea" adlı dört fasla adanmış qasida dizisi, doğanın döngüsellliğini insan hayatı, zamanın akışı ve sultanın adaletiyle ilişkilendiren önemli bir estetik örnek olarak değerlendirilir.

Araştırmanın sonucunda tabiat tasvirinin Özbek klasik edebiyatının estetik sisteminde derin bir semantik yük taşıdığı, şairlerin özgün üslubunu, estetik zevkini ve felsefi yaklaşımını görünür kılan temel kaynaklardan biri olduğu ortaya konmuştur. Tabiat şiirleri, yalnızca dış güzelliği resmeden metinler değil; insan ruhunun devinimlerini, aşkın derinliğini, ayrılığın acısını, ilahi arayışın psikolojisini ve hayatın geçiciliğini yansıtan kapsamlı bir poetik alan olarak değerlendirilir.

Sonuç olarak peyzaj lirikası, Özbek klasik edebiyatının hem estetik hem de düşünsel yapısını bütünleyen, insan ve tabiat arasındaki ilişkiyi şiirsel bir dille yorumlayan önemli bir edebi fenomendir. Çalışma, bu geleneğin yalnızca edebi tarihteki yerini değil, aynı zamanda şairlerin iç dünyasını, toplumsal duyarlılıklarını ve ruhsal evrenlerini anlamaya yönelik zengin bir kaynak sunduğunu göstermektedir.

Kirish

O'zbek mumtoz adabiyoti inson hamda tabiat, ruhiyat va estetik tafakkur uyg'unligini badiiy tasvir vositalari orqali chuqur ifodalab bergan yuksak madaniy hodisadir. O'zbek mumtoz she'riyatida tabiat manzaralarining tasviri, ularning obrazli talqini hamda estetik vazifasi ijodkorlar dunyoqarashining muhim qismi sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, peyzaj lirikasi – ya'ni tabiatning badiiy ifodasi, uning inson psixologiyasi bilan hamohanglashtirilgan tasviri – o'zbek adabiy merosida alohida o'rinni egallaydi.

Adabiyotda peyzaj lirikasi tushunchasi bu tabiatning nafaqat tashqi manzaralarini tasvirlash bilan cheklanib qolmay, balki bu manzaralar orqali shoirning ichki - botiniy

holati, falsafiy fikrlari va hayotiy qarashlarini ifodala etuvchi badiiy sistema sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek mumtoz adabiyotida peyzaj tasviri obrazlari– bog', tog', gul, bulbul, shamol, yomg'ir, bahor, kuz, tun, subh, shom kabi tabiiy detallar – insonning qalb kechinmalari, muhabbat, hijron, vafodorlik, ilohiy iztirob hamda ruhiy uyg'onishning ramziga aylanganini ko'rish mumkin. Shu nuqtai nazardan, peyzaj tasviri mumtoz she'riyatda badiiy fikrning o'ziga xos poetik asosini tashkil etadi.

Peyzaj lirikasi masalasi adabiyotshunoslikda ko'p jihatdan tadqiq etilgan masalalardan biri bo'lsa-da, aynan uning o'zbek mumtoz adabiyotidagi badiiy-falsafiy vazifalari, poetik ifoda vositalari hamda ramziy tizimi haligacha to'liq o'rganilib, tadqiq etilgan emas. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Muhammad Rizo Ogahiy kabi mumtoz adabiyot vakillarining asarlarida tabiat tasviri orqali ruhiy o'ziga xos jarayonlarning ifodalanishi, estetik makon hamda zamonning yaratilish tizimi masalalari yanada chuqur tahlil etishni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, biz olib borgan tadqiqotda o'zbek mumtoz adabiyotida tabiat tasviri tushunchasining mazmun-mohiyati, uning poetik xususiyatlari va badiiy-estetik ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilishga harakat qildik. Tadqiqotda ijodkorlarning tabiat unsurlaridan foydalanishdagi o'zigagina xos bo'lgan uslubi, ramzlar tizimi hamda obrazlar dunyosida tabiatning tutgan o'rnini aniqlashga hamda peyzaj lirikasi o'zbek mumtoz she'riyatining o'ziga xos qimmatini oshiruvchi muhim badiiy hodisa ekanligi ochib berishga harakat qilindi.

Asosiy qism

Mumtoz adabiyotda tabiat manzaralarining tasviri ikki xil ma'no-mazmun kasb etadi. Birinchidan, tabiat unsurlari tasviri go'zal badiiy san'atlar yaratish va poetik jozibani oshirish vazifasini bajargan. Ikkinchidan, tabiat tasvirlari chuqur ramziy ma'noga ega bo'lib, falsafiy, ma'naviy va hissiy mavzular bilan chambarchas bog'liq. Mumtoz adabiyotda peyzaj shunchaki manzara emas, balki inson kechinmalarini, ayniqsa ishq, ilohiylik va inson ruhiyatini ifodalashda faol detal hisoblanadi. Klassik ijodkorlar murakkab tasvirlar orqali tabiat vositasida borliq, go'zallik va ilohiylik haqidagi badiiy-estetik g'oyalarini poetik ifoda etdilar.

Mumtoz shoirlarning g'azaliyoti asosan mavzu ko'lamiga qarab oshiqona, orifona (ya'ni, diniy-tasavvufiy) hamda peyzaj xarakteridagi g'azallarga bo'lingan. Tabiat manzaralari tasvirlangan g'azallarda ortiqcha simvollar va ishoralarsiz makon va zamon

manzarasi badiiy talqin etilgan. Bu kabi tematikaga mansub g'azallarda fasllar (bahor, kuz, qish, yoz), nabotot va hayvonot olami, tarixiy landshaftlar tasvirlangan bo'lib, ohorli tashbehlar, husni ta'lil, tashxis kabi she'riy san'atlar vositasida ifoda qilingan. Xorazmiy, Haydar Xorazmiy, Sakkokiy, Atoiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Huvaydo, Uvaysiy, Munis, Nodirabegim, Amiriy, Ogahiy, Komil Xorazmiy va boshqa mumtoz ijodkorlarning ijodiyotida tabiat unsurlari obraz yaratish va poetik ifoda qilishda faol ishtirokchi sifatida qatnashgan.

Tabiat manzaralari tasviri Atoiy, Navoiy, Bobur va Ogahiy ijodida nisbatan ko'proq uchraydi. Atoiyning aksariyat g'azallari boshdin oyoq tabiat tasviriga bag'ishlangan. "Atoiy ma'shuq jamolini, husnu fazilatini ta'riflar ekan tabiiy hodisa va jarayonlarni kuzatib, ohorli tashbehlar qo'llaydi, nozik muqoyasalar topishga muvaffaq bo'ladi", deb yozadi Sayfuddin Sayfulloh.

*Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizordi gul uyottin anjumanda.*

Ushbu mashhur g'azalning matla'si peyzaj tasviridan tashbeh yaratishda mahorat bilan foydalanishning eng klassik namunalaridan biri deyish mumkin. Lirik qahramon yorning jamolini chaman ichida gullarga vasf qilgan (maqtagan) edi, bu go'zallik ta'rifidan hatto chamandagi gullar ham uyalib, qizarib ketdilar. Shuningdek, ushbu g'azal maqta'sida shoir yorning qomatini "ozod sarv daraxti"ga mengzaydi.

*Bir lahza ol niqob yuzungdin quyosh bikin,
Jam' ayla anjumanda gulu lolazoru iyd.*

"Kel, ey sanam, ki bo'ldi yana navbahoru iyd", deya boshlanuvchi yana bir g'azaldagi ushbu baytda yorning yuzidagi niqobini olishi uning orazidagi yog'du, go'zallikning ko'rinishi quyosh chiqib, yer yuzi yorishib ketishiga o'xshatiladi. Oftobning chiqishi yangi kun boshlanishidan darak beradi, shu ma'noda, baytning ikkinchi misrasida harakatga, gullarni anjumanga jam qilishga ishora qilingan. Ushbu baytda tabiat tasviri badiiy san'at hosil qilishdan tashqari oshiqning ma'shuqiga intizorligi va ilhaqligini ifodalagan.

*Ey xijil gul orazingdin bo'stonu bog'lar,
Lola ruxsoring firoqi qo'ydi jong'a dog'lar.
Oy yuzing shavqinda tunlar to sahargoh o'lturub,
Yondurub ko'z mash'alini, yoshtin quyarmen yog'lar.*

Mazkur g'azalda "bog'" peyzajidan foydalanilgan bo'lib, bog'dagi jamiki manzara yorning orazi bilan muqoyasa qilinadi. Yorning gul yuzidan bo'stonu bog'lar xijil bo'lgani, lola ruxsori jonni dog'lab, oshiqni azobga giriftor etishi tasvirlanadi. Oshiq yorning yuzini oyga mengzab, uni ko'rish ishtiyoqida sahargacha uxlamay, oyni poylab turishini bayon etadi. Tabiat unsurlaridan izhor va yor tavsifida poetik detal sifatida foydalanish ushbu g'azalda yaqqol ko'ringan. Atoyi ijodida tabiiy peyzajlardan unumli foydalanilgan. G'azallaridan birida "Adan daryosida g'avvosning suvga sho'ng'ishi" tasvirlanadi, bu manzara yorning tishlari duru injuga qiyoslangani bilan dalillanadi. G'avvos yorning dur tishlarini topmoq, daryo tubidagi duru marjonlar orasida izlamoq niyatida o'zini suvga otdi.

Mumtoz she'riyatda peyzajlarning turli shakllarini ko'rishimiz mumkin. Xususan, tabiiy peyzajlar, xayoliy peyzajlar, mavsumiy peyzajlar, psixologik peyzajlar turli shakllar va ko'rinishlarda uchraydi. Eng ko'p uchraydigan peyzajlardan biri "Bog'" peyzajidir. Mumtoz shoirlar oshiqona g'azallarda, ayniqsa, Oshiqning ruhiy kechinmalari va holatini tasvirlashda bog' tasviri bilan baqamti holda badiiy ifoda etganlar. Xususan, Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida to'rt faslga uyg'un holda to'rt saroy va ularning atrofida o'sha fasllarga xos bo'lgan to'rt bog' qurilgani bayon qilinadi. Mumtoz she'riyatda bog' tushunchasi asl ma'nosi bilan cheklanib qolmagan. U jannat, dunyo, yorug'lik va soya, yorning go'zal qiyofasi, oshiqning azob-uqubatlarini tasvirlaydigan bemisl qudrat va ramziy qiymatga ega. Navoiyning quyidagi baytida bog' nafaqat tabiat manzarasini, balki insonning umidlari va hayotning o'tkinchiligini aks ettiradi:

Dahr bog'i gullari husnin vafosiz erkanin,

Yuzi gul, jismi suman, ko'yi gulistonimg'a ayt.

(*"Navodir ush-shabob"*, 85-g'azal)

Bu o'rinda Navoiy dunyo halovatsizligini, uning jilvalanib turgan yorug'ligi, go'zal husni aslida o'tkinchi ekanini ta'kidlaydi. Bog' nafaqat tabiatning bir unsuri, balki inson qalbidagi tushunchalar, tuyg'ular va hayotning ma'naviy mazmunini ramziy tarzda aks ettiruvchi timsol sifatida namoyon bo'ladi. Mumtoz she'riyatda bog' manzaralari tasviri realizm va ramziylikning o'ziga xos uyg'unligini ko'rsatadi. Bog' tabiatning go'zal manzarasi bilan birgalikda inson hayotining ma'nosini izohlashda muhim vosita sifatida chek-chegarasiz mazmun kasb etib, ham tabiat, ham inson qalbini ifodalash ma'nosida qo'llaniladi.

“Dasht”, “biyobon”, “cho‘l”, “sahro”, “bodiya” peyzajlari ham insonning hayot yo‘li, bu yo‘lda uchraydigan sinov va to‘siqlar, mashaqqat va ranj timsoli sifatida tasvirlangan.

Mumtoz adabiyotda mavsumiy peyzajlar ham muhim o‘rin tutadi. Alisher Navoiyning forsiy tilda yozilgan betakror qasidalar turkumi bo‘lmish “Fusuli arbaa” (“To‘rt fasl”) asari peyzaj lirikasining eng yuksak namunalaridan biridir. Ushbu asar “Devoni Foni” tarkibidan o‘rin olgan bo‘lib, yilning to‘rt fasliga bag‘ishlangan qasidalaridan iborat. Qasidalar har bir faslga mos tarzda “Saraton” (Yoz), “Xazon” (Kuz), “Bahor” (Bahor), va “Day” (Qish) deb nomlangan. Sharq mumtoz qasidanavisligida tabiat tasviri asosan bahorga bag‘ishlangan qasidalarda aks etadi va ular “bahoriya” deb atalgan. Navoiy esa bu an‘anani kengaytirib, har bir faslga alohida qasida bag‘ishlagan, bu esa uning ijodiy yangicha yondashuvini ko‘rsatadi. Navoiy qasidalarining har biri mustaqil asar sifatida ajralib tursa-da, ularning umumiy mazmun va uslub birligi butun asarni yaxlit epik qiyofaga soladi. “Foni” taxallusining to‘rtinchi qasidada uchrashi ham bu yaxlitlikni yanada mustahkamlaydi va ramziy xotima vazifasini bajaradi.

Ushbu qasidalar nafaqat yil fasllarining go‘zal manzaralarini yuksak badiiy mahorat bilan aks ettiradi, balki zamona sultoni Husayn Boyqaroning adolati, mardonaligi va oliyjanob fazilatlarini ham tamsil etishga xizmat qiladi. Navoiy har bir faslning o‘ziga xos tabiati va kayfiyatini Husayn Boyqaroning shaxsiy fazilatlari bilan uyg‘un holda tasvirlab, ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniq va ravshan ko‘rsatib beradi. Qasidalarda realistlik va yorqin detallar, fasllarga mos keluvchi jozibali ranglar, va yuksak emotsionallik bilan to‘qilgan mubolag‘alar o‘zaro uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, har bir faslning mazmuniga mos ritmik ohang va vazn tanlangan bo‘lib, bu Navoiyning g‘oyaviy va estetik maqsadiga yetishishda muhim ahamiyat kasb etgan. “Fusuli arbaa” nafaqat Alisher Navoiyning buyuk badiiy iste’dodi va ijodiy falsafasini namoyon etuvchi asar, balki tabiat va inson o‘rtasidagi nozik va murakkab munosabatni o‘quvchiga falsafiy va estetik tarzda tushuntiruvchi benazir asardir.

Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonining 17-maqolatida hayotni munosib yashash zaruriyati xususida fikr yuritarkan, tabiatning go‘zal manzaralarini qismat jafolari qarshisida nochor qolgan inson taqdiriga bog‘laydi. Navoiy ijodida inson umrini tabiat fasllari va undagi o‘zgarishlarga tenglashtirish, ularni bir-biriga o‘xshatish kabi chuqur ramziylik ko‘p uchraydi. Shoir inson umrini yoshlikdan to keksalikkacha – o‘n yoshdan to yuz yoshgacha bo‘lgan davrlarni bosqichma-bosqich tasvirlab, hayotning mohiyati va unga

nisbatan munosabatni tushuntirib beradi. Inson yoshi bilan hayotdagi zafarlar va yutqiziqlar o'rtasidagi bog'liqlik yorqin aks ettiriladi. Navoiy inson umrining asl mazmunini, negiz mohiyatini faqat ma'naviy tozalanish va Allohga taqvo qilishda ko'radi. Insonning yashashdan maqsadi nafaqat hayotdan zavq olish, balki uni ezgu amallar va bandalik itoati, ibodat va duolar bilan bezash ekanligi ta'kidlanadi.

Bobur tabiat bilan inson ruhiyati va tuyg'ularining o'zaro bog'liqligini yoritadi, tabiatdan lirik qahramon, ya'ni oshiqning muhabbati dramatzimini kuchaytirish uchun foydalanadi. G'azallarda tabiatga qarash nafaqat estetik jihatdan, balki ma'naviy tarbiya vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Tabiat inson hayotidagi o'tkinchi go'zalliklar va ularning qadrini tushunishga undaydi.

*Gul yuzung erur lola, vale, lolai xudro'y,
Tor og'zing erur g'uncha, vale, g'unchai xandon.*

Ushbu baytda yorning uyatdan qizarib turgan orazi lolaga, tor og'zi esa hali ochilmagan mitti g'unchaga o'xshatilgan.

*Bahoru bog' sayrin ne qilaykim, dilsitonimning
Sayri bo'lsa — bog', bahor birla xushmanzurdir.*

Baytda bahorning hayratomuz go'zalligi oshiqning ishqiy kechinmalari bilan bog'langan. Bobur "bahor" peyzajiga ko'p bor murojaat qilgan. Ko'klam fasli inson yoshligining timsoli sifatida namoyon bo'lib, bahor manzarasi yorning chiroyini aks ettirish bilan birga estetik zavq ulashish manbai hamdir.

*Sel emasdur yer yuzin tutqon — ko'zumning yoshidur,
Ra'd emasdur ko'kka chirmashqon — ko'ngul afg'onidur.*

Bu baytda ko'z yoshlari va oshiq qalbidagi iltiroblar tabiat manzaralari bilan uyg'unlashtirilgan. Sel – lirik qahramonning ko'z yoshlari, ra'd esa uning qalbidagi tahlika va nolalarga ishora qiladi. Bu bayt inson ruhiyati va tabiatning o'zaro bog'lanishini ko'rsatadi.

*Sarv qadde, gul yuzing, lola ruhing har taraf,
Lola qon bo'lg'ayki, hajringda tursa xumor.*

Sarv qaddi yorning oliyjanob ko'rinishiga ishora qilsa, lola uning ruhiy ta'sirini ifodalaydi. Lola rangining qon bilan uyg'unligi muhabbatning shiddatli qayg'usini aks ettiradi.

*Xazon yafrog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ardim,
Ko'rub rahm aylagil, ey lola ruh, bu chehrai zardim.*

Xazon fasli inson hayotining keksalik davrini ifodalaydi. Yor hajridagi sarg'aygan yuz xazon yaprog'iga o'xshatilgan. Bobur inson umrining o'tkinchi ekanligini, dunyo foniyligini estetik jihatdan go'zal aks ettiradi. Quyosh ramzi yor yuzining yorug'ligini tasvirlab, uning ta'siri qalbda yonilgan alangaga o'xshatilgan.

Mumtoz adabiyotda tabiat unsurlarining eng muhim xususiyati bu ularning badiiy san'atlar hosil qilishdagi muayyan ishtirokidir. Badiiy san'atlar she'rning badiiylilik darajasini oshirib, lirik ifodaning yanada kuchli emotsional rang olishiga ko'maklashadi. Mumtoz adabiyotda she'riy san'atlar juda ko'p turlar bilan farqlanadi. Masalan, "Ilmi bade'" sohasining poydevorini qo'ygan Muhammad bin Umar Roduyoniy o'zining "Tarjimon ul-balog'a" asarida 124 ta she'riy san'atni sanab o'tgan bo'lsa, XV asrga kelib, Atoulllo Husayniy "Badoe' ul-sanoe'" kitobida bu ko'rsatkichni 147 ga yetkazgan. Hozirgi adabiyotshunoslar, jumladan, professor Vahob Rahmonov o'zining "She'r san'atlari" asarida 30 dan ortiq badiiy san'atlarni tahlil qilib bergan.

Ogahiy o'z ijodida "qish" fasli manzaralarini yoritishda alohida e'tibor bilan yondashgan. Qish manzarasi boshqa fasllarga nisbatan salbiy bo'yoqlar bilan tasvirlansada, shoir uning tabiiy jozibasini aks ettirishga muvaffaq bo'ladi. Bu uning tabiat hodisalarini his qilish va ularni she'riy ijod orqali aniq, obrazli aks ettirishdagi yuksak iste'dodidan darakdir. Ogahiyning she'rlari nafaqat fasllarning tashqi ko'rinishini, balki tabiat va inson orasidagi murakkab bog'liqlikni aks ettirishda falsafiy-estetik jihatdan katta ahamiyatga ega.

Xulosa

Sharq tasavvufiy she'riyatida tabiat ruhiy takomilga yetish darajalari tadqiqi va insonning ilohiylik bilan aloqasi uchun chuqur vosita bo'lib xizmat qiladi. Tabiatning to'rt unsuri – yer, suv, havo va olov tasavvufiy va metafizik tushunchalarni aks ettiruvchi ramziy ma'nolar bilan sug'orilgan. Yer ko'pincha barqarorlik, sabr-toqat va borliqning g'amxo'rlik fazilatini anglatadi, ruhning jismoniy olamga asoslanishini ifodalaydi. Suv o'zining oquvchanlik va transformatsion xususiyatlari bilan ma'naviy yetuklikning tadriji, qalbning poklanishi, yangilanishi hamda dunyoning o'tkinchiligini anglatadi. Bu fano olamidagi eng muhim mujda bo'lib, inson suv orqali o'zi yashayotgan dunyo foniyligini his qiladi, haqiqiy hayot baqo olami ruh tanani tark etganidan so'ng boshlanishini tushunadi. Klassik ijodkorlar suv peyzajidan insonga ogohlik qo'ng'irog'i sifatida foydalanadilar. Tasavvufiy she'riyatda daryolar ko'pincha ilohiy ummon bilan birlikka

intilib, ruhning majoziy sayohati bilan bog'lanadi. Havo yoki shamol ilohiy qudratning, ya'ni Yaratgan Zotning ko'rinmas, ammo iqrar bo'lingan, imon keltirilgan mavjudligini ifodalaydi. Olov unsuri esa o'zining shiddatkor va vahimaliligi bilan ehtiros, ma'rifat, nafsning yondirilishi, nafs bilan kurashning mohiyatini ochib berishda ramziy ma'no kasb etadi.

Shuningdek, tabiatning yorqin manzaralari tasvirlaridan borliqning abadiy savollariga javob izlash uchun oyina sifatida foydalanishadi. Tabiat olami o'zining sir-sinoati va o'zgaruvchanligi bilan goh go'zallik qurshovida, goh iztirob og'ushida, goh ruhiy uyg'onish istagida to'lg'onayotgan qalb yuksalishining ramziga aylanadi. Mumtoz she'riyatda tabiat tasvirlarini berish orqali kitobxonni hayotning o'tkinchi tabiati va abadiyat haqida mushohada yuritishga undaydilar.

Adabiyotlar

1. Атойи. Девони Шайхзода – Т.: Фан нашриёти, 2008. – Б.16.
2. Roduyoni, M.U. "Tarjumon-ul-balagha". Correction and intension by Ahmad Otash/M.U. Roduyoni. – Tehran, 1362. – С.324
3. Хусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ. Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б.400
4. Jumanova, S. (2025). Tabiat Unsurlarining Alisher Navoiy Lirikasidagi Falsafiy Va Estetik Talqini. Hamkor konferensiyalar, 1(11), 101-105.
5. Ikromjonovna, J. S. (2023). Peyzajning ijtimoiy-psixologik motivni anglatishdagi o'rni. Qo 'qon universiteti xabarnomasi, 1, 97-99.
6. Abdug'afurov, A. (2001). Mumtoz adabiyot poetikasi. Fan nashriyoti.
7. Karimov, N. (1994). O'zbek adabiyotida tabiat va inson. Yangi asr avlodi.
8. Nuriddinova, S. (2018). Mumtoz g'azalda tabiat va muhabbat ramzlari. Adabiyot uchqunlari, 3, 15-19.

“DIYDOR” TEATR STUDIYASIGA NOM BERGAN “DIYDOR” SPEKTAKLI

“DÎDAR” TÎYATRO STÜDYOSUNA ADINI VEREN “DÎDAR” OYUNU

The Play "Diydor" That Gave The Name To The "Diydor" Theatre Studio

Shaxnoza RAJABOVA*

Annotatsiya

Ushbu maqolada “Diydor” teatr studiyasiga “Diydor” nomi berilishiga asos bo’lgan “Diydor” spektaklining asosiy g’oyasi, qahramonlar характери, asarning kompozitsion qurilmasi va ishbu spektaklning teatr studiya faoliyatidagi tutgan o’rni haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: “Diydor”, spektakl, teatr studiya, aktyor, rejissyor, g’oya, pyesa, yangi shakl

Abstract

This article discusses the main idea of the play “Diydor”, the characteristics of the characters, the compositional structure of the work, and the role this play plays in the activities of the “Diydor” theater studio, which is the reason for naming the studio “Diydor”.

Keywords: “Diydor”, a play, theater studio, actor, director, idea, script, new form

Özet

Bu makalede “Dîdar” oyununun ana fikri, karakterlerin özellikleri, eserin kompozisyon yapısı ve bu oyunun “Dîdar” tiyatro stüdyosunun faaliyetlerinde oynadığı rol ele alınmakta olup, stüdyoya “Dîdar” adı verilmesinin nedeni de budur.

Anahtar Kelimeler: “Dîdar”, a play, theater studio, actor, director, idea, script, new form

Genişletilmiş Özet

Bu makale, Özbek tiyatro sanatında önemli bir dönüm noktası olarak kabul edilen “Dîdar” oyununun temel fikir ve yapısını, karakter çözümlemelerini, kompozisyon

* O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti tayanch doktoranti
Doktora Öğrencisi, Özbekistan Devlet Sanat ve Kültür Enstitüsü, rajabovashaxnoza47@gmail.com

biçimini ve bu oyunun “Dîdar” Gençlik Deneyisel Tiyatro Stüdyosu’nun kuruluş ve sanatsal yönelimindeki belirleyici rolünü incelemektedir. Eser, 1989 yılında yönetmenler Ergash Masofayev ve Bahodir Yo’ldoshev tarafından sahneye konmuş, metni ise dramaturg Şuhrat (G’ulom Aminjonovich Alimov) tarafından yazılmıştır.

Makale, oyunun sahnelendiği dönemi — Sovyetler Birliği’nin çözülme sürecine denk gelen, toplumsal yenilenme ve özgür düşüncenin yükseldiği 1980’lerin sonlarını — sosyo-kültürel bağlamda ele almaktadır. Bu dönemde Özbekistan’da genç kuşak tiyatrocular arasında deneyisel sahne arayışlarının yoğunlaştığı, klasik biçimlerden uzak, psikolojik derinliğe sahip tiyatro estetiğinin ön plana çıktığı vurgulanmaktadır. İşte bu süreçte “Dîdar” oyunu, hem sanatsal bir yenilik hem de “Dîdar” tiyatro stüdyosunun ideolojik ve estetik manifestosu olmuştur.

Eserin temel eksenini, genç bir birey olan Rustam’ın içsel özgürlük arayışı üzerine kurulumdur. Rustam, ailesinin geleneksel değerleri ile kendi bağımsız kimlik ve düşünce arayışı arasında çatışmaktadır. Babası İskandar aka geleneksel otoriteyi, annesi Saodat opa ise arada kalmış duygusal dengeyi temsil eder. Bobojon bilgelik ve hoşgörüsüyle Rustam’a manevi destek olurken, Laylo karakteri özgür sevgi ve bireysel cesaretin sembolüdür. Qoraxon ise toplumun muhafazakâr sesi olarak “O insanlar ne der?” korkusunu temsil eder. Bu karakterler aracılığıyla yazar, kuşaklar arası çatışma, bireysel özgürlük, toplumsal baskı ve kimlik arayışı gibi evrensel temaları derin bir psikolojik yaklaşımla işler.

“Dîdar” oyunu, Özbek tiyatrosunda eksperimental (deneyisel) sahne anlayışının önemli örneklerinden biri olmuştur. Sade dekor, ışık oyunları ve sembolik hareketlerle zenginleştirilen sahneleme, dönemin tiyatro anlayışına yenilik kazandırmıştır. Oyun, yalnızca bireyin özgürlük arayışını değil, aynı zamanda toplumun değişim sancılarını da sahneye taşımış; “gençliğin ruhsal isyanı”nı bir başkaldırı değil, kişisel olgunlaşma süreci olarak yorumlamıştır.

Yazarın dramaturjik yaklaşımı, özgürlüğü salt dışsal bir kavramdan ziyade insanın kendi benliğini tanıma ve sorumluluk alma cesareti olarak ele almaktadır. “Dîdar” sözcüğü (karşılaşma, yüzleşme), hem kahramanın kendisiyle hem de toplumla yüzleşmesini simgeler. Bu yönüyle oyun, tiyatro sanatında hem psikolojik hem felsefi bir derinlik kazanır.

Eser, 1989–1990 yılları arasında 10–15 kez sahnelenmiş, Taşkent, Semerkand ve Fergana gibi şehirlerde turnelere çıkmış, dönemin genç izleyicileri arasında büyük yankı uyandırmıştır. Tiyatro eleştirmenleri tarafından “özbenlik arayışının dramı” olarak

nitelendirilmiştir. Oyunun başarısı, stüdyonun sonraki yapımları (“Tanho ovoz”, “Bahor suhbatı”) için de estetik bir yön belirlemiştir.

Sonuç olarak, “Dîdar” oyunu, yalnızca bir tiyatro eseri değil, aynı zamanda gençliğin kendini bulma ve özgürleşme arayışının sahne manifestosu olarak kabul edilir. Oyun, “Dîdar” tiyatro stüdyosunun adını ve sanatsal kimliğini belirlemiş; sahne minimalizmi, içsel psikoloji ve gençlik idealleri üzerine kurulu modern bir Özbek tiyatrosu anlayışının temellerini atmıştır. Rustam’ın içsel çatışması ve özgürlük arayışı, bugün dahi genç kuşaklara yöneltilen aynı soruları gündeme getirmektedir: “Ne zaman kendimiz olma cesaretini göstereceğiz? Kimin için yaşayacağız?”

“Dîdar” oyunu, bu soruların sahnedeki yankısı olarak hâlâ güncelliğini koruyan bir sanatsal ve düşünsel miras niteliğindedir.

Kirish

Teatr san’ati jamiyat hayotida muhim tarbiyaviy, ma’rifiy va madaniy ahamiyatga ega san’at turidir. U inson qalbini shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini singdirish, estetik didni rivojlantirishda beqiyos o‘rin egallaydi. Teatr tomoshabinga nafaqat zavq va ruhiy oziq beradi, balki ijtimoiy muammolarni sahna orqali yoritib, fikr va tuyg‘ularini uyg‘otadi. Har bir spektakl orqali jamiyatdagi turli masalalar, inson munosabatlari, adolat va ezgulik g‘oyalari yuksak badiiy ifodada taqdim etiladi. Shu bois teatr azaldan “hayot maktabi” sifatida qadrlanib keladi. Bugungi kunda ham teatr san’ati zamonaviy shakl va uslublar bilan boyib, madaniyat taraqqiyoti va jamiyatning ma’naviy yuksalishida faol ishtirok etmoqda.

Ana shunday o‘ziga xos uslubga ega bo‘lgan teatrlardan biri “Diydor” yoshlar eksperimental teatr studiyasi dastavval “Parvoz” nomi ostida bolalar teatr studiyasi sifatida faoliyati boshlagan teatr studiya keyinchalik “Diydor” nomli spektakl namoyishidan so‘ng “Diydor” studiyasi nomini oladi.

Asosiy qism

Bu spektakl 1989-yilda, rejissyor Ergash Masofayev hamda Bahodir Yo‘ldoshev hamkorligida sahnalashtirilgan bo‘lib, pyesa muallifi dramaturg Shuxrat hisoblanadi.

Dramaturgning bu pyesasi aynan teatr sahnasi uchun mo‘ljallab yozilgan bo‘lib, kitob shaklida yoki boshqa biror adabiyotlarda chop etilmagan.

1989-yil, mustaqillik arafasidagi jamiyatda yangilanish, erkin fikrlash va avlodlar qarashlari o‘rtasidagi keskin tafovut tobora kuchayib borayotgan davr edi. Aynan shu sharoitda dramaturg Shuhrat tomonidan yozilgan “Diydor” pyesasi Diydor teatr studiyasining eng yorqin sahna tajribalaridan biriga aylandi.

Spektakl jamiyat bosimi va insonning o‘zligini anglash masalalarini markazga chiqarib, o‘sha davr teatr san’atida eksperimental yo‘nalishning qadrini oshirdi.

Asar “yoshlar ruhiy isyoni”ni oddiy qo‘zg‘olon sifatida emas, balki shaxsiy o‘sish va yetuklik jarayoni sifatida tasvirlaydi.

Ushbu “Diydor” spektaklining Diydor teatrining tashkil topishida alohida o‘rniga ega desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki, 1980-yillarning oxirlarida O‘zbekistonda eksperimental teatr harakatlari kuchaygan davr boshlandi. Yosh sahna ijodkorlari, talaba rejissyorlar va aktyorlar o‘zlari uchun yangi badiiy platforma izlay boshladilar. Ana shu muhitda Diydor yoshlar eksperimental teatr studiyasi tashkil etildi. “Diydor” spektakli ushbu studiyaning ilk repertuar asari sifatida katta ahamiyatga ega bo‘ldi va teatrning ijodiy yo‘nalishini belgilab berdi.

Spektaklning asosiy roli shundan iborat:

- teatrning shakllanishiga konseptual asos bo‘ldi,
- soddaligi va ramziy mazmuni bilan studiya ko‘proq psixologik, ichki dunyo tahliliga yo‘naltirilgan sahna uslubini tanladi,
- dekor, harakat va yorug‘lik bilan ifoda qilish usullarini shakllantirdi,
- yosh tomoshabinni teatrga jalb qildi.
- premyeradan keyin spektakl Toshkentdagi madaniy muhitda keng muhokama qilindi,
- Shuhratning zamonaviy ruhdagi drammatizmi yoshlar orasida rezonans tug‘dirdi,
- teatr jamoasining shakllanishida birlashtiruvchi loyiha bo‘ldi,
- “Diydor” pyesasi tayyorlanayotganda aktyorlar va rejissyorlar orasida ijodiy jamoa shakllandi,
- rejissyor sifatida sahna tili va dramaturgik tahlilga urg‘u berishni boshladi,
- eksperimental uslubning dastlabki sinovi bo‘ldi.
- minimalistik dekor va yorug‘lik o‘yinini asosiy ifoda vositasi sifatida qo‘llash aynan shu spektaklda muvaffaqiyatli sinaldi.

Yuqorida sanab o‘tilgan omillar teatr studiyaning keyingi repertuar asarlar (“Tanho ovoz”, “Bahor suhbat”) ham shu yo‘nalishni davom ettirishiga turtki bo‘ldi. Shu sababli, “Diydor” spektakli Diydor teatrining asos soluvchi, yo‘nalish belgilovchi va jamoani shakllantirgan asari sifatida muhim tarixiy rol o‘ynadi. Diydor spektakli nafaqat individual qahramonlarning erkinlik kurashini aks ettirdi, balki butun teatrning ideologiyasini shakllantirdi: sahnaviy minimalizm, ichki psixologik tahlil, yoshlar orzusi va izlanishlarini yorqin namoyon qila oldi.

Bugun ushbu spektakl Diydor teatrining shakllanishidagi poydevor sifatida e‘tirof etiladi.

Keling endi spektaklning asosiy mazmuni va g‘oyasi haqida to‘xtalsak. Spektaklning markazida Rustam ismli yigitning ichki kurashi turadi. U oila an‘analaridan chiqib, erkin fikr va o‘z yo‘lini topishga intiladi. Otasi Iskandar aka uni konservativ qadriyatlar asosida tarbiyalamoqchi, onasi Saodat opa esa ikki o‘t orasida qoladi. Rustamning qarshisida avlodlar ziddiyati, jamiyatning doimiy bosimi va o‘zini yo‘qotish xavfi turadi.

Asarning asosiy g‘oyalari:

- shaxsiy erkinlikning qadrini anglash
- “Odamlar nima deydi?” degan qo‘rquvning kuchsizlantiruvchi ta’siri
- mehr va tushunishning inson shakllanishidagi roli
- avlodlar va qarashlar o‘rtasidagi kurashning tabiiyligi

Spektaklning asosiy g‘oyasi: “Diydor” – avvalo insonning o‘zi bo‘lishga bo‘lgan intilishi, erkin fikr va oila, jamiyat qarashlari bilan to‘qnashuvi haqida asar.

Asarda shu bilan birga shaxsiy erkinlik – har bir insonning eng tabiiy huquqi, lekin unga yetishish doim oson emasligini, jamiyat va oila – insonning tanlovini chegaralaydi va unga ta’sir qilishi ko‘rsatilgan. Bundan tashqari avlodlar orasidagi ziddiyat – eski va yangi dunyoqarash to‘qnashuvi hamda o‘zligingni topish jasorati – ko‘pchilikka qarshi turib, ichki ovozni eshitish kabi tushunchalar haqida so‘z boradi. Rustam – ana shu g‘oyaning ramziy qahramoni bo‘lib, uning ruhiy kurashi orqali tomoshabin asosiy savolga duch keladi: “O‘zing bo‘lish va orzularing ortidan borish uchun qanchalik jasur bo‘lish kerak?”

Rustam – asosiy qahramon bo‘lib, shaxsiyati ichki kurashga to‘la, Rustam o‘z orzulari bilan oila an‘anasi o‘rtasida bo‘linadi. Hissiyotga beriluvchan, ammo qat’iyatli. O‘zini anglashga intiluvchi – “Men kimman?” degan savol uni tinch qo‘ymaydi. Rustamning asosiy ruhiy holati – ikki qarama-qarshi kuch o‘rtasida bo‘linish: birinchisi -

oila va ota-onaga bo‘lgan muhabbat – u ularni xafa qilishdan qo‘rqadi, ikkinchisi o‘zlik ehtiyoji – ichki ovozi unga boshqa yo‘ldan borishni buyuradi.

Uning kuchli hissiy zo‘riqishi quyidagilardan kelib chiqadi: otasi tanqidini eshitganida o‘zini “begona” his qiladi va Bobojon mehr ko‘rsatganida qalbi yumshaydi. Sevgani Laylo bilan bo‘lishi uni erkinlikka yaqinlashtiradi.

Rustam uchun asosiy xavf – o‘zini inkor qilish, ya’ni jamiyat talabiga ko‘r-ko‘rona bo‘ysunib yashash. Shu sabab, yakunda u “o‘zim bo‘lishni tanlayman” deya jasorat ko‘rsatadi.

Iskandar aka – Ota, judayam an’anaparast, konservativ, o‘z qadriyatlariga sodiq inson. O‘ta mas’uliyatli, oilaning obro’sini saqlashni hayotiy burch deb biladi. Sevgan farzandi ustidan nazoratni yo‘qotishni ko‘tara olmaydi.

Iskandar aka ichida ham ko‘rinmaydigan jarayon bor, masalan o‘g‘li Rustamni yaxshi ko‘radi, lekin sevgisini qattiq nazorat va buyruq sifatida ifodalaydi. O‘zi ham yoshlikda orzularidan voz kechgan bo‘lishi mumkin, shuning alamini “shu yo‘ldan yur” deb o‘g‘liga yuklaydi. O‘g‘lining “boshqacha bo‘lish” istagini oila sha’niga tahdid deb tushunadi. Bu obraz orqali muallif avlodlar to‘qnashuvi va eski dunyoqarashning odamni tutib turuvchi kuchini ko‘rsatgan.

Saodat opa – Ona, mehribon va sezgir. Saodat opa orada qolgan, bir tomondan erining gapini o‘ylaydi, boshqa tomondan o‘g‘lini tushunadi.

Ruhiy og‘riqni ichiga yutadi, ko‘p hollarda jim qoladi.

Saodat opaning ichki qarama-qarshiligi: o‘g‘lini tushunishni xohlaydi, ammo oiladagi barqarorlik uchun o‘z fikrini oshkora aytishdan cho‘chiydi. Qalban o‘g‘liga hamdard, lekin uning tanlovini qo‘llab-quvvatlashga jur’ati yetmaydi. Onaning sukunati ham bu dramatik qarama-qarshilikning belgisi sifatida muhim.

Bobojon – asarda ko‘prik obrazidir. Tajribali, mehrli, dono. O‘zining ko‘p narsa ko‘rganini eslatmasdan, yuksak tushunish bilan qaraydi. U Rustamning qadamini qoralamaydi. O‘z vaqtida ko‘pchilikning gapidan charchagan va erkinlikning qadrini biladi. Rustamga aytgan so‘zlari – uning ichki kuchini ko‘taradi: “Yurakni aldab uzoqqa borolmaysan.” Bobojon mehr va donolik ramzi sifatida qahramonga ruhiy tayanch beradi.

Laylo – Rustamning sevgan qizi, erkin fikrlaydigan, orzulari bor qiz. Rustamning yaqin ruhi va ilhomlantiruvchisi. Laylo ham o‘zini jamiyat ko‘zi bilan emas, qalbi bilan ko‘rishga intiladi. O‘zini mustaqil shaxs sifatida ko‘rishni xohlaydi. Rustamni to‘g‘ridan to‘g‘ri undamaydi, balki uni anglashga undaydi. U bilan oxirgi sahnada aytgan so‘zidan

ham Rustamga dalda bo‘lgan qahramon sifatida gavdalanadi. “Birga bo‘lish uchun ham erkin bo‘lishni o‘rganishimiz kerak.” Laylo asarda qo‘rquvdan ozod sevgi va erkinlik ruhining ifodasidir.

Qoraxon – qo‘shni, jamiyatning konservativ ovozi. Tashqi tanqidchi va doimiy e‘tirozchi. U Rustamning tanlovini xatarlilik deb biladi va boshqa odamlarga ko‘rsatib “axloq saboqlarini” o‘qiydi. Unda real g‘amxo‘rlik emas, ko‘proq odamlar gapidan qo‘rquv bor. Qoraxon obrazida “Odamlar nima deydi?” degan mentalitetning zo‘riqishi aks etgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda spektaklning barcha qahramonlari ixtiyoriy “yaxshi-yomon” emas, balki har biri o‘zining ichki ziddiyati va haqiqati bilan yashaydi.

Rustamning tanlovi ham ularning muhabbati, ham qo‘rquvi, ham orzusiga javob deyish mumkin.

Dramaturgning maqsadi: muallif Shuhrat taxallusi (G‘ulom Aminjonovich Alimov) bilan ijod qilgan dramaturg tomonidan yozilgan bo‘lib, u bu asar orqali zamonaviy yoshlarning ovozini yetkazishni, avlodlar o‘rtasidagi murakkab ruhiy jarayonlarni ochib berishni, “Yoshlik isyoni”ni siyqasi chiqqan tushuncha sifatida emas, balki chin insoniy ehtiyoj sifatida ko‘rsatishni maqsad qilgan. Bu asar orqali dramaturg shaxsiy erkinlik yo‘lining hamisha murakkab va og‘riqli bo‘lishini isbotlagan.

Asosiy g‘oyaviy xulosalar: inson o‘z taqdirining muallifi bo‘lishi kerak. Jamiyat bosimi va “odamlar nima deydi?” degan qo‘rquv erkinlikning asosiy dushmani. O‘tmish qadriyatlarini butunlay inkor etish emas, balki yangi yo‘lga moslashtirish zarur. O‘zlikni anglash va tan olish – jasorat va ichki poklik talab qiladi.

Spektakl 1989–1990 yillar mobaynida taxminan 10–15 marotaba sahnaga qo‘yilgan. Spektakl premyera qilingandan so‘ng 5-6 marotaba teatr repertuari sifatida namoyish etilgan. Toshkent, Samarqand, Farg‘ona viloyatlarida 4-6 marotaba gastrol safarlarida ham namoyish etilgan. O‘z davrida yoshlar orasida katta qiziqish uyg‘otgan, teatrshunoslar uni “o‘zlikni izlash dramasi” deb atagan.

Xulosa qilib aytganda, “Diydor” spektakli o‘z davrida kamyob badiiy hodisa bo‘lib, avlodlar ziddiyati, erkinlik va mehrning murakkab tuyg‘ularini ochib bergan asar sifatida teatr tarixida alohida o‘rin egalladi. Rustamning tanlovi va monologlari hozirgi kunda ham yosh tomoshabinga tanish va og‘riqli savollarni eslatadi: Qachon o‘zing bo‘lishga jur‘at

topasan?, Kim uchun yashaysan?. “Diydor” spektakli o‘z davri uchun yangicha sahna tili va chuqur psixologik mazmuni bilan ajralib turdi. Rustamning orzu va majburiyat o‘rtasidagi kurashi o‘zlikni izlashning qimmatini ko‘rsatadi. Bugun ham bu spektakl yosh avlod uchun dolzarb savollarni qo‘yadi: qachon jasorat qilamiz va qachon o‘zimiz bo‘lamiz? - bu kabi o‘z dolzarbligi yo‘qotmagan savollar har bir davr yoshlari uchun ta’sir kuchiga egadir.

Adabiyotlar

1. Shuhrat. Asarlar to‘plami. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1982.
2. Teatr. – 1989-yil 4-soni. (O‘zbekiston Teatrlari repertuari sharhlari.)
3. Diydor yoshlar eksperimental teatr studiyasi arxiv materiali. – O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi arxivi, repertuar hujjatlari (1989–1990).
4. Nurmanova, B. Sahna tajribalaridan: Eksperimental teatrning dastlabki izlanishlari. – Toshkent: Madaniyat nashriyoti, 1992.
5. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi qo‘lyozmalar fondi, “Diydor” spektakliga oid afisha va dasturcha nusxalari.

HABIB SA'DULLA IJODIDA POETIK NIDO SAN'ATI

HABIB SADULLA'NIN ESERLERİNDE ŞİİRSEL NIDA SANATI

The Art of Poetic Exclamation in the Works of Habib Sadulla

Shohsanam ERMANBETOVA*

Annotatsiya

Ushbu maqolada shoir Habib Sa'dulla she'riyati tahlil qilinib, she'r misralari, baytlari va bandlaridagi lirik qahramonga murojaat etish, poetik nido (undalma) orqali fikrni yana ham ochib berish mahorati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: intonatsiya, nido (undalma), intonatsion bo'lak, pauza, urg'u, nutq, xarakter

Özet

Bu makalede şair Habib Sadulla'nın şiir dünyası incelenmiş, şiirin beyit, kıta ve dizelerinde lirik kahramana hitap etme becerisi değerlendirilmiştir. Ayrıca şiirsel bir nida aracılığıyla düşüncelerin nasıl aktarıldı ortaya konulmuştur.

Anahtar Kelimeler: sevinç, üzüntü, Özbekçe, kültürel önem, sözcük çeşitliliği, dilsel anlatım, kültürel alışveriş.

Abstract

This article examines the poet Habib Sadulla's poetic world, assessing his skill in addressing the lyrical hero through couplets, stanzas, and verses. It also demonstrates how he conveys thoughts through a poetic exclamation.

Keywords: intonation, exclamation, intonation fragment, pause, emphasis, speech, character

Genişletilmiş Özet

Bu makalede Özbekistan'ın çağdaş şiir sanatının önemli temsilcilerinden biri olan Habib Sadulla'nın şiir dünyası ve özellikle onun eserlerinde görülen poetik nida sanatı incelenmektedir. Çalışma, şairin beyit, kıta ve dizelerde lirik kahramana yönelttiği

* University of Business and Science Til va adabiyot ta'limi kafedrası o'qituvchisi
Özbekistan Ticaret ve Bilim Üniversitesi öğretim üyesi, shohsanamermanbetova49@gmail.com

doğrudan hitaplar aracılığıyla duygusal yoğunluğu nasıl artırdığı, düşüncelerini nasıl derinleştirdiği ve okuyucuyla nasıl etkili bir bağ kurduğu üzerine odaklanmaktadır.

Makalede öncelikle Habib Sadulla'nın şiirinde insan karakterinin iç dünyası, ruhsal çatışmalar ve duygusal derinliklerin yansıtılması bakımından sergilediği sanatsal ustalık değerlendirilmiştir. Şair, klasik Özbek şiiri geleneğini (özellikle Nevâyî etkisini) XX. yüzyılın toplumsal gerçeklikleriyle birleştirerek yeni bir poetik sentez ortaya koymuştur. Bu sentezde poetik nida, yani lirik kahramana veya bir sevgiliye doğrudan seslenme biçimi, yalnızca duygusal bir ifade aracı değil, aynı zamanda karakterin ruhsal çözümlemesini derinleştiren bir estetik unsurdur.

Çalışmada örnek olarak şairin “Maktub” adlı şiiri ayrıntılı biçimde ele alınmıştır. Şair bu şiirde, beklenmedik bir mektup motifi üzerinden insan ruhunun değişmeyen doğasını, sevgi, pişmanlık ve içsel yüzleşme gibi temalarla işlemiştir. “Maktub”da yer alan şu dizeler -

“Hayron bo'lma, saratonda yoqqan kabi qor,
Tasodifan borib qolsa senga bu maktub.”

- şiirsel nidonun en güçlü örneklerindendir. Burada sevgiliye yöneltilen “hayron bo'lma” (şaşıрма) nidası, yalnızca duygusal bir hitap değil, aynı zamanda olayın dramatik yoğunluğunu artıran bir sözsel eylemdir.

Makale, şairin bu tür nidalarda kullandığı intonasyon, durak (pauza), vurgu ve duygusal ritim unsurlarını inceleyerek, Habib Sadulla'nın dilsel ifadeyi müzikal bir etkiye dönüştürdüğünü göstermektedir. Şiirsel nidanın tekrarı, okuyucuda hem yankı hem de empati duygusu uyandırmaktadır.

“Maktub” şiirinde geçen beş ayrı nidadan her biri - “qishloqdosh mahbub”, “kechir meni”, “sohib jamol” gibi ifadeler - kahramanın duygusal dönüşümünün aşamalarını yansıtır. Bu hitaplar, hem pişmanlık hem de sevgiyle yoğrulmuş bir içsel konuşmadır. Özellikle şu dizelerde:

“Kechir meni, qarorini o'g'irlatgan qiz,
Sen oldimda buyuk tog'san Himolay qadar.”

şair, sevgiliyi Himalaya'ya benzeterek onu kutsallaştırmakta, aynı zamanda kendini alçaltarak samimi bir duygusal teslimiyet sunmaktadır.

Makale, bu nidalardeki psikolojik derinliği romantik lirizmin içsel monoloğa dönüşmesi olarak yorumlamaktadır. Habib Saadulla'nın üslubunda nida, klasik bir hitap biçiminden öte, kişinin kendi iç sesiyle diyalog kurma biçimidir. Bu yönüyle şairin

eserleri, insanın ruhsal gelişimi, pişmanlığı ve sevgiye dair sezgisel bilincini yansıtan psikolojik bir lirizme sahiptir.

Yazar, Habib Sadulla'nın "Maktub" şiiriyle birlikte "Navoiyga maktub" adlı eserinde de zamanın değişmesine rağmen aşkın ve insani duyguların değişmezliğini vurguladığını belirtmektedir.

"Zamonlar o'zgardi, yurtlar o'zgardi,
Ammo hanuzgacha ishq o'sha-o'sha."

Bu dizelerde, sevginin tarih ve toplum değişse de kalıcılığını koruduğu fikri dile getirilir.

Makale, son olarak Habib Sadulla'nın şiirsel gelişimini eleştirmen V. G. Belinskiy'nin Puşkin hakkında söylediği "şair, her eserde insan olarak da büyür" düşüncesiyle ilişkilendirir. Bu bağlamda Sadulla'nın her şiirinde hem sanatçı hem de insan olarak olgunlaştığı, "Maktub" gibi tek bir şiir üzerinden bile lirik kahramanın duygusal evrimini ustalıkla yansıttığı vurgulanır.

Sonuç olarak, Habib Sadulla'nın şiirlerinde poetik nida sanatı, hem biçimsel hem de anlamsal düzeyde şiirin kalbinde yer alan bir unsurdur. Bu sanat, duyguların doğrudan sesleştirilmesi, içsel itirafların estetik bir biçim alması ve okuyucuda derin bir duygusal yankı oluşturması bakımından Özbek şiirinde özgün bir değer taşımaktadır. Habib Sa'dulla, klasik lirizmi modern duyarlılıkla birleştirerek, şiirde nida sanatını bir iç konuşma, bir vicdan sesi hâline dönüştürmüştür. Bu yönüyle onun şiirleri, hem Özbek hem Türk dünyası şiir geleneğinde "insanî lirizm" in güçlü bir temsilidir.

Kirish

Inson xarakterining murakkab ichki olami, ma'naviy dunyosining hayot hodisalari bilan bog'liqlikdagi ko'rinishlarini yuksak aqliy salohiyat, falsafiy teranlik bilan badiiy tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Habib Sa'dulla singari qator shoirlarning izlanishlarini ustozlar tajribasidan, mumtoz she'riyat an'analaridan ajratib o'rganish mumkin emas, albatta. XX asr voqeligini, ijtimoiy hayot yangiliklarini o'z mohiyatiga singdirgan ajoyib poetik asarlar yaratish, shu jarayonda o'tmish an'anasining eng yaxshi hislatlarini o'zlari yaratgan yangilik bilan bog'lash hozirgi she'riyatimizda yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, bu yo'nalish Habib Sa'dulla ijodida ham alohida ko'zga

tashlanadi. Shoir hayot haqida nimaiki demoqchi bo'lsa, shuning hammasi pirovardida asarda tasvir etilgan qahramonning yashash sharoiti, xulq-atvori, ruhiyati, ishlari, intilishlari va o'ylarida o'z ifodasini topadi. Bunda, ayniqsa, lirik qahramonga murojaat etish, poetik nido (undalma) orqali fikrni yana ham ochib berishga erishish mumkin.

Asosiy qism

Insonshunoslikdan iborat badiiy adabiyot asarida biz odamlarning turli darajada tafsilot va chuqurlik bilan tasvirlanganining guvohi bo'lamiz.¹ Xususan, bu borada she'riyatdagi lirik qahramon bilan bog'liq xarakterning ochib berilishida poetik murojaat(nido)ning o'rni beqiyosdir. Quyida shoirning "Maktub" she'ri misolida poetik nidoning ahamiyati yanada yorqinroq namoyon bo'ladi:

*Hayron bo'lma, saratonda yoqqan kabi qor,
Tasodifan borib qolsa senga bu maktub.
Hayot meni ishq dardiga aylagach duchor,
Yuragimni yozdim senga, **hamqishloq mahbub.**²*

Habib Sa'dulla tasodifan yordan kelgan va kutilmagan maktubni, yozda qorning yog'ishiga qiyoslab, tabiat hamda inson xarakterini mohirona mutanosiblaydi. Yozda qorning yog'ishi kutilmagan hodisa ekanligi hisobga olinsa, lirik qahramonimiz bo'lmish oshiq yigit uni chindan sevuvchi mahbubiga hech qachon imkon bermagan, xat yozmagan yoki qadrlamagan. Yigitdan javob kutmagan mahbuba uchun bu maktub chindan ajablanarli va favquloddadir. Demak, inson xakteri, undagi qalb kechinmalari zamonlar o'tsa-da, o'zgarmaydi. Yuqorida tahlil qiyosi natijasida inson xakteri, undagi qalb kechinmalari zamonlar o'tsa-da, o'zgarmasligiga amin bo'ldik. Bu borada Habib Sa'dulla "Navoiyga maktub" she'rida izoh berib o'tadi:

*Zamonlar o'zgardi, yurtlar o'zgardi,
Ammo hanuzgacha ishq o'sha-o'sha.
Hamon o'sha-o'sha oshiqlar dardi,
Ham qalam ahliga muhabbat pesha.³*

Qancha zamon o'tmasin, ishq dardi, oshiq dardi o'zgarmasligini ta'kidlab, shoir uchun muhabbat mavzusi etakchi mavzu bo'lib qolaverishiga urg'u beradi.

¹ Султон Иззат. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.191.

² Ҳабиб Саъдулла. Танланган асарлар.1- жилд. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.58.

³ Ҳабиб Саъдулла. Танланган асарлар.1- жилд. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.64.

Tahlil qilayotganimiz “Maktub” she’riga Navoiyning ushbu misralari epigraf qilib olingani she’rdagi tuyg’ular tug’yoniga aynan mos kelgan va lirik qahramon dardini ochib berishga ko’maklashgan:

*Meni men istagan o‘z suhbatiga arjumand etmas,
Meni istar kishining suhbatin ko‘nglim pisand etmas.*⁴

Yigit qachonki o‘zi ham oshiq bo‘lib, ishq dardini tuygandagina o‘tmishda, olis qishloqda qolgan qiz dardini anglaydi, unga qarata: “...qishloqdosh mahbub”, – deya nido qiladi.

“Mahbub” - arabcha sevimli kishi, yor ma’nosini beradi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, bu nido orqali yigit bolaligidagi hamqishloq qizning qadriga etmagani, bu bilan uning ko‘ngliga ozor berganidan afsuslanishi va uni mahbub deya tan olinishi yuzaga chiqadi.

Har bir yangi avlod poetikasi, ijodiy izlanishlari betakror tarixiy sharoit, yangi ijtimoiy voqelik bilan xarakterlanadi. Shu ijtimoiy voqeliklarning o‘zaro farqlanishi, bir-biriga o‘xshamasligi badiiy asardagi obrazlar qurilishida, poetik obrazlarning estetik vazifasida, shoirlar ijodining bir-biridan ajralib turishida ham namoyon bo‘ladi. Endi lirik qahramon o‘sha dilbardan kechirim so‘raydi. Poetik nido bu safar yigit ma’shuqani bir so‘ziga zor qilganini yuzaga chiqaradi. Bu holat ikki poetik nido bilan yanada konkretlashadi:

*Kechir meni, qarorini o‘g‘irlatgan qiz,
Kechir meni, bir so‘zimga intizor dilbar.
Men qoshingda bosh egayin, mayli, cho‘kay tiz,
Sen oldimda buyuk tog‘san Himolay qadar.*⁵

Endi yigit ma’shuqaning ishq oldida bosh egishini va uni eng baland cho‘qqi bo‘lmish Himolayga taqqoslashini aytib, bu go‘zal qiyoslanish atrofida suxansozlik qilish, lutf ko‘rsatish niyatining mevasini yaratadi.

Keyingi misradagi poetik murojaatida kechinmalar ifodasi kulminatsion cho‘qqiga chiqadi, tanlangan epigrafga yanada moslik kashf etish bilan birga uni “sohib jamol” deya atashi o‘quvchi qalbini larzaga keltiradi. Shoir mahoratini ko‘ringki, sevgilisi chetda qolib, uni sevgan umuman boshqa lirik qahramonni, qishloqdosh qizni etuk poetik obraz darajasiga ko‘tara oladi. Boshqa tomonlama yondashib bo‘lsa-da, oshiq ichki kechinma va

⁴ Ҳабиб Саъдулла. Танланган асарлар. 1- жилд. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.58.

⁵ Ҳабиб Саъдулла. Танланган асарлар. 1- жилд. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.58.

dardlarini mohirona ochib beradi. Tuyg'ular tug'yoniga bunday echim topish shoirning etukligi, fikridonishligi mevasidir:

*Istamasdim eshitmoqni rozingni hatto,
Bugun mening rozlarimga u qilmas shafqat.
Shunda seni esga olgum, **ey sohib jamol**,
Pok sevgingni toptagandim etmay qadringga.⁶*

Mashhur munaqqid V.G. Belinskiy Pushkin she'riyati haqida gapirar ekan, uning asardan asarga nafaqat shoir sifatida, balki inson va xarakter sifatida ham davomli o'sib borganligini ta'kidlaydi.⁷ Bu fikr Habib Sa'dullaga ham taalluqlidir. Ayniqsa, "Maktub" atalmish birgina she'ri orqali lirik qahramonning bolalik tuyg'ularini ulg'aygach, keskin o'zgarganini, bir umrning tuyg'ularini mohirona ochib bera olgani shoir mahoratidandir. Xotira lirik kechinmalarni saqlab, uni otashnafas she'rga aylantirgan shoirning "Maktub" she'ri muxlislar qalbini go'zal hislarga to'ldiraradi. So'nggi satrlardagi poetik murojaatga e'tibor beraylik:

*Kechir meni, **qarorini o'g'irlatgan qiz**,
Ilk sevgim, deb sanamagil meni muqaddas.
Muhabbating qoldirgandim javobsiz esiz,
Bukun mendan ilk muhabbat olayotir qasd.⁸*

Bu nido orqali shoir ham murojaat, ham ta'rif keltiradi. Ishqi chin ma'shuqani qadrlamagani uchun o'zi ham shu holga tushganligiga amin bo'ladi. Shunday qilib "Maktub" she'rda lirik qahramon besh bor poetik nidodan foydalanadi. Bu orqali she'r mazmunining o'quvchini hayajonga sola bilish quvvati mo'jizaviy tarzda ortadi.

She'rda lirik qahamonga bo'lgan murojaati go'zal ifodasi shoirning jo'shqin va samimiy e'tirofi zamiriga singib borarkan, o'quvchi undan shoir shaxsiyatining, fikriyoti va lirik qahramon hissiyotining sirini anglashga intiladi, bu esa she'riyatning ajib sehri samarasidir.

Habib Sa'dulla she'riyatida badiiy ko'chimlarning o'rni beqiyos. Ular shoir yaratgan lirik obrazlarning xarakter qirralarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yetuk iste'dod egasi, mohir so'z san'atkori, O'zbekiston xalq shoiri Habib Sa'dulla buyuk ijodkorlarning munosib davomchisi bo'la oldi. Uning nomi el orasida mashhur

⁶ Ҳабиб Саъдулла. Танланган асарлар.1- жилд. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.59.

⁷ Белинский В.Г. Сочинения Александра Пушкина. Полн.собр.соч. Т.7. – М.: 1955. – С.271-272.

⁸ Ҳабиб Саъдулла. Танланган асарлар.1- жилд. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.59.

bo'lib, u o'zbek she'riyati, nasri va dramaturgiyasini badiiy barkamol asarlari bilan yanada boyitgan ijodkordir.

Adabiyotlar

Белинский В.Г. Сочинения Александра Пушкина. Полн.собр.соч. Т.7. – М.: 1955. – С.271-272.

Султон Иззат. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.191.

Ҳабиб Саъдулла. Танланган асарлар.1- жилд. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.59.

MARKAZIY OSIYO DAVLAT BOSHQARUVI VA DIPLOMATIK MUNOSABATLARI TARIXIDA AYOLLAR

ORTA ASYA DEVLET YÖNETİMİ VE DİPLOMATİK İLİŞKİLERİ TARİHİNDE
KADINLAR

Women in the History of Central Asian State Administration and Diplomatic Relations

Shoira ASADOVA*

Sayyora TO‘YCHIYEVA**

Annotatsiya

Mazkur maqolada ayollarning davlat boshqaruvi va diplomatik munosabatlar tarixidagi roli katta tarixiy davr mobaynida yoritilgan. Ushbu mavzu tarixiy manbalar, toponimik ma'lumotlar, numizmatik materiallar misolida asosida o'rganilgan. Maqola tarixshunoslik tahlili asosida taqdim qilingan. Xususan yunon, xitoy, arab, fors, arman va turkiy manbalardagi sharqda ayollarga bo'lgan munosabat, ularning jamiyatdagi mavqeini ko'rsatuvchi ma'lumotlar ko'rsatilgan.

Markaziy Osiyo tarixida xalqaro hujjatning ilk namunasi mil. avv. VII asr oxiri va VI asrlarga mansub saklarning Midiya bilan urushiga yakun yasagan tinchlik, elchilik hamda tashqi aloqalarga daxldor masalalar shartnomasining malika Shamuramat (Semiramida) bilan sak malikasi Zarina o'rtasidagi imzolangani, massagetlar malikasi To'marisning Ahamoniylar imperiyasining asoschisi Kirga qarshi mardonavor kurashi, Markaziy Osiyoga arablar yurishiga qarshi harakatlarga yetakchilik qilgan Fatux xotun, Qabaj xotun kabi malikalar jasorati haqida misollar keltiriladi.

Osiyo hududida 100 yildan ortiqroq davr mobaynida hukm surgan Turk hoqonligida ayollar nafaqat oilada balkim ijtimoiy siyosiy, va madaniy hayotda ham katta rol o'ynaganliklarini ularning tangalardagi ifodasi, Xotun, qatun – xoqon xotini va hukmdor ayolga nisbatan qo'llanilgan turkiy unvonga sazovor bo'lganligi ko'rsatilgan. Ayolar mavqei xususida ular nomi bilan ataladigan shahar va daryolar guvohlik berishi yoritilgan.

* Tarix fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Doç. Dr., Özbekistan Devlet Sanat ve Kültür Enstitüsü, sh.asadova61@gmail.com

** Ingliz tili o'qituvchisi, erkin tadqiqotchi Toshkent amaliy fanlar universiteti
Araştırmacı, Taşkent Uygulamalı Bilimler Üniversitesi, shaxinabaxadirova@gmail.com

Zamonaviy jarayonlarda xotin-qizlarning davlat boshqaruvi va diplomatik sohadagi o'rni tahlil qilingan. Bu sohadagi muammolar va yechimlar xususidagi mushohadalar taqdim qilingan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, yunon, xitoy, arab, fors, turkiy, To'maris, Fatux xotun, Qabaj xotun, Saroyulkxonim, diplomatiya, boshqaruv, xalqaro munosabatlar, Senat, Tanzila Narbayeva, Saida Mirziyoyeva

Abstract

This article examines the role of women in the history of statecraft and diplomatic relations across a broad historical period. This topic is examined based on historical sources, toponyms, and numismatic material. The article is presented based on historiographical analysis. Information is presented on the attitudes toward women and their position in society in the East, particularly in Greek, Chinese, Arab, Persian, Armenian, and Turkish sources.

The first example of an international document in Central Asian history is the signing of a peace, ambassadorial, and foreign relations treaty between the Saka Queen Shamuramat (Semiramis) and the Saka Queen Zarina in the late 7th and 6th centuries BC, which ended the Saka wars with the Medes. The courageous struggle of the Massagetae Queen Tomyris against the founder of the Achaemenid Empire, and the courage of queens such as Fatuh Khatun and Kabach Khatun, who led the movement against the Arab invasions in Central Asia.

In the Turkic Khanate, which ruled Asia for over 100 years, women played a significant role not only in the family but also in socio-political and cultural life. This is evident from their depictions on coins and the Turkish titles "hatun" and "katun" — the khan's wife and ruling woman. The status of women is evidenced by the cities and rivers bearing their names.

The role of women in state administration and diplomacy in modern times is analyzed, and observations are made regarding the problems and solutions in this area.

Keywords: Central Asia, Greek, Chinese, Arabic, Persian, Turkish, Tomyris, Fatuh Hatun, Kabach Hatun, Saray Mulk Hanim, diplomacy, management, international relations, Senate, Tanzila Narbayeva, Saida Mirziyoyeva

Özet

Bu makale, kadınların devlet yönetimi ve diplomatik ilişkiler tarihindeki rolünü geniş bir tarihsel dönem boyunca ele almaktadır. Bu konu, tarihsel kaynaklar, yer adları ve nümizmatik materyaller temelinde incelenmiştir. Makale, tarih yazımı analizi temelinde sunulmuştur. Özellikle Yunan, Çin, Arap, Fars, Ermeni ve Türk kaynaklarında Doğu'da kadınlara yönelik tutum ve toplumdaki konumları hakkında bilgi sunulmaktadır.

Orta Asya tarihinde uluslararası bir belgenin ilk örneği, Saka Kraliçesi Şamuramat (Semiramis) ile Saka Kraliçesi Zarina arasında, MÖ 7. ve 6. yüzyılların sonlarında Sakaların Medlerle savaşını sona erdiren barış, elçilik ve dış ilişkiler antlaşmasının imzalanması, Massaget Kraliçesi Tomris'in Ahemeniş İmparatorluğu'nun kurucusuna karşı cesur mücadelesi ve Orta Asya'daki Arap istilasına karşı harekete öncülük eden Fatuh Hatun ve Kabac Hatun gibi kraliçelerin cesaretidir.

Asya'da 100 yıldan fazla hüküm süren Türk hanlığında, kadınlar yalnızca ailede değil, aynı zamanda sosyo-politik ve kültürel yaşamda da önemli bir rol oynamıştır. Bu durum, sikkelerdeki tasvirlerinden ve Türkçe "hatun", "katun" - hanın karısı ve yönetici kadın - unvanlarından da anlaşılmaktadır. Kadınların statüsü, adlarını taşıyan şehirler ve nehirlerle kanıtlanmaktadır.

Kadınların modern süreçlerde devlet yönetimi ve diplomasideki rolü analiz edilmekte ve bu alandaki sorunlar ve çözümler hakkında gözlemler yapılmaktadır.

Anahtar Kelimeler: Orta Asya, Yunanca, Çince, Arapça, Farsça, Türkçe, Tomris, Fatuh Hatun, Kabac Hatun, Saray Mülk Hanım, diplomasi, yönetim, uluslararası ilişkiler, Senato, Tanzila Narbayeva, Saida Mirziyoyeva

Genişletilmiş Özet

Bu makale, Orta Asya tarihinde kadınların devlet yönetimi ve diplomatik ilişkilerdeki rollerini en eski çağlardan günümüze kadar uzanan geniş bir tarihsel çerçevede incelemektedir. Çalışma, tarihsel kaynaklar, toponimik veriler ve nüvizmatik materyaller üzerinden yürütülmüş olup, hem antik hem de modern dönemlerde kadınların siyasi, diplomatik ve toplumsal yaşamda üstlendikleri işlevleri ortaya koymaktadır.

Araştırmanın ilk bölümü, antik dönem kaynaklarında kadınların statüsüne dair bilgileri değerlendirmektedir. Yunan, Çin, Arap, Fars, Ermeni ve Türk kaynaklarında Doğu toplumlarında kadına duyulan saygı, toplumsal konumu ve yönetim süreçlerindeki rolleri vurgulanmıştır. Çin kaynaklarında Fergana'dan Partya'ya kadar uzanan bölgelerde kadınlara duyulan saygıdan bahsedilirken, Arap tarihçisi Taberî Türk toplumlarında erkeklerin annelerine saygı göstermek için babalarından önce eğildiklerini ve kadınların ailede olduğu kadar toplumda da etkili olduklarını kaydeder. Bu bilgiler, Orta Asya'da kadınların sadece anne veya eş değil, aynı zamanda toplumsal ve siyasi hayatta söz sahibi bireyler olduğunu göstermektedir.

Makale, Orta Asya tarihinde bilinen ilk uluslararası diplomatik belgenin Saka Kraliçesi Zarina ile Med Kraliçesi Şammuramat (Semiramis) arasında imzalanan barış ve elçilik antlaşması olduğunu belirtmektedir. Bu antlaşma, MÖ XVII-VI. yüzyıllarda Saka-

Med savařını sona erdiren ve kadınların diplomatik alandaki etkinliğini kanıtlayan bir örnek olarak değerdendirilmektedir. Aynı dönemde Massaget Kraliçesi Tomris'in Pers İmparatoru Kiros'a (Kurush) karşı yürüttüğü mücadele, kadının hem askeri hem de siyasi cesaretinin sembolü olarak sunulmaktadır.

Orta Asya'da VI–VIII. yüzyıllar arasında hüküm süren Türk Kağanlığı döneminde kadınların statüsünün yüksek olduğu, “hatun” ve “katun” unvanlarının yalnızca hükümdar eşlerine değil, kimi zaman yönetici kadınlara da verildiğı belirtilmektedir. Sikkeler üzerinde kadın figürlerinin yer alması, kadınların siyasi otoriteye ortak olduklarını kanıtlamaktadır. Kaynaklar, “baş hatun” unvanına sahip kadınların kağan sefere gittiğinde devlet işlerini yönettiğini, elçileri kabul ettiğini ve gerektiğinde tahta çıkma hakkına sahip olduğunu göstermektedir. Panjikent ve diğer bölgelerde basılan paralar üzerindeki kadın tasvirleri, bu tarihsel olgunun nümizmatik kanıtıdır.

VII. yüzyılda Arapların Orta Asya'ya yönelik seferlerinde kadın hükümdarların gösterdiği direniş de çalışmanın önemli örneklerindendir. Fatuh Hatun, Amuderya çevresinde Arap ordularına karşı savařmış; Kabac Hatun ise Buhara'yı 15 yıl boyunca yönetmiş ve başarılı bir şekilde savunmuştur. Narşahî'nin Tarihi Buxara adlı eserinde Xotun'un bilge, adil ve kararlı bir yönetici olduğu ayrıntılı biçimde anlatılır. Taberî'nin kayıtlarında da bu kadın hükümdarların Araplara karşı yürüttüğü diplomatik manevralar ve askeri stratejiler aktarılmaktadır. Bu örnekler, Orta Asya tarihinde kadınların yalnızca sembolik değil, etkin biçimde devlet yönetiminde yer aldıklarını ortaya koymaktadır.

Ayrıca, “Hatunket” (Hatun şehri) gibi yer adları, toponimik veriler aracılığıyla kadınların toplumdaki önemine tanıklık etmektedir. Aynı şekilde, Horasan, Altay ve Gendhere bölgelerinde kadın adlarını taşıyan şehir ve nehirlerin varlığı da tarihsel bir göstergedir. Budist manastırlarının yapımını üstlenen Katun unvanlı kadınların kayıtlara geçmiş olması, onların dini ve kültürel hayata da yön verdiğini göstermektedir.

İslam sonrası dönemlerde, özellikle Karahanlılar, Selçuklular, Harzemşahlar ve Timurlular devrinde kadınların “hatun” unvanıyla devlet işlerinde aktif roller üstlendiğı görülür. Saray Mülk Hanım, Timurlular döneminde imar ve eğitim faaliyetlerinde öncü bir figürdür; onun himayesinde inşa edilen medrese, dönemin kadınlarının kültürel katkılarını yansıtır. XV. yüzyıl vakfiyelerinde kadınların vakıf yöneticisi olarak yer alması, ekonomik ve idari hayattaki rollerine ışık tutmaktadır. Ayrıca Habibe Sultan Begim ve Mihr Sultan Hanım gibi isimler, eğitim kurumlarının finansmanına katkıda bulunmuşlardır. Nadire

Begim (Emir Ömer Han'ın eşi) ise hem şair kimliğiyle hem de siyasi bilgelik ve adaletiyle Orta Asya kadın liderliğinin bir başka simgesidir.

Makale, tarihsel verilerden modern döneme geçerek, günümüzde kadınların devlet yönetimi ve diplomasi alanındaki konumunu analiz etmektedir. Küresel ölçekte kadınların yalnızca %16'sının büyükelçilik görevlerinde bulunduğu, 25 ülkede kadınların devlet veya hükümet başkanı olarak görev yaptığı, 113 ülkede ise bu pozisyonların hiç kadın tarafından doldurulmadığı vurgulanmaktadır.

Buna karşın Özbekistan'da son yıllarda önemli ilerlemeler kaydedilmiştir. Cumhurbaşkanı Şavkat Mirziyoyev'in girişimleriyle kadınların karar alma mekanizmalarındaki temsili artırılmış; Tanzila Narbayeva 2019 yılında Özbekistan Senatosu'nun ilk kadın başkanı olmuş, uluslararası düzeyde cinsiyet eşitliği konularında aktif rol üstlenmiştir. Feruza Mahmudova, bağımsız Özbekistan'ın ilk kadın büyükelçisi olarak 2020 yılında atanmıştır. Yırcı Saida Mirziyoyeva'nın Cumhurbaşkanlığı İdaresi Başkanı olarak atanması, modern Özbek kadınlarının ulusal ve uluslararası siyaset sahnesindeki yükselen konumunun simgesi olarak değerlendirilmiştir.

Sonuç olarak, makale tarih boyunca Orta Asya'da kadınların siyasi, diplomatik ve kültürel yaşamda etkin aktörler olarak yer aldığını, onların devlet yönetimi ve uluslararası ilişkilerdeki rollerinin tarihsel bir süreklilik gösterdiğini ortaya koymaktadır. Antik dönemden itibaren kadınların diplomasi, yönetim, barış girişimleri ve toplumun şekillenmesinde belirleyici bir güç olduğu; modern dönemde ise bu mirasın çağdaş yönetim anlayışıyla yeniden canlandığı sonucuna ulaşılmıştır. Geçmişin bilge kraliçelerinden günümüzün diplomatik temsilcilerine uzanan bu çizgi, Orta Asya'da kadınların tarihsel ve çağdaş rollerini bir bütün olarak anlamak açısından büyük önem taşımaktadır.

Kirish

Sovet davrida tasvirlangan Sharq ayolining huquqsiz va kamsitilgan obrazidan farqli o'laroq, Markaziy Osiyo xalqlarida eng qadimgi davrlardanoq ayollarga o'ziga xos izzat-ikrom, ehtirom ko'rsatilgani, ayollarning jamiyatdagi mavqei haqidagi ma'lumotlar deyarli barcha turdagi, xususan yunon, xitoy, arab, fors, arman va turkiy manbalarda uchraydi.

Xitoy manbalarida Davan (Fargʻona)dan to Aysi (Parfiya)gacha boʻlgan hududda yashagan aholi ayollarga oʻziga xos hurmat ehtiromda boʻlganligi va ayollar oʻz erlariga nima aytishlaridan qatʼiy nazar, erkaklar doimo bajarganliklari qayd etilgan [1].

Qadimgi arman manbalaridan birida yozilishicha, kushon ayollarini erkaklar doimo hurmat qilganlar va kushoniy erlar oʻz ayollarini doimo oʻzlaridan yuqori qoʻyganlar[2]. Turkiy xalqlar xotin-qizlarga boʻlgan munosabati haqida arab muarrixi at-Tabariy shunday yozadi: “Oʻgʻil uyga kirishidan avval onasiga taʼzim qilar, soʻngra otasiga.... Xotin qizlar erlariga tobeʼ boʻlsalar ham ularga oʻz taʼsirini oʻtkazar edilar” [3]. Ushbu maʼlumotlarning aksariyati qadimgi turkiylar dunyoqarashida ayollarga alohida ehtirom koʻrsatilganligi va ayollar nafaqat oila bekasi yoki ona, balki elning teng huquqli aʼzosi sifatida eʼzozlangani, erki muhofaza qilinganidan, qolaversa ular davlat boshqaruv ishlarida ham ishtirok etganligidan dalolat beradi.

Asosiy qism

Markaziy Osiyo tarixida xalqaro hujjatning ilk namunasi saklarning Midiya bilan urushiga yakun yasagan tinchlik shartnomasi hisoblanadi. Uni taxminan mil. avv. VII asr oxiri va VI asrlarga mansub deyish mumkin. Mazkur hujjatda malika Shamuramat (Semiramida) bilan sak malikasi Zarina oʻrtasidagi elchilik hamda tashqi aloqalarga daxldor masalalar oʻz aksini topgan [4].

Mil.avv. VI asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoning ilk davlat tuzilmalari Soʻgʻdiyona, Margʻiyona, Baqtriya, Xorazm Ahamoniylar imperiyasining asoschisi Kurush (Kir - Kirus) tomonidan bosib olingan (mil.avv. 559–530). Uning massagetlar malikasi Toʻmaris bilan toʻqnashuvi tarixdan deyarli barchaga maʼlum. Ahamoniylar shohi elchilari orqali Toʻmarisdan oʻziga turmushga chiqishini soʻrab diplomatik manyovr qoʻllaydi. Biroq Toʻmaris «shoh unga emas, massagetlar hukmronligiga uylanmoqchi» ekanligini tushunib, bu hiylaning tagiga yetadi va taklifni rad qiladi. Koʻrib turganimizdek xalqaro munosabatlarda nikoh institutini maʼlum manfaatlar yoʻlida qoʻllash amaliyoti eng qadimgi davrlarga borib taqaladi.

Kurush massagetlarga qarshi harbiy harakatlar boshlaganda Toʻmaris maxsus elchi orqali unga «Ahamoniylar hukmdori urushni toʻxtatsin» – degan mazmunda ogʻzaki xabar yoʻllaydi. Lekin u Toʻmarisning maslahatiga koʻnmaydi. Kurushning qariyb 200000 kishilik lashkari hujumiga qarshi chiqqan massagetlar qabilasi boshligʻi Tomir xotun –

To‘maris boshchiligidagi jangda dushmanning bitta ham jangchisi omon qolmaydi[5]. Ular mag‘lubiyatga uchrab, shohning o‘zi ham urushda o‘ldiriladi.

Eramizning VI asri ikkinchi yarmida Osiyo hududida vujudga kelgan Turk hoqonligi 100 yildan ortiqroq davr mobaynida hukm surdi. Bu davlatda ayollar mavqei haqida fikr yuritar ekanmiz, qadimgi turkiylarda ayollar nafaqat oilada balkim ijtimoiy siyosiy, va madaniy hayotda ham katta rol o‘ynaganliklarini ta’kidlash mumkin. Turkiston malikalari “Xotun” deb atalganlar. Xotun, qatun —xoqon xotini va hukmdor ayolga nisbatan qo‘llanilgan turkiy unvon. Dastlab, bu ibora xunlar davrida (mil. av. III - mil. III asrlar) qayd etilgan. Turk xoqonligi davrida (VI - VIII asrlar) Xotun xoqondan keyin ikkinchi darajada turuvchi unvon sanalgan [6]. Bunday maqomga (titul) faqatgina oliy Turk hoqonligi va uning ba’zi viloyatlari hukmdorlarining xotinlari haqli bo‘lganlar. Bu maqom unga sazovor bo‘lgan ayolning nomiga qo‘shib aytilgan. (Ular hukmdorning birinchi yoki ikkinchi xotiniga, otasining katta xotini nomiga nisbatan qo‘llanilgan.) Katta ona (xotun) hoqon saroyi ayollar iyerarxiyasining yuqori bosqichida turib “bosh xotun” maqomiga ega bo‘lgan va davlat boshqaruvida faol ishtirok etgan. Harbiy safar chog‘ida ham Xotunlar hukmdorlar yonidan joy olganlar, shuningdek, hukmdor saroyda bo‘lmagan paytda saroyni boshqarib, elchilik hay’atlarini qabul qilganlar. Oliy hukmdor vafotidan keyin saroyda munosib taxt vorisi bo‘lmasa “Bosh xotun” taxtga o‘tirish huquqiga ega bo‘lgan. Ular davlat ishlarida faol ishtirok etganlar. Ba’zilari esa ma’lum bosqichlarda mamlakatni boshqarganlar ham.

Turkistonning turli hududlarida VI-VII asrlarda zarb etilgan mis tangalarda hukmdorning yonida ayolining tasviri tushirilganligi buni tasdiqlaydi. VII-VIII asrlarda Panjikentda zarb etilgan tangalarda ikki sug‘d ayolining tasviri tushirilgan bo‘lib, ulardan biri hukmdorning onasi, ikkinchisi esa uning xotini ekan[7]. Bunday tangalar Samarqand, Buxoro, Shosh, Panjikent, Farg‘ona, Chag‘aniyon ichki bozor ehtiyojlarini qondirish uchun zarb etilgan. Bu o‘rinda shunday bir tarixiy parallel o‘tkazish mumkinki, VI-VII asrlarda imperator va uning xotini tasviri tushirilgan tangalar Vizantiyada ham zarb etilgan[8]. Manbalarining ma’lumot berishicha 568 yilda Konstantinopolga Vizantiya imperatori Yustin II huzuriga turk hoqoni elchilari diplomatik munosabatlar o‘rnatish maqsadida boradilar. Bundan so‘ng Vizantiya imperatori ham bir necha bor buyuk turk hoqoni huzuriga o‘z elchilarini yuboradi. Bu ikki buyuk davlat o‘rtasida siyosiy madaniy, iqtisodiy munosabatlar mavjudligidan dalolat beradi. Shuni qayd qilish kerakki, er-xotinlar tasviri tushirilgan tangalar bu paytga qadar boshqa biror mamlakatda bo‘lgani ma’lum

emas. Vizantiyada bo'lgani kabi Turkistonda hukmdorlar xotinlari jamiyat hayotida yuqori mavqega ega bo'lgani, davlat boshqaruvida faol ishtirok etganligini kuzatish mumkin.

Turk hoqonligi davrida turkiylar va O'rta Osiyoning boshqa xalqlari, jumladan sug'diylar o'rtasida nikohlar keng rasm bo'lgan. Afrosiyob shahri hukmdori saroyi asosiy zallaridan birining devoridagi qayiqda sayr qilayotgan bir guruh ayollar tasviri tushirilgan[9]. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra bu sug'd ixshidiga turmushga chiqqan turkiy malikaning tasviri ekan[10]. Viloyat hukmdorlariga turmushga chiqqan turkiy malikalarning nomi talaffuz qilishda murakkab bo'lganligi sababli ular oddiy qilib "xotun" ya'ni "hukmdorning xotini" deb atalganlar va shu tariqa bu so'z shu mazmunda sug'd va baqtar tillariga kirgan.

Markaziy Osiyoga arablar yurish boshlaganda, ular bevosita o'z yeri va yurti uchun jonini fido qilishga hozir bo'lgan ayol yetakchilarga to'qnash keladilar. Tarixiy manbalarning ko'rsatishicha VII asrda arablar Tohariston hududiga bostirib kirganida uning ba'zi yerlarini malikalar boshqargan ekan. Al-Maqdisiyning yozishicha Xuroson noibi etib tayinlangan Ubaydullo ibn Ziyod (673- 674 yy.) 24000 kishilik qo'shin bilan Marvdan Toharistonga yurish qiladi. Amudaryoning o'rta va yuqori oqimi atrofida joylashgan hududni Fatux xotun ismli malika boshqargan va u o'z qo'shinlarini arablar hujumini qaytarishga yetaklagan. Ubaydullo ibn Ziyod 7 marta Tohariston hududiga yurish qilib uning aholisini talagan. Faqat shundan so'nggina Fatux xotun arablar bilan sulh tuzishga va katta miqdorda boj to'lashga majbur bo'lgan[11].

673-674 yillarda Ubaydullo ibn Ziyod boshchiligidagi arab qo'shinlari Buxoroga qarab yuradi va Poykend hamda Romitanni mahv etadi. Unga qarshi chiqqan Buxoro hukmdori Bidun o'ldirilgach, o'g'li Tug'shoda yosh bo'lganligi sababli taxtga ayoli Xutak xotun o'tiradi. U manbalarda Qabaj xotun, Xo'tak xotun yoki Xotun nomlari bilan keltiriladi. Ushbu malika Buxoro tarixiga oid yozma manbalar orqali bizgacha ma'lum bo'lgan ilk mahalliy malikalardan biridir. Olima F.Jumaniyozovaning ta'kidlashicha uning bir tomondan Xotun, ya'ni malikalarga berilgan turkiy unvon bilan uchrashi, ikkinchi tomondan Qabaj nomi turkiy asosga borib taqalishi ("qaba" – mustahkam, baquvvat, "og'och" – daraxt degan so'zlardan iborat bo'lib, hayot daraxti, kuchli, baquvvat daraxt ma'nolarini anglatadi) va Xo'tak xotun emas (arab yozuvida nuqtalarning ortiqcha qo'yilishi bilan noto'g'ri o'qilgan), balki Xunak xotun ekani ham turkiy malika ekaniga shubha qoldirmaydi[12]. U Buxoroni 695 y. gacha, 15 yil davomida mahorat bilan boshqaradi va arablarga qarshi kurashlarga sardorlik qiladi.

Tarixi Buxoro” (Buxoro tarixi) asarining muallifi Muhammad ibn Ja’far Narshaxiyning ta’kidlashicha, Xotun o’zining oqilaligi tufayli aholi e’tiborini qozongan va ular malikaga so’zsiz itoat etishgan[13]. *“Bidun Buxorxudot o’lgan vaqtda undan bir emadigan o’g’il bola qoldi; uning nomi Tag’shoda edi. Bolaning onasi bo’lgan xotun taxtga o’tirdi va o’n besh yil hukmronlik qildi. Uning davrida arablar Buxoroga kela boshladilar; har gal kelganlarida xotun ular bilan sulh tuzar va mol berar edi. Aytishlaricha, uning davrida undan ko’ra donoroq bironta ham kishi bo’lmagan; u donolik bilan hukmronlik qilar va xalq unga itoatda edi. Uning odati shunday ediki, u har kuni otga minib Buxoro hisori darvozasidan tashqari chiqar va “Alaffurushlar darvozasi” deb atalgan Registon darvozasiga kelib taxtga o’tirar, uning oldida esa g’ulomlar, xoja sarolar, ya’ni bichilgan qullar va ulug’ kishilar turar edilar. U qishloq aholisi uchun shunday qoida o’rnatgan ediki, har kuni dehqonlar va malikzodalardan ikki yuz nafar yigit zarrin kamar bog’lab, qilichlarini osib xizmatga hozir bo’lib, uzoqroqda turishar, xotin tashqariga chiqqach, hammalari uni olqishlashar va ikki safga tizilishar edi; xotin esa podshohlik ishlari bilan mashg’ul bo’lar, yaxshilikka da’vat qilib yomonlikdan qaytarar, istagan kishisiga sarpo kiygizib, istagan kishisiga jazo berar edi. Shu tarzda ertalabdan to tushgacha o’tirib, so’ng hisorga qaytib kirar, dasturxonlar chiqarib hamma xizmatkorlariga taom berar edi. Kechga yaqin ham xotin shu yo’sunda tashqari chiqib taxtga o’tirar, (haligi) dehqonlar va malikzodalar ikki saf bo’lib uning xizmatida turishar edi; quyosh botgach, xotin taxtdan turib otga minar va qasrga qarab, yo’l olar, yigitlar esa o’z vatanlariga – qishloqqa qaytar edilar. Ertasi kuni boshqa jamoa kelib shu sifatda xizmatda bo’lar va nihoyat, navbat yana o’sha (avvalgi) jamoaga kelib yetar edi. Shu tarzda har bir jamoa bir yilda to’rt marotaba (xizmatga) kelishi lozim edi”.* Ushbu asarda Qabaj xotunning ismi Xotun (qadimgi turkiycha *qatun*) shaklida keltirilgan. Xunak xotun Turk hoqonligining boshqa hukmdorlari kabi o’z yerlarining qonuniy egasi bo’lgan va ma’lum daraja mustaqil boshqargan.

Abu Ja’far at-Tabariyning “Tarix ar-rusul va-l-muluk” (IX asr) asarida esa ushbu malikaning ismi Qabaj xotun shaklida keltiriladi. Manbada keltirilishicha Ubaydulloh ibn Ziyod Buxoroga yaqinlashganda, Xunak xotun turk xoqoniga arablarga qarshi harbiy yordam berishni so’rab, elchi yuboradi. Turkiy xoqon ko’p o’tmay o’z qo’shinlari bilan Buxoroga yetib kelib, arablar bilan jangga kirishadi, ammo mag’lubiyatga uchrab, qochishga majbur bo’ladi. Shunisi e’tiborga loyiqki, Turk xoqoni Qabaj xotun tomonida arablarga qarshi urush qilish uchun Buxoroga kelgan.

Biroq Turk hoqoni arablardan yengilgach Xunak xotun ularga katta miqdorda boj to'lashga majbur bo'ladi. Bu hol 680-681 yillarda yana takrorlanib, arab qo'mondoni Salm ibn Ziyod boshchiligida Buxoroga yangi hujum uyushtiriladi. Xunak xotun yanada katta miqdorda arablarga boj to'lash evaziga tinchlik shartnomasini tuzishga majbur bo'lsada, Buxoroni ancha yillar arablar hukmronligidan saqlab qoladi.

At-Tabariyning asarida Turk hoqonligi davrida ayolning jamiyatda tutgan yuksak mavqei haqida yana shunday bir ma'lumot keltiriladi: 740 yilda arab harbiy sarkardasi Nasr ibn Sayyor o'z qo'shinlari bilan Farg'onaga kiradi va tinchlik sulhi tuzish maqsadida Sulaymon ismli shaxsni Farg'ona podshohi huzuriga yo'llaydi. Sulh tuzilgach Farg'ona hukmdori sulh kafolati sifatida onasini arab elchisi bilan Nasr ibn Sayyor huzuriga yuboradi. Bu ayol ham Xotun maqomiga ega bo'lib, arab sarkardasi bilan bo'lgan muloqotda unga bir necha maslahatlar berib, o'zining nihoyat darajada oqila ekanligini namoyon qiladi. "Birinchidan har bir podshoh sodiq vaziriga ega bo'lishi kerak, tokim u o'zining davlat ishlariga oid bo'lgan eng yashirin reja va sirlarini ayta olsin va maslahatlashsin; ikkinchidan podshoh didiga mos ovqatlar bilan ko'nglini xushlaydigan mohir oshpazi bo'lishi kerak... Uchinchidan shunday **xotini** bo'lishi kerakki, o'z mehri muhabbati bilan u (podshoh) g'am qayg'uga cho'mganda tashvishlarini unutishga muvaffaq bo'lsin. To'rtinchidan podshohning mustahkam qo'rg'oni bo'lishi lozim... Beshinchidan dushmanga qarshi jangga kirganida o'tkir qilichi bo'lishi kerak. Oltinchidan u shunday bir qimmatbaho narsaga ega bo'lishi kerakki, qayerda va qachon bo'lmasin bu narsa uni qiyin ahvoldan chiqishga xizmat qilsin"[14]. Bunday maslahatlari bilan g'animini qoyil qoldirgan ayol munosib hukmdor o'g'il tarbiyalaganiga hech shubha yo'q, albatta.

Turk xoqonligi davrida ayollar mavqei haqida tarixiy toponimika ma'lumotlari ham guvohlik beradi. Xitoy va arab manbalarida Choch vohasida VII-VIII asrlarda Xotunkat («Xotun shahri») mavjud bo'lganligi, Almatidan uncha uzoq bo'lmagan joyda Oysha xotun daryosi oqib o'tgani, Xurosonda Xotun nomli uncha katta bo'lmagan shahar borligi, Oltoy o'lkasida daryolardan biri Xotun deb atalishi to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi[15]. Shuningdek, 726 yilda Shimoliy Hindistonda bo'lgan xitoy sayyohi Xoy Chao bu yerdagi Gandxara o'lkasini turkiy sulola boshqarganligi va hukmdorning ayoli katun (xotun) budda monastiri qurdirganligini qayd etgan.

Xuroson, Movarounnahr, Sharqiy Turkistonda musulmon dini tarqalgandan keyin ham ayollarning mavqei saqlanib qolgan va ular xotun unvoni bilan davlat ishlarida katta

o‘rin tutganlar. Jumladan, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, Temuriylar va bir qator boshqa turkiy davlatlarda xotunlarning mavqei baland bo‘lgan.

Temuriylar davrida hukmron sulola ayollarining boshqaruv va diplomatik marosimlarda ishtiroki, ilm-fandagi homiylik ishlari yanada yuqori bosqichga ko‘tarilgan. Amir Temurning rafiqasi Saroymulxonim mamlakat obodonchiligi, qurilish ishlariga katta hissa qo‘shgan, uning say harakatlari bilan Samarqandda madrasa ham qurilgan. XV asrdagi “vaqfnomalar” - xayr ehson qilingan mulk hujjatlarida vaqf xo‘jaligi boshqaruvida – ayollarning mutavalli sifatida ish yuritishiga doir ma’lumotlar ularning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi faolligidan dalolat beradi. Buni Amir Jaloliddinning qizi Habiba Sulton begim (temuriy shahzoda Sulton-Ahmad-Mirzoning xotini) buyrug‘iga ko‘ra Ishratxona mavzoleyi qurilgani misolida ko‘rishimiz mumkin.

O‘rta Osiyoda islom dini qaror topishi bilan ayolning ma’rifatlilik darajasiga, bilim olishiga katta e’tibor berilgan. Buxoroda Mirzo Ulug‘bek tomonidan qurdirilgan madrasa peshtoqida *“Bilim olish har bir muslim va muslimaning burchidir”* deb yozib qo‘yilishi ham ayol va erkakning bu boradagi tengligiga ishora bo‘lsa, O‘rta Osiyoda ayollarning bilim olishiga bo‘lgan e’tiborni tasdiqlovchi misoldir.

Ayollarning bu qadar yuksak mavqega ega bo‘lishliklari Amir Temur va temuriylar xonadonida kelin tanlash va farzandlar tarbiyasida ayol mas’uliyati juda katta bo‘lganligi bilan ham belgilanadi. Chunonchi “qul tabiat ayollardan qul tabiat farzandlar tug‘iladi”[16] deb hisoblangan. Ayolning qaysi avlodga mansubligi, jismoniy sog‘ligi, ma’naviyatiga asosiy mezonlar sifatida qaralgan.

Mulkdor ayollarning ta’lim-tarbiya muassasalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashdagi hissasi keyingi davrlarda ham salmoqli bo‘lgan. Muhammad Shayboniixonning kelini Mehr Sulton xonim o‘ziga tegishli ko‘chmas mulklarning ancha qismini Samarqanddagi ikki madrasani moliyalashtirishga yo‘naltirganligi ham yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi[17].

Qo‘qon xoni Umarxonning xotini, o‘z zamonasining fozila ayoli Nodirabegimning faoliyati ham oqila sharq ayolining boshqaruvdagi ishtirokiga yorqin misol bo‘ladi.

Albatta, ayollarning faol harakati, boshqaruvdagi o‘rni nafaqat Markaziy Osiyo, balki dunyoning barcha rivojlangan jamiyatlarida yuqori bo‘lgan.

Shu o‘rinda e’tiborimizni tarixdan zamonamizga qaratsak, davlat boshqaruvida ayollarning ishtiroki borasida tarixiy tajriba yetarli bo‘lsa-da, bugungi kunda ushbu sohada ularning ulushini qoniqarli deb bo‘lmaydi. Bu holat ayni paytda butun jahon uchun ham xos tendensiya. Masalan, BMT doimiy vakillari tarkibida ayollar to‘rttdan bir qismdan

ozrog'ini tashkil etadi. Dunyodagi elchilarning atigi 16% ayollar. Ko'pgina tashqisiosiy tashkilotlarda ayollar faol bo'lganiga qaramay yuqori lavozimlarga kamdan kam ko'tariladilar. Hatto eng rivojlangan diplomatik tizimlarda ham bu ko'rsatkich past.

Jahon amaliyoti bu sohada barqaror tengsizlikni namoyon qilmoqda. 2025 yil boshida atigi 25 mamlakatda ayollar davlat va hukumat rahbari lavozimini egallaganlar. 113 mamlakatda bu pozitsiyalarni hech qachon ayollar egallamaganlar. BMT diplomatik missiyalarini atigi 21% lavozimida ayollar band. 1947 yildan buyon dunyoda 7 % gina ayollar elchilikka tayinlanganlar. Tashqisiosiy xizmat mavjud bo'lgandan buyon 73 mamlakatda ayollar hech qachon elchi etib tayinlanmagan.

Bu ma'lumotlar fonida gender tenglik sari faol harakat qilayotgan mamlakatlar tajribasiga murojaat qilish ayniqsa muhim hisoblanadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda jamiyat va davlat tizimida ayollar mavqeini yuksaltirish borasida muhim qarorlar qabul qilindi. Prezident SH.Mirziyoyev tashabbusi bilan ayollar huquq va imkoniyalarini kengaytirish, muhim qarorlar qabul qilishda ayollar ishtirokini ta'minlash uchun qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda ayollar bilvosita yoki bevosita xalqaro faoliyat bilan bog'liq bo'lgan ahamiyatli, mas'ul lavozimlarda xizmat qilmoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senati raisi (birinchi ayol rais, 2019 y. 21 iyundan buyon) Tanzila Narbayeva davlat va jamoat arbobi, parlamentlararo munosabatlarda ishtirok etibgina qolmay xalqaro maydonda gender tenglik masalalarini ilgari surmoqda.

2020 yil iyun oyida Feruza Maxmudova mustaqil O'zbekistonning xorijiy mamlakatga (Izrail) birinchi elchi ayoli etib tayinlandi. (2023.y. oktabrda elchi sifatidagi faoliyatini yakunladi.) Bu albatta ayollarga ko'rsatilgan yuksak ishonch belgisi hisoblanadi. (O'zbekiston dunyoning 130 mamlakati bilan diplomatik munosabatlar o'rnatgan.)

O'zbekistonda boshqaruvda ayollar yetakchiligi yorqin misoli sifatida Saida Mirziyoyevaning Prezident Administratsiyasi rahbari etib tayinlanganini ko'rsatish mumkin. Uning faoliyati nafaqat ichki masalalar balki ta'lim, madaniyat, bolalar va ayollar huquqlarini himoya qilish sohasida xalqaro hamkorlikda ham faol ishtirok etish bilan bog'liq. Saida Mirziyoyeva ikki tomonlama va ko'p tomonlama muzokaralarda ham muntazam ishtirok etib kelmoqda.

Xulosa

Markaziy Osiyoda, jumladan O'zbekistonda xalqaro munosabatlarda ayollarning roli ramziy ishtirok etishdan farqli o'laroq, amaliy ahamiyat kasb eta boshladi. sohasida mazkur hududda gender balans tenglikdan ancha uzoqda bo'lishiga qaramay ijobiy siljishlarni qayd etmay bo'lmaydi: ayollar gumanitar, ta'lim va raqamlashtirish sohasida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ular xalqaro delegatsiyalar tarkibida xalqaro va forumlarda ishtirok etib, rahbarlik emas, aksar hollarda yordamchi va ekspert pozitsiyasini egalladilar. Albatta bu o'z navbatida hududda mavjud salohiyatning yuqorilab borayotganini, biroq ayni paytda undan yetarlicha qo'llanmayotganligini ko'rsatadi.

O'tmish tajribasi va Sharq ayolining oqilaligi, donoligi va tadbirkorligi kabi sifatlarini e'tirof etgan holda, komil ishonch bilan aytish mumkinki, ayollar yuqori davlat lavozimini ijtimoiy taraqqiyot va madaniyatlararo o'zaro ta'sirchanlikga yo'naltirilgan, nisbatan moslashuvchan yangi tipdagi xalqaro diplomatiyada faol ishtirok etish bilan muvaffaqiyatli uyg'unlashtira oladilar.

Adabiyotlar

1. Бичурин Н. (Иакинф) Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т.2. Ч.3. М. - Л., 1950. С. 162.
2. Григорьев В.В. О скифском народе саках. СПб., 1871. С. 80-81.
3. "История" ат-Табари. Избранные отрывки / Перевод с арабского В.И.Беляева. Дополнения к переводу О.Г.Большакова и А.Б.Халидова. Ташкент: Фан, 1987.
4. O'zbekiston diplomatiyasi tarixi (qadimgi zamonlardan hozirgi kungacha). 6-jild. Toshkent: O'zbekiston, 2019.
5. Геродот. История. Т.1. М., 1885.
6. Гумилев Л. Н. Древние тюрки. М., 1967.
7. Смирнова О.И.Каталог монет городища Пенджикент (Материалы 1949-1956 гг.). М., 1963. С.13-14.
8. Массон М.Е. К вопросу о взаимоотношениях Византии и Средней Азии по данным нумизматики // Труды Среднеазиатского государственного университета. Вып. 23. Ташкент, 1951. С. 91-104.
9. Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба. Ташкент: Фан, 1975. С. 55-56. (Nikh marosimi tasviri).

10. Майтдинова Г. К интерпретации живописи Афрасиаба в VII в. н.э. (Сцена в лодке) // Известия АН Тадж. ССР. Отд. общ.наук. 1984. №2. С. 20-27.
11. Мутаххар ибн Тахир ал-Макдиси. Китаб ал бад' ва та'рих. Миср: Булак, 1919. Т.6. С. 4.
12. Djumaniyazova F. Ilk «Turkon» хотун – Qabaj. Buxoroni boshqargan malika // <https://oyina.uz/kiril/article/3289>
13. Abu Bakr Ja'far an-Narshaxiy. Buxoro tarixi / Fors tilidan A.Rasulev tarjimasi. Toshkent, 1966.
14. «История» ат-Табари. Избранные отрывки ... С. 271.
15. Камолиддин Ш.С. О роли женщин в тюркском обществе // О'zbekiston хотин-qizlari: kecha va bugun. Ilmiy-amaliy konferensiya ma'ruzalari. Toshkent, 2005. С. 22-23.
16. Ziyoyeva D. О'zbekiston tarixida ayollarning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o'rni // О'zbekiston хотин-qizlari kecha va bugun. Toshkent, 2005. 11-b.
17. Казийские документы XVI в. / Текст, пер., указ. юрид. терминов, примеч. Р.Р.Фитрата, Б.С.Сергеева. Ташкент, 1937. 79 с.

XOSIYAT RUSTAMOVA SHE'RLARIDAGI PERIFRAZALARNING LINGVOSTILISTIK XUSUSIYATI

*HASIYAT RUSTAMOVA 'NIN ŞİİRLERİNDEKİ PARAFRAZLARIN DİL BİLİMSEL ÜSLUP
ÖZELLİKLERİ*

Linguistic Characteristics of Paraphrases in the Poems of Khasiyat Rustamova

Xurinsa XUDOYBERDIYEVA*

Annotatsiya

Lingvostilistika zamonaviy tilshunoslikning ham nazariy, ham amaliy sohalaridan biri sifatida turli uslublar, til birliklarining ham paradigmatic (til tizimida), ham sintagmatik (muloqotning turli sohalarida qo'llanishi nuqtai nazaridan) ekspressiv, emotsional xususiyatlarini o'rganadi. Lingvostilistik tadqiqot tilshunoslikning leksikologiya, grammatika, fonetika, semasiologiya, frazeologiya va shu kabi ko'plab sohalarini rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Boisi, ma'lum bir matnning lingvostilistik tadqiqi orqali ko'plab til birliklarining leksik, semantik, stilistik xususiyatlari ochib beriladi. Jumladan, shoir va yozuvchilarimiz asarlarini lingvostilistik tadqiq etish orqali esa ijodkorlarning lingvopoetik mahoratini lingvostilistik qirralarda ko'rish imkoniyati paydo bo'ladi. Yani, o'ziga xos stilistikasi aniqlanadi. Bu esa shakllanish bosqichida turgan lingvostilistika sohasini rivojlanishida manba hamda material vazifasini bajaradi. Shu jumladan, Xosiyat Rustamova she'rlaridagi lingvopoetik birliklarning lingvostilistik jihatdan tahlil qilish orqali biz uning takrorlanmas mahorat sohibasi ekanligi guvohi bo'lamiz.

Ushbu maqolada shoir she'rlaridagi perefrazalar va frazeologizmlarning lingvostilistik jihatdan tahlilga tortilgan. Bunday yondashuv orqali ijodkorning individual stili yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: lingvostilistik tahlil, frazeologizm, perefraza

Özet

* Namangan davlat universiteti professori
Prof. Dr., Nemangan Devlet Üniversitesi, muhayyoxonhamidova72@gmail.com

Modern dilbilimin teorik ve pratik alanlarından biri olan dilbilimsel üslup, çeşitli üslupların, dil birimlerinin, hem paradigmatic (dil sisteminde) hem de sentagmatic (iletişimin çeşitli alanlarındaki kullanımları açısından) ifade ve duygu özelliklerini inceler. Dilbilimsel üslup araştırmaları, sözlükbilim, dilbilgisi, fonetik, anlambilim, deyimibilim vb. gibi birçok başka dilbilim alanının gelişimine temel oluşturur. Böylece, belirli bir metnin dilbilimsel üslup incelenmesiyle, birçok dil biriminin sözcüksel, anlambilimsel ve üslupsal özellikleri ortaya çıkarılır. Özellikle şair ve yazarlarımızın eserlerinin dilbilimsel üslup incelenmesiyle, onların dilbilimsel açıdan dilsel-şiiirsel becerilerini görmek mümkün hale gelir. Yani, onların özgün üslupları belirlenir. Bu, henüz başlangıç aşamasında olan dilbilim alanının gelişimi için bir kaynak ve malzeme görevi görür. Özellikle, Hasiyat Rustamova'nın şiiirlerindeki dil-şiiir birimlerinin dilbilimsel-üslupsal analizi aracılığıyla, onun eşsiz ustalığına tanık oluyoruz.

Bu makale, şairin şiiirlerindeki yorumlama ve ifade biçimlerinin dilbilimsel-üslupsal analizini incelemektedir. Bu yaklaşım, yazarın bireysel üslubuna ışık tutmaktadır.

Anahtar Kelimeler: dilbilimsel-üslupsal analiz, ifade biçimi, yorumlama

Abstract

Linguistic style, one of the theoretical and practical fields of modern linguistics, examines the expressive and emotional properties of various styles and language units, both paradigmatic (in the language system) and syntagmatic (in terms of their use in various areas of communication). Linguistystilistics research forms the basis for the development of many other linguistic fields, such as lexicology, grammar, phonetics, semantics, idioms, and so on. Thus, through the linguistystilistic analysis of a given text, the lexical, semantic, and stylistic characteristics of many language units are revealed. In particular, through the linguistic stylistic analysis of the works of our poets and writers, it becomes possible to observe their linguistic-poetic skills from a linguistic perspective. In other words, their unique styles are identified. This serves as a resource and material for the development of the field of linguistics, which is still in its infancy. In particular, through the linguistic-stylistic analysis of the linguistic-poetic units in Hasiyat Rustamova's poems, we witness her unparalleled mastery.

This article examines the linguistystilistic analysis of the poet's interpretation and expression in his poems. This approach sheds light on the author's individual style.

Keywords: *linguistic analysis, expression, interpretation*

Genişletilmiş Özet

Bu çalışma, çağdaş Özbek şiirinin önemli temsilcilerinden Hasiyat Rustamova'nın şiirlerinde yer alan parafraz ve dilsel-kalıcı deyimlerin (frazologizmler) dilbilimsel üslup (lingvostilistik) özelliklerini incelemektedir. Rustamova'nın şiir dili, duygu yoğunluğu ile düşünsel derinliği aynı potada eriten kendine özgü bir estetik yapıya sahiptir. Bu bağlamda şairenin dil kullanımındaki stilistik unsurları çözümlemek, onun poetik dünyasını anlamak bakımından temel bir önem taşır.

Çalışmanın teorik çerçevesi, modern lingvostilistiğin iki yönüne dayanmaktadır:

Paradigmatik boyut: Dil birimlerinin sistem içindeki yerleri, anlam örgüleri ve sözcük ilişkileri.

Sentagmatik boyut: Bu birimlerin iletişim bağlamında, şiirsel söylemde ve bireysel üslupta nasıl işlediği.

Parafraz, çalışmada Rustamova'nın şiirlerinde sıkça başvurduğu estetik bir dönüşüm aracı olarak ele alınmıştır. Parafraz, bir nesne ya da kavramı doğrudan adlandırmak yerine onu dolaylı, metaforik, çağrışımsal veya tasvirî bir ifadeyle yeniden adlandırma yöntemidir. Rustamova'nın şiirlerinde parafrazlar yalnızca birer süsleme unsuru değil, şairenin duygu tarzını, varlıkla kurduğu ontolojik ilişkiyi ve milli-estetik dünyayı sembolize eden temel araçlardır. “Xazonning o‘jar qotili” (Güzün inatçı katili) gibi örneklerde tabiat hadiselerinin kişileştirilerek dramatik bir güç kazanması, şairenin lirik beninin tabiatla kurduğu duygusal rezonansı ortaya koyar. Bu tür parafrazlar, Rustamova'nın şiirsel dilinde duygunun yoğunluğunu artırarak okurda güçlü bir imgesel algı yaratır.

Çalışmanın ikinci bölümünde deyimlerin işlevi ele alınmıştır. Deyimler, Özbek kültürünün derin hafızasını taşıyan kalıplaşmış söz varlığıdır ve Rustamova bu kalıplaşmış yapıları hem geleneksel anlamlarıyla hem de şiirsel bağlamın taleplerine göre yeniden yorumlayarak kullanır. Onun “g‘am yemoq”, “umidini uzmoq”, “ko‘ngliga qush sig‘maslik”, “sabr kosasi to‘lib toshmoq” gibi deyimleri şiir içinde dramatik, lirik ve psikolojik bir derinlik oluşturan birer stilistik mekanizma olarak işlediği görülür. Deyimlerin bu şekilde yeniden konumlandırılması, şiirde duygusal vurguyu güçlendirir, sözün anlam katmanlarını çoğaltır ve şairenin milli duyarlılıkla örülü iç dünyasını yansıtır.

Araştırmada Rustamova'nın özellikle insan ruhunun kırılganlıklarını, kadın duyarlılığını, tabiatla özdeşleşmiş bir lirizmi ve içsel dramı ifade ederken parafraz ve deyimlerden yoğun biçimde yararlandığı tespit edilmiştir. Bu unsurlar, şiiirlerde yalnızca birer süs değil, dramatik gerilimi besleyen, okurun duygu dünyasını harekete geçiren ve şairenin bireysel üslubunu belirginleştiren temel yapı taşlarıdır. Tabiat imgelemleri, kişileştirme teknikleri ve deyimlerin metaforik dönüşümleri şairenin estetik kimliğini oluşturan en önemli göstergeler arasında yer alır.

Sonuç olarak çalışma, Hasiyat Rustamova'nın şiir dilinin zengin bir lingvostilistik yapıya sahip olduğunu ortaya koymaktadır. Parafrazlar, şairin poetik dünyasında soyut duyguları somutlaştıran, imgeyi yoğunlaştıran ve dramatik anlam katmanları yaratan temel dilsel araçlardır. Deyimler ise millî kültürün ruhunu şiire taşıyan, okurla ortak duyuş bağları kuran ve Rustamova'nın lirikasına güçlü bir yerellik ve sahicilik kazandıran unsurlardır. Bu yönleriyle Rustamova'nın şiirleri hem modern Özbek şiirinin estetik imkânlarını genişletmekte hem de dilbilimsel üslup araştırmaları için zengin bir malzeme sunmaktadır.

Kirish

Zamonaviy o'zbek adabiyotining yuksak badiiy salohiyatga ega bo'lgan yorqin vakillaridan biri – Xosiyat Rustamova ijodi o'ziga xos lingvostilistik obrazlar qiymati bilan ajralib turadi. Boisi, uning ijodida milliy ruh, falsafiy mushohada va estetik ifodaning o'ziga xos uyg'unlashuvi shoiraning stilistik mahoratidan dalolat beradi. Ayniqsa, u qo'llagan va yaratgan perefraza va frazeologizmlarning lingvostilistik xususiyatlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Asosiy qism

Shoira ijodida qo'llangan perefrazalar boshqa ijodkorlardan o'ziga xos jozibasi bilan ajralib turadi. Perefraza – bu ma'lum bir narsa yoki hodisani bevosita emas, uni ta'riflash, sinonimlashtirish yoki obrazli shaklda ifodalash orqali nomlash vositasidir. Perefraza stilistik vosita sifatida poetik tilda estetik ifoda, emotsional boylik, obrazlilik yaratish vazifasini bajaradi. Xosiyat Rustamova she'riyati perefrazalarga boy bo'lib, ular orqali shoiraning individual uslubi, shaxsiy kechinmalari va milliy-estetik dunyoqarashi namoyon bo'ladi.

Buni shoironing “Shamollar qasd qildi...” nomli she’ri misolida ham ko‘rishimiz mumkin:

*Shamollar qasd qildi shirin joniga,
O‘limning ustiga kirib bordi tik,
Besaramjon tunning
Qoq manglayiga,
Naq tarsaki tortib yubordi eshik,
Oyna chil-chil sindi,
Bog‘lar to‘zidi.*

Uv tortdi – xazonning o‘jar qotili. (263)

Ushbu she’riy parchada shoironing poetik tafakkuri va til mahorati o‘z aksini topgan bo‘lib, faqatgina Xosiyat Rustamova lirikasida kuzatiladigan, betakror perefraza qo‘llanilgan. “*Uv tortdi – xazonning o‘jar qotili*” misrasidagi “*Xazonning o‘jar qotili*” perefrazadir. Bunda shamol shaxsiylashtirilgan, xazon esa yaproqlar, kuz, xotira timsoli sifatida gavdalantirilgan. “Qotil” – juda kuchli metaforik perefraza. “Shamol” – endi oddiy hodisa emas, balki vayronkor kuch. “O‘jar” – yana bir emotsional sifat. Bu perefraza orqali kuzning fojiaiy ruhiy holati kuchaytiriladi. Bu she’rda perefrazalar orqali tabiat va inson o‘rtasidagi o‘xshashliklar o‘z aksini topgan. Muallif qayg‘u, dard, fojiani bevosita ifodalamasdan o‘quvchi ruhiyatiga tasir etadigan tarzda, badiiy bo‘yoqdor shaklda yetkazadi.

Shoira ijodidagi ana shunday birliklardan yana biri bu frazeologizmlardir. Frazeologizm – bu tildagi barqaror leksik birlik bo‘lib, uning ma’nosi ko‘pincha tarkibidagi so‘zlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nosidan farq qiladi. Adabiy matnda, ayniqsa she’riyatda frazeologizmlar obrazlilikni kuchaytirish, milliy dunyoqarashni ifodalash va stilistik individuallik yaratishda muhim o‘rin tutadi.

Xosiyat Rustamova she’riyatida frazeologizmlar emotsional-estetik ta’sirni oshirishga, she’rning poetik ruhini boyitishga xizmat qilgan bo‘lib, unda o‘zbek xalqining ruhiy-madaniy olami aks ettiriladi.

*Yig‘lagim keladi eslagan paytim,
Mening g‘amlarimni yemagan vaqtning,
Ko‘ziga ko‘rinmay orqaga qaytdim,
Ko‘ngliga qush sig‘may turgan daraxtning,
Sendan umidimni uzgandim tamom,*

*Yashardim hovuchlab dardmand yurakni,
Hayot, yoqtirmayman o'shandan buyon,
Bizning o'rtamizga tushgan yo'lakni.*(8)

Ushbu parchada **“g‘am yemoq”, “ko‘ngliga qush sig‘maslik”, “umidini uzmoq”** kabi frazeologizmlar qo‘llangan. “G‘am yemoq” iborasi “g‘am chekish”, “azob-uqubat bilan yashash” ma’nosida ishlatiladi. She’riy obraz orqali azobli o‘tgan davr ifodalanadi. Vaqtning befarqligi, g‘amni yengillatmasligi poetik tarzda ta’kidlanadi. “Ko‘ngliga qush sig‘maslik” iborasi odatda quvonchdan to‘lib-toshib turgan holatni anglatadi. Lekin bu yerda antitezali, metaforik tarzda qo‘llanilib, daraxtga nisbatan ishlatilgan. Daraxt – bu yerda inson qalbi ifodasi. Daraxt – tashqi go‘zallik, hayot, kuch timsoli. Ammo she’rda bu daraxt “ko‘ngliga qush sig‘maydigan”, ya’ni ehtimol shunchalik to‘la yoki beg‘am obrazda berilgan, shoir esa unga nisbatan yashirin dard bilan orqaga qaytmoqda. Bu satrda kontrast mavjud, ya’ni dardmand shoir va “baxtli daraxt”. “Umid uzmoq” iborasi oddiy, lekin chuqur emotsional ibora. Bu frazeologizm har doim ichki qayg‘u, umidsizlik, tushkunlik bilan bog‘liq. O‘quvchida ruhiy tushkunlik, najotsizlik hissini uyg‘otadi. Umid uzilishi – yaqinlikning uzilishi, sevgi yoki hayot bilan bo‘lgan bog‘liqlikning kesilishi sifatida talqin qilinadi. Bu she’rda ishlatilgan frazeologik birliklar emotsional-psixologik holatni kuchli tarzda ifodalaydi. Poetik obrazlarni chuqurlashtiradi, o‘quvchini ruhiy jihatdan larzaga keltiradi. Hayot, sevgi va umid tushunchalarini metaforik va dramatik vositalar bilan ifodalaydi. She’r ichki iztirob, ajralish, umidsizlik kabi mavzularni frazeologiyalar orqali o‘ta ta’sirchan tarzda ochib berish kabi stilistik vazifalarni bajaradi.

Sening sabr kosang to‘lib toshdimi?

*Yuzaga chiqarding duru gavharni,
Ba‘zan aljiragan suvlar toshqini,
G‘arq qilmoq payida baliqchalarni,
O‘tib ketayotib ko‘raman ba‘zan,
O‘zi ham uyalib qolar ariqlar,
Balki shuning uchun sovuq suvni ham,
Puflab ichar og‘zi kuygan baliqlar.* (17)

Ushbu parchada **“Sabr kosasi to‘lib toshmoq”, “Og‘zi kuygan sovuq suvni ham puflab ichar”, “Duru gavhar yuzaga chiqarmoq”** kabi frazeologizmlar mavjud. “Sabr kosasi to‘lib toshmoq” frazeologizmi qo‘llanilgan bo‘lib, u kishi uzoq vaqt sabr qilgan, ammo chiday olmay oxirida g‘azab, dard, alam yoki nolani to‘kib yuborgan holatni

ifodalashga xizmat qilgan. Lingvostilistik jihatdan “Sabr” – ichimlik yoki suyuqlik, yurakdagi chiqadigan holat. “Kosa” – sabrning o‘lchovi. Sabr “to‘lib toshadigan” idishga tenglashtirilib, inson hissiyotlari jonlantiriladi. Bu ibora insonning ichki to‘qnashuvlari, ruhiy bosimining portlashi haqida obrazli tasvir beradi. G‘azab, iztirob, og‘ir kechinmalarning haddan oshgan nuqtasini ifodalaydi va o‘quvchiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. *“Duru gavhar yuzaga chiqarmoq”* iborasi ichki go‘zallik, iste’dod, haqiqat yoki yashiringan tuyg‘ularni oshkor qilishga xizmat qiladi. Haqiqiy tuyg‘ular, so‘zlar yoki ma’naviy boyliklar – “duru gavhar” (qimmatbaho marvaridlar) sifatida ifodalangan. “Duru gavhar” – bu yerda yurakdagi chuqur, toza his-tuyg‘ularni anglatadi. Bu frazeologizm she’rga nafislik, ichki go‘zallik, poetik boylik baxsh etadi. O‘quvchida hayrat, mehr va hurmat uyg‘otadi – his-tuyg‘ularning sof va chuqurligi ifodalanadi. *“Og‘zi kuygan sovuq suvni ham puflab ichar”* iborasi oldin xatoga yo‘l qo‘ygan yoki zarar ko‘rgan odam keyinchalik har bir ishda ehtiyotkor bo‘ladi hatto zararsiz narsa ham unga xavfli ko‘rinadi. “Og‘zi kuygan” – oldingi og‘riqli tajriba, “sovuq suvni puflab ichmoq” – ehtiyotkorlik, xavotir bilan yashash. Baliq – bu yerda **inson** ramzi sifatida ifodalangan. Baliqning ehtiyotkorligi – odamning o‘tmish xatolaridan saboq olganligi belgisi.

Xosiyat Rustamova she’riyatida perefrazalar va frazeologizmlar lingvostilistik jihatdan leksik-semantik boylikni namoyon etadi, badiiy obrazlilikni kuchaytiradi, milliy dunyoqarash va ayollik ruhiyatining estetik ifodasini ochib berishga xizmat qiladi. Ular poetik nutqni nafaqat go‘zallashtiradi, balki mazmuniy qatlamlarni ko‘paytiruvchi stilistik mexanizm sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992.
2. Ёуллошев М. Балий матн лингвопоэтикаси. – Тошкенгт: Фан, 2008. – Б. 27.
3. Хожиев А. Тилшунослнк терминларининг изохли-лугати. - Тошкенгт: Укитувчи, 2000. – Б.133.
4. Xosiyat Rustamova. Devor. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashryot. –Toshkent, 2006.
5. Xosiyat rustamova. Rido. “Yangi asr avlodi”. – Toshkent, 2004.

JANUBIY KOREYADA SAN'AT VA MADANIYAT

GÜNEY KORE'DE SANAT VE KÜLTÜR

Arts And Culture in South Korea

Xurshida GUBAYEVA*

Annotatsiya

Janubiy Koreya, rasmiy nomi bilan Koreya Respublikasi, Sharqiy Osiyoda joylashgan, o'zining boy tarixi, madaniyati va san'ati bilan tanilgan mamlakatdir. Koreya madaniyati qadim zamonlardan boshlab, an'analar va zamonaviylikni o'zida uyg'unlashtirib kelgan. Xususan, XX asrning oxiri va XXI asrda Janubiy Koreya san'ati va madaniyati butun dunyoga tanilgan va tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Ushbu maqolada Janubiy Koreyaning san'at va madaniyat sohasidagi asosiy tendensiyalari, ularning ijtimoiy va iqtisodiy ta'siri hamda xalqaro miqyosda o'zgarishlarga olib kelgan yutuqlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Janubiy Koreya, san'at, madaniyat, Hallyu, koreys tili, K-pop, K-drama, madaniy diplomatiya

Özet

Güney Kore, resmî adıyla Kore Cumhuriyeti, Doğu Asya'da bulunan ve zengin tarihi, kültürü ve sanatıyla tanınan bir ülkedir. Kore kültürü, kadim çağlardan beri gelenek ve modernliğin bir karışımıdır. Özellikle 20. yüzyılın sonları ve 21. yüzyılda, Güney Kore sanatı ve kültürü dünya çapında tanınır hale gelmiş ve hızla gelişmektedir. Bu makale, Güney Kore'nin sanat ve kültüründeki temel eğilimleri, sosyal ve ekonomik etkilerini ve uluslararası ölçekte değişimlere yol açan başarıları incelemektedir.

Anahtar Kelimeler: Güney Kore, sanat, kültür, Hallyu, Kore Dili, K-pop, K-drama, kültürel diplomasi

Abstract

South Korea, officially the Republic of Korea, is a country located in East Asia, known for its rich history, culture, and arts. Korean culture has been a blend of tradition and modernity since ancient times. In particular, in the late 20th and 21st centuries, South Korean art and culture have become known around the world and are developing rapidly. This article examines the main trends in South Korea's art and

* O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tayanch doktoranti
O'zbekiston Davlat Sanat ve Kültür Enstitüsü Doktora öğrencisi, ismatillayevna@mail.ru

culture, their social and economic impact, and the achievements that have led to changes on an international scale.

Keywords: *South Korea, art, culture, Hallyu, Korean language, K-pop, K-drama, cultural diplomacy*

Genişletilmiş Özet

Bu makale, Doğu Asya'nın en dinamik ülkelerinden biri olan Güney Kore'nin sanat ve kültür sahasındaki tarihî gelişimi, çağdaş yönelimleri ve küresel etkisini incelemektedir. Kore kültürü, binlerce yıllık geleneksel miras ile modern dünyanın estetik ve teknolojik değerlerini ustaca birleştiren bir örnek teşkil etmektedir. Özellikle 20. yüzyılın sonlarından itibaren sanat, müzik, sinema, moda ve kültürel diplomasi alanlarında yaşanan dönüşüm, Güney Kore'yi küresel bir "kültürel güç" (soft power) haline getirmiştir.

Araştırmada ilk olarak Kore'nin geleneksel sanat mirası ele alınmıştır. Bu kapsamda Minhwa (halk resmi) ve Hanji (el yapımı kâğıt sanatı) gibi resim türleri; Koryo ve Choson dönemlerine ait ünlü seladon ve bunchong seramikleri; ayrıca Pansori (halk opera geleneği) ve Talchum (maskeli dans tiyatrosu) gibi sahne sanatları örnekleri, ulusal kimliğin estetik temelleri olarak değerlendirilmiştir. Bu geleneksel biçimler, yalnızca geçmişin sanat anlayışını değil, aynı zamanda Kore halkının ruhsal dünyasını da yansıtan kültürel semboller olarak ele alınmıştır.

Makalenin ikinci bölümünde modern sanat ve kültürel üretim biçimleri analiz edilmiştir. 21. yüzyılın başından itibaren küresel çapta yayılan Hallyu (Kore Dalgası), Güney Kore'nin çağdaş kültürel kimliğini tanımlayan en önemli olgulardan biri hâline gelmiştir. K-pop müziği, güçlü sahne performansları, yaratıcı koreografileri ve dijital medya kullanımıyla sadece bir müzik türü değil, aynı zamanda gençlik kültürünü şekillendiren küresel bir fenomen olarak incelenmiştir. BTS, BLACKPINK, EXO gibi müzik gruplarının başarısı, Kore dilinin ve kültürel değerlerinin uluslararası alanda tanıtılmasında belirleyici bir rol oynamıştır.

Kore sineması da makalede önemli bir yer tutmaktadır. "Parasite" (2019) filmiyle Oscar ödülünü kazanarak dünya sinema tarihinde dönüm noktası oluşturan Kore film endüstrisi, "Oldboy" ve "The Handmaiden" gibi yapımlarla da sanatsal yaratıcılığını kanıtlamıştır. Kore sinemasının başarısı, toplumsal eleştiriyi sanatsal zarafetle birleştiren güçlü anlatı geleneğiyle ilişkilendirilmiştir.

Ayrıca Kore modası ve tasarımı, Seul'ün küresel moda başkentlerinden biri hâline gelmesi bağlamında değerlendirilmiştir. Kore modası, minimalist çizgileri, işlevsel estetiği ve dijital kültürle kurduğu bağ sayesinde dünya gençliği arasında yaygın bir popülerlik kazanmıştır. Teknoloji ve kültürün kesişimi, çağdaş Kore kimliğinin en belirgin özelliklerinden biri olarak ele alınmış; sosyal medya, dijital sanat ve sanal etkinliklerin kültürel üretimdeki rolü vurgulanmıştır.

Makalenin üçüncü bölümünde anane ile modernliğin sentezi incelenmiştir. Hanbok gibi geleneksel kıyafetlerin modern tasarımlarla yeniden yorumlanması, Kore'nin kültürel sürekliliği korurken yeniliğe açık yapısını ortaya koymaktadır. Bu bağlamda, geleneksel sanat formları modern medya, müzik ve tasarım aracılığıyla yeniden üretilmekte ve genç kuşaklara aktarılmaktadır.

Dördüncü bölüm, Hallyu'nun küresel yayılımı ve kültürel diplomasiye ayrılmıştır. 1990'lardan itibaren başlayan Kore Dalgası, yalnızca eğlence sektörünün başarısı değil, aynı zamanda stratejik bir "kültürel dış politika" aracı olarak değerlendirilmiştir. Kore hükümeti, Hallyu'nun uluslararası etkisini artırmak amacıyla kültürel diplomasi, eğitim programları, uluslararası festivaller ve King Sejong Institute gibi dil öğretim merkezleri aracılığıyla kapsamlı projeler yürütmektedir. Kore dilinin dünya genelinde artan popülerliği, kültürel kimliğin daha derin anlaşılmasına katkı sağlamaktadır.

Son bölümde Güney Kore'nin kültürel diplomasi modeli ele alınmıştır. Kore devleti, kültürü bir "yumuşak güç" unsuru olarak kullanmakta; sanat, müzik, sinema ve dil aracılığıyla uluslararası ilişkilerini güçlendirmektedir. Bu strateji, Kore'nin hem ekonomik hem de siyasal alanda küresel prestijini artırmış; aynı zamanda Asya kültürlerinin uluslararası tanınırlığına önemli katkı sağlamıştır.

Sonuç olarak Güney Kore, geleneksel değerlerini koruyarak modern dünyada kültürel yenilik ve küresel etkileşim alanında örnek bir model oluşturmuştur. Hallyu fenomeni, Kore dilinin uluslararası yayılımı ve kültürel diplomasi girişimleri, ülkenin dünya kültür haritasındaki konumunu sağlamlaştırmıştır. Kore'nin sanat, müzik, moda ve sinemadaki başarıları, sadece ekonomik veya estetik bir olgu değil, aynı zamanda kültür aracılığıyla kimlik inşasının küresel bir örneği olarak değerlendirilmelidir.

Bu bağlamda makale, Kore kültürünün yerel köklerden küresel sahneye uzanan dönüşümünü tarihsel, sanatsal ve sosyo-politik boyutlarıyla ele alarak, modern kültürel etkileşimin önemli bir örneğini sunmaktadır.

Kirish

Janubiy Koreya san'at va madaniyat sohasida juda boy va xilma-xil bir merosga ega. Ushbu soha Koreyaning an'anaviy va zamonaviy madaniyatini birlashtirgan, o'ziga xos rivojlanish yo'nalishlarini yaratgan.

Asosiy qism

Quyida Janubiy Koreyaning san'at va madaniyati haqida ba'zi muhim jihatlarni keltiramiz:

1. An'anaviy san'at:

- Koreys rassomchiligi: Janubiy Koreya an'anaviy san'ati, asosan, shaffof suv bo'yoqlari va chiroyli naqshlar bilan tanilgan. "Minhwa" (folklor san'ati) va "Hanji" (qog'oz san'ati) bu an'anaviy san'atning namunalaridir.

- Keramik san'ati: Koreya keramikasi, ayniqsa "Choson" davrining "Bunchong" va "Koryo" davrining "Seladon" buyumlari, o'zining estetikasi va nozik ishlanmalari bilan mashhur.

- Teatr va raqs: Koreys an'anaviy teatr va raqs san'ati, masalan, "Pansori" (folklor musiqa teatri) va "Talchum" (raqsli teatr), xalq hikoyalarini ifodalovchi dramatik shakllar sifatida tanilgan.

2. Zamonaviy san'at va madaniyat:

- K-pop: Janubiy Koreya dunyoda eng mashhur musiqiy janrlardan biri bo'lgan K-popni yaratgan. Bu janr, jangovar koreografiya, yuqori sifatli musiqiy video kliplari va global ahamiyatga ega bo'lgan ijrochilari bilan jahonga tanilgan.

- Film va kino: Janubiy Koreya kino sanoati o'zining innovatsion uslublari va kuchli hikoya qilish usullari bilan ajralib turadi. "Parasite" filmi, 2020-yilda Oskar mukofotini yutib, Koreyaning kinematografiyasini jahon miqyosida tanitdi. Bundan tashqari, "Oldboy", "The Handmaiden" kabi filmlar ham muvaffaqiyat qozondi.

- Moda: Janubiy Koreya, ayniqsa Seul, dunyo modasining markazlaridan biri hisoblanadi. Koreys modasi, o'ziga xos dizayni, minimalist yondoshuvi va zamonaviyligi bilan tanilgan. Janubiy Koreya brendlari va ko'cha modasi global trendlarni shakllantiradi.

- Texnologiya va madaniyat: Zamonaviy Koreya madaniyatining ajralmas qismi sifatida texnologiya hamda raqamli madaniyat ta'sirini ham ko'rish mumkin. Koreyada

internet va ijtimoiy tarmoqlar keng tarqalgan bo'lib, ularning madaniyatdagi roli katta.

3. An'anaviy va zamonaviy o'rtasidagi muvozanat:

Janubiy Koreya san'at va madaniyatida an'anaviy elementlar zamonaviylik bilan uyg'unlashadi. Masalan, "Hanbok" (koreys milliy kiyimi) bugungi kunda ham rasmiy tadbirlarda va turizmda keng tarqalgan bo'lsa, zamonaviy kiyimlar bilan uyg'unlashgan holda moda sahnasida ham ommalashmoqda.

Janubiy Koreya madaniyati global miqyosda o'zining o'ziga xosligi va yangiligi bilan ajralib turadi va dunyoning turli burchaklaridan ko'plab tomoshabinlarni o'ziga jalb qiladi.

4. Koreys Madaniyati va uning dunyo sahnasidagi o'rni

Janubiy Koreyaning san'ati va madaniyati so'nggi yillarda global miqyosda ulkan ta'sir ko'rsatmoqda. Koreys madaniyati, xususan, Hallyu (Koreys to'liqini) deb ataladigan madaniy harakat, butun dunyo bo'ylab keng tarqaldi.

4.1. Hallyu (Koreys to'liqini): koreys madaniyatining dunyo bo'ylab tarqalishi.

Hallyu, yoki Koreys to'liqini, 1990-yillardan boshlab Janubiy Koreyaning san'ati va madaniyatining xalqaro miqyosda keng tarqalishini ifodalovchi atama bo'lib, k-pop, koreys drama va kino sanoatining o'sib borishi bilan bog'liq. Koreya madaniyatining global ta'sirini yaratish uchun quyidagi omillarni ko'rib chiqish mumkin:

- K-pop: Koreys pop-musiqasi butun dunyoda katta muvaffaqiyat qozonib, musiqiy sahnada yangicha yo'nalishlarni yaratdi. K-pop guruhleri, masalan, BTS, BLACKPINK, EXO, va boshqa ko'plab guruhlar, o'zining noyob musiqiy stilini va ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatlari orqali global auditoriyaga erishdi. K-popning muvaffaqiyati nafaqat musiqada, balki madaniy hodisa sifatida ham qabul qilindi, chunki u koreys tilini, madaniyatini va an'analarini targ'ib qilmoqda.

- Koreys dramasi va kinosi: Koreys drama va kino sanoati, ayniqsa, "K-drama" va "K-movie" janrlari, butun dunyo bo'ylab millionlab tomoshabinlarga erishdi. Masalan, "Squid Game" (2021) Netflix platformasida rekord o'rnatib, xalqaro miqyosda katta muvaffaqiyat qozondi. Koreys kino va drama sanoatining rivojlanishi, uning yuqori sifatli senariylarini va keng qamrovli jamiyatlarni tasvirlashdagi mahoratini dunyo tomoshabinlari tomonidan qadrlanmoqda.

- Madaniyatning tarqalishi: Koreys musiqasi, kino va drama san'ati orqali boshqa

madaniyatlar bilan o'zaro aloqalar o'rnatildi, bu esa Koreya madaniyatini global miqyosda mashhur qildi.

4.2. Koreys tilining tarqalishi: koreys tilining dunyo bo'ylab o'rganilishi va uning madaniyatga ta'siri

Koreys tilining global miqyosda tarqalishi Hallyu to'liqini bilan bevosita bog'liq. Koreys tilini o'rganish uchun dunyo bo'ylab ko'plab odamlar qiziqish bildirmoqda, bu esa Koreya madaniyatining yanada chuqurroq o'rganilishiga olib keladi. Bu jarayonni quyidagi jihatlarni o'z ichiga olgan holda tahlil qilish mumkin:

- O'qitish va madaniy almashuv: Koreys tilini o'rganish bo'yicha kurslar va darsliklar, onlayn resurslar va ta'lim platformalari ortib bormoqda. Koreys tilini o'rgatish borasida Koreyaning yirik ta'lim muassasalari, masalan, "King Sejong Institute", dunyo bo'ylab filiallar ochib, koreys tilining o'rgatilishiga katta hissa qo'shmoqda.

- Koreys tilining ommaviylashuvi: koreys tilining dunyo bo'ylab o'rganilishi nafaqat Koreya madaniyatining o'ziga xos jihatlari tushunish uchun, balki K-pop va Koreys drama va kino sanoatiga qiziqish orqali ham kuchaymoqda. Koreys tilini o'rgangan yoshlar, o'zlarining sevimli musiqiy guruhlar yoki seriallari bilan yanada yaxshiroq aloqada bo'lishni istashadi.

- Madaniyatga ta'siri: koreys tilining o'rganilishi, Koreya madaniyatiga nisbatan ijobiy munosabatni rivojlantirishga yordam beradi. Koreys tilidagi lug'at va iboralar, koreys milliy qadriyatlari va an'analarini tushunishga imkon yaratadi. Shuningdek, til o'rganish orqali koreyslarning tarixi, madaniy merosi va xalq san'ati haqida yaxshiroq tasavvur hosil qilinadi.

4.3. Janubiy Koreyaning madaniy diplomatiyasi: madaniyat orqali tashqi siyosat yuritish

Janubiy Koreya madaniyatining global tarqalishi, shuningdek, Koreyaning madaniy diplomatiyasining kuchayishiga olib keldi. Madaniy diplomatiya orqali Koreya o'zining tashqi siyosatini yaratish va boshqa davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlashga erishmoqda. Bu jarayonni quyidagi jihatlari orqali tahlil qilish mumkin:

- Madaniyat va siyosat: Koreya madaniy diplomatiyasi, ayniqsa, Hallyu to'liqini bilan chambarchas bog'liq bo'lib, Koreyaning dunyo bo'ylab o'z ta'sirini kuchaytirish uchun madaniy elementlarni tashqi siyosat vositasi sifatida ishlatmoqda.

Koreya hukumati va madaniyat institutlari, Koreyaning an'anaviy san'ati va madaniy qadr-qimmatlarini butun dunyo bo'ylab targ'ib qilishga qaratilgan tashabbuslar

bilan faoliyat yuritmoqda.

- Tashqi aloqalar: Koreya, madaniyat orqali boshqa davlatlar bilan o'zaro hamkorlikni mustahkamlashga intiladi. Misol uchun, Koreya xalqaro festival va madaniy tadbirlarda o'z san'ati va madaniyatini namoyish qilishga alohida e'tibor qaratadi. Shuningdek, Koreya ko'plab davlatlar bilan madaniy almashuv dasturlarini tashkil etmoqda, bu esa diplomatik munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi.

- Global madaniyatni shakllantirish: Koreya madaniy diplomatiyasining asosiy maqsadi – global miqyosda Koreya madaniyatini, tarixini va qadriyatlarini targ'ib qilish, shuningdek, Koreyaning xalqaro sahnada yanada muhim rol o'ynashini ta'minlashdir.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, koreys madaniyatining dunyo sahnasidagi o'zni va ta'siri har qachongidan ko'ra kuchliroq. Hallyu to'liqini, koreys tilining global tarqalishi va madaniy diplomatiya Koreya madaniyatining xalqaro muvaffaqiyatining asosiy omillari bo'lib, bu jarayonlar Janubiy Koreyaning dunyo bo'ylab madaniy va siyosiy ta'sirini yanada oshirmoqda. Bu elementlar Koreya madaniyatining global miqyosdagi o'zni va ahamiyatini yanada mustahkamlashda davom etadi.

Adabiyotlar

1. Kim, Y. (2014). *The Cultural Diplomacy of South Korea: Hallyu and Its Influence*. Seoul: Korean National University Press.
2. Lee, S. (2019). *K-Pop and Globalization: A Study of South Korean Pop Culture's International Influence*. New York: Routledge.
3. Chang, W. (2020). *Modern Korean Art: Tradition and Innovation*. Seoul: Artworld Publishing.
4. Jung, J. (2018). *The Rise of K-Drama: How South Korean Television is Shaping Global Pop Culture*. Los Angeles: Global Media Press.
5. Song, H. (2017). Cultural Exchange and the Role of South Korean Diplomacy in Global Relations. *Journal of International Studies*, 32(4), 487-510.
6. Choi, S. (2021). *Korean Ceramics: A Tradition of Excellence*. Seoul: Korea Foundation for the Arts.

7. Kwon, M. (2015). Hallyu: The Korean Wave in Global Media. *Asian Cultural Studies Journal*, 24(2), 132-150.
8. Hong, S. (2016). *Korean Cinema: The Art of Storytelling*. Seoul: Cinematic Arts Press.
9. Park, J. (2022). The Role of Technology in Contemporary Korean Culture. *Journal of Modern Culture and Technology*, 9(1), 78-91.
10. Kim, H. (2023). The Influence of K-Pop on Global Youth Culture. *Youth Culture Journal*, 12(3), 45-59.

ИНСОН ДУНЁҚАРАШИ ВА БОРЛИҚ: КЕЧА ВА БУГУН

İNSAN DÜNYA GÖRÜŞÜ VE VAROLUŞ: DÜN VE BUGÜN

Human Worldview and Existence: Yesterday and Today

Зоя АРИСЛАНБАЕВА*

Аннотация

Ушбу мақолада инсон дунёқарашининг борлиққа муносабати тарихий ва замонавий нуқтаи назардан таҳлил этилган. Мақолада дунёқарашининг мифологик, диний, фалсафий ва илмий шакллари қиёсий ўрганилади. Қадимги даврларда инсон борлиқни табиат кучлари ва илоҳий қудратлар орқали изоҳлагани, ўрта асрларда диний ва фалсафий таълимотлар устувор бўлгани кўрсатилган. Шу билан бирга, уйғониш ва янги даврда рационализм ва илм-фан тараққиёти дунёқараида янги босқични бошлаб бергани таъкидланади. Замонавий дунёқарашининг асосий йўналишлари сифатида илмий-технологик, гуманистик, экологик ва глобал қараишлар таҳлил қилинади. Шунингдек, санъатнинг инсон дунёқараиши шаклланишидаги ўрнига ҳам алоҳида эътибор қаратилган. Санъат нафақат гўзалликни ифода этади, балки инсоннинг руҳий, маънавий ва ижтимоий қараишларини тарбиялайди. Шу жиҳатдан у инсон дунёқараишини бойитувчи, маънавий ва ижтимоий жиҳатдан ривожлантирувчи куч сифатида талқин этилади.

Хулоса қисмида эса инсон дунёқараиши узлуксиз ўзгариб боришига қарамай, унинг асосий мақсади – борлиқда ўз ўрнини англаш ва ҳаётдан маъно топиш эканлиги таъкидланади.

Калим сўзлар: инсон, дунёқараиш, борлиқ, мифология, дин, фалсафа, илм-фан, технология, санъат, маънавият

Özet

Bu makale, insan dünyası görüşü ve varoluş arasındaki ilişkiyi hem tarihsel hem de çağdaş perspektiflerden analiz etmektedir. Mitolojik, dini, felsefi ve bilimsel dünyası görüşü biçimleri karşılaştırmalı olarak incelenmektedir. Antik çağlarda insanların varoluşu doğal güçler ve ilahi güçlerle açıkladıkları, Orta Çağ'da ise dini ve felsefi öğretilerin baskın olduğu gösterilmektedir. Ayrıca, Rönesans ve Modern Çağ'da

* Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası dotsenti

Doç. Dr., Özbekistan Devlet Sanat ve Kültür Enstitüsü Sosyal ve Beşeri Bilimler Bölümü, arislanbaeva.zoya@gmail.com

rasyonalizm ve bilimin gelişmesinin dünya görüşünün evriminde yeni bir aşamaya işaret ettiği vurgulanmaktadır. Çağdaş dünya görüşünün bilimsel-teknolojik, hümanist, ekolojik ve küresel perspektifler gibi ana yönleri analiz edilmektedir. Ayrıca, sanatın insan dünya görüşünün oluşumundaki rolü tartışılmaktadır. Sanat sadece güzelliği ifade etmekle kalmaz, aynı zamanda insanın manevi, ahlaki ve toplumsal değerlerini de besler. Bu nedenle sanat, insan dünya görüşünü zenginleştiren ve manevi ve toplumsal gelişimine katkıda bulunan bir güç olarak kabul edilmektedir.

Sonuç olarak, sürekli dönüşüm geçirmesine rağmen, insan dünya görüşünün temel amacının aynı kaldığı vurgulanmaktadır: varoluştaki yerini anlamak ve hayatta anlam bulmak.

Anahtar Kelimeler: *insan, dünya görüşü, varoluş, mitoloji, din, felsefe, bilim, teknoloji, sanat, maneviyat*

Abstract

This article analyzes the relationship between human worldview and existence from both historical and contemporary perspectives. The mythological, religious, philosophical, and scientific forms of worldview are comparatively examined. It is shown that in ancient times, human beings explained existence through natural forces and divine powers, while in the Middle Ages religious and philosophical teachings were predominant. Furthermore, it is emphasized that during the Renaissance and the Modern Age, rationalism and the development of science marked a new stage in the evolution of worldview. The main directions of contemporary worldview, such as scientific-technological, humanistic, ecological, and global perspectives, are analyzed. In addition, the role of art in the formation of human worldview is discussed. Art not only expresses beauty, but also nurtures human spiritual, moral, and social values. Therefore, art is regarded as a force that enriches the human worldview and contributes to its spiritual and social development.

In conclusion, it is emphasized that despite its constant transformation, the main purpose of human worldview remains the same – to understand one's place in existence and to find meaning in life.

Keywords: *human, worldview, existence, mythology, religion, philosophy, science, technology, art, spirituality*

Genişletilmiş Özet

Bu makalede, insanın dünya görüşü ile varlık arasındaki ilişki hem tarihsel hem de çağdaş bir bakış açısından incelenmektedir. İnsan dünya görüşü, onun doğa, toplum ve kendi varlığı hakkındaki temel anlayışlarını belirleyen düşünsel bir sistem olarak ele alınır. Çalışmada, insanın varlığı anlama çabası felsefi bir problem olarak tarih boyunca farklı

biçimlerde yorumlanmış; mitolojik, dini, felsefi ve bilimsel aşamalar çerçevesinde karşılaştırmalı biçimde analiz edilmiştir.

Makalenin ilk bölümünde tarihsel dünya görüşü biçimleri ele alınır.

Mitolojik dünya görüşü: Eski toplumlarda insan, doğayı kutsal güçlerle ilişkilendirerek anlamlandırmış; kendini tabiatın ayrılmaz bir parçası olarak görmüştür. Örneğin, Antik Mısır’da Nil nehri tanrısal bir varlık olarak kabul edilmiştir.

Dinî dünya görüşü: Orta Çağ’da insanın varlık anlayışı Tanrı merkezli bir karakter kazanmıştır. Avrupa’da Hristiyan düşüncesi, varlığı “yaratıcı iradesinin yansıması” olarak görürken, İslam medeniyetinde Farabî ve İbn Sina gibi düşünürler varlığı akıl ve bilim yoluyla açıklamaya çalışmışlardır.

Felsefi dünya görüşü: Antik Yunan’da Sokrates, Platon ve Aristoteles insanı bilginin ve varlığın merkezine yerleştirerek, onun doğa ve toplumla olan ilişkisini açıklamışlardır. Aristoteles’in “insan toplumsal bir varlıktır” görüşü, dünya görüşünün insani ve toplumsal boyutuna işaret eder.

Rönesans ve Yeni Çağ dünya görüşü: Bu dönemde insan birey olarak öne çıkmış; akıl, bilim ve rasyonalizm varlığı anlamlandırmanın başlıca aracı hâline gelmiştir. Descartes’in “Düşünüyorum, öyleyse varım” sözü, aklın merkezî rolünü vurgular.

Makalenin ikinci bölümünde çağdaş dünya görüşünün yönelimleri tartışılmıştır.

Bilimsel-teknolojik yaklaşım, evreni atomdan kozmos düzeyine kadar açıklamayı hedefler. Kozmoloji, genetik, yapay zekâ gibi alanlardaki ilerlemeler insanın varlık tasavvurunu genişletmiştir.

Felsefi ve hümanist bakış, modern insanın anlam arayışını, özgürlüğünü ve ahlaki sorumluluğunu vurgular. Varoluşçuluk (Sartre, Camus) insanın kendi yaşamına anlam kazandırma çabasını ön plana çıkarır.

Ekolojik dünya görüşü, 21. yüzyılda insanın doğayla uyum içinde yaşama zorunluluğunu gündeme getirir. Çevre bilinci, sürdürülebilirlik ve ekolojik etik kavramları, modern insanın varlık anlayışının önemli bileşenleri hâline gelmiştir.

Küresel dünya görüşü, dijital çağın etkisiyle farklı kültürlerin birbirine yaklaşmasını ifade eder. İnternet ve bilgi teknolojileri, insanın kendisini yalnızca yerel bir topluluğun değil, “dünya vatandaşının” parçası olarak algılamasına imkân tanımıştır.

Üçüncü bölümde, sanatın insan dünya görüşünün oluşumundaki rolü kapsamlı biçimde ele alınır. Sanat yalnızca estetik bir ifade biçimi değil, aynı zamanda insanın ruhsal, ahlaki ve toplumsal yönlerini geliştiren bir güç olarak değerlendirilmiştir.

Ruhsal etkisi: Sanat, duyguları harekete geçirir ve insan ruhunu arındırır. Müzik ruh hâlini değiştirir, edebiyat düşünme biçimini etkiler.

Ahlaki etkisi: Sanat eserleri insanı iyilik, adalet, hakikat ve erdem üzerine düşünmeye sevk eder; böylece bireyin ahlaki bilincini şekillendirir.

Toplumsal etkisi: Ulusal müzik, tiyatro, dans ve resim sanatı toplumun ortak hafızasını ve kimliğini güçlendirir. Sanat, bireyi kendi halkının ruhuyla bütünleştirir.

Entelektüel etkisi: Sanat, insanın düşünce ufkunu genişletir, yaratıcılığı besler ve yeni fikirlerin doğmasına zemin hazırlar.

Makalenin son bölümünde insanın dünya görüşünün sürekli bir değişim içinde olduğu, ancak onun temel amacının varlık içindeki yerini anlamak ve yaşamdan anlam çıkarmak olduğu vurgulanır. Tarih boyunca değişen düşünce biçimlerine rağmen, insanın kendini tanıma arzusu ve anlam arayışı felsefenin ve sanatın merkezinde yer almaya devam etmektedir.

Sonuç olarak, insanın dünya görüşü mitolojik ve dini açıklamalardan bilimsel, ekolojik ve küresel anlayışlara doğru evrilmiştir. Bununla birlikte, sanat bu süreçte hem bireyin ruhsal olgunlaşmasının hem de insanlığın manevi ilerleyişinin en güçlü ifade alanlarından biri olmayı sürdürmektedir.

Кириш

Инсоннинг борлиққа муносабати ва уни англашга интилиши фалсафанинг энг марказий масалаларидан бири ҳисобланади. Дунёқараш – инсоннинг табиат, жамият ва ўзи ҳақидаги умумий қарашлар тизими бўлиб, у тарихий жараёнда турли шаклларда намоён бўлган. Қадимги даврларда борлиқ миф ва дин асосида изоҳланган бўлса, замонавий ҳолатда унинг илмий ва технологик талқинлари устувор аҳамият касб этмоқда. Мақолада инсон дунёқарашининг борлиққа муносабати кечаги ва бугунги кўринишлари таҳлил қилинади.

Кеча: тарихий дунёқараш босқичлари. Мифологик дунёқараш. Қадимги жамиятларда борлиқ табиат кучлари ва илоҳий мавжудотлар билан боғланган ҳолда англаган. Инсон ўзини табиатнинг бир қисми сифатида ҳис қилиб, унга мутлақ боғлиқ тарзда яшаган. [1]. Масалан, қадимги мисрликлар – дунёқарашларида Нил дарёси илоҳий куч деб ҳисобланган. Улар учун табиат ва дин бирлашган ҳолда борлиқни англаш воситаси эди.

Диний дунёқараш. Инсоннинг борлиқ ҳақидаги қарашлари илоҳий яратувчи ғояси асосида шаклланган. Ҳаёт маъноси ва инсон тақдири диний қадриятлар билан изоҳланган. [2] Масалан, Ўрта аср Европа – борлиқ “Яратганнинг илоҳий иродаси” сифатида кўрилган. Инсоннинг асосий вазифаси – дин қоидаларига итоат қилиш. Ўрта аср Ислом цивилизациясида эса – Ибн Сино, Форобий борлиқни ақл ва илм орқали тушунтиришга ҳаракат қилган, инсоннинг маънавий камолотига урғу берган.

Фалсафий дунёқараш (Антик ва Ўрта асрлар). Антик фалсафада (Сократ, Платон, Аристотель) инсон ва борлиқнинг умумий қонуниятларини излайди. Ўрта асрларда эса борлиқ “Яратганнинг илоҳий тартиби” сифатида талқин қилинди. [3] Масалан, Аристотель инсонни “ижтимоий мавжудод” деб таърифлаган. Демак, бу ҳолатда дунёқараш инсоннинг табиат ва жамият билан уйғунлигини кўрсатади.

Уйғониш ва Янги давр дунёқараши. Уйғониш даврида инсон шахс сифатида борлиқ марказига чиқарилади. Янги даврда рационализм ва илм-фан тараққиёти борлиқни изоҳлашда асосий йўл деб белгиланган. [4]

Бугун: замонавий дунёқараш йўналишлари: Илмий-технологик дунёқараш. Замонавий фан борлиқни атомдан то оламшуносликкача қамраб олишга ҳаракат қилди. Космос тадқиқотлари, генетика ва сунъий интеллект инсоннинг борлиқ ҳақидаги тасаввурларини янада кенгайтишига йўл очиб берди. [5]

Фалсафий ва гуманистик қарашлар. Замонавий фалсафада инсоннинг маънавий қиёфаси, эркинлиги ва масъулиятига жиддий урғу беришга қаратилган. Экзистенциализм инсоннинг маъно қидириши ва ҳаётда ўз ўрнини топиши масаласини олдинги сафга чиқаради. [6] Ушбу жиҳатдан дунёқарашнинг янги турлари вужудга келди. Жумладан,

Экологик дунёқараш. XXI асрда инсон табиат билан уйғунликда яшаш заруратини англаб бошлади. Барқарор ривожланиш ва экологик масъулият ғоялари дунёқарашнинг янги йўналиши сифатида қаралиб, биосфера, ноосфера, этосфера тушунчалари илмий таҳлил қилинди ва инсон ҳуқ атвори билан боғлиқ бўлган фаолиятни урганиб чиқиш масаласи кундаланг этиб қуйилди. [7]

Глобал дунёқараш. Глобаллашув ва рақамли маданият турли халқлар дунёқарашини яқинлаштиради. Интернет орқали инсон борлиқ ҳақидаги билим ва тафаккурини кенг доирада шакллантирмоқда. [8] Бунга мисоллар:

Илмий-технологик дунёқараш – замонавий инсон борлиқни космология, генетика ва физика орқали изоҳлайди. Масалан, Буюк портлаш назарияси оламнинг пайдо бўлишини изоҳлайди.

Гуманистик қараш – инсон ҳуқуқлари, эркинлик ва шахсий масъулият асосий қадрият сифатида кўрилмоқда. Инсон борлиқда фақат биологик эмас, маънавий мавжудот сифатида ҳам англанади.

Экологик қараш – инсон ўзини табиатнинг ҳукмдори эмас, балки унинг бир қисми сифатида кўриб, атроф-муҳитни муҳофаза қилишни дунёқарашининг асосий вазифаси деб билади.

Глобал дунёқараш – интернет ва ахборот асри инсоннинг борлиққа муносабатини кенгайтирди. Инсон ўзини фақат маҳаллий жамият аъзоси эмас, балки “жаҳон фуқароси” сифатида ҳис қилади.

Демак, **кеча**: инсон дунёқараши кўпроқ мифологик ва диний тасаввурлар билан шаклланган бўлса, **бугун**: инсон дунёқараши илм-фан, технология, экологик масъулият ва глобал мулоқот асосида шаклланмоқда.

Инсон дунёқараши борлиққа муносабатида узлуксиз ўзгариш ва тараққиёт йўлини босиб ўтди. Қадимги даврларда мифологик ва диний асосда анланган борлиқ, бугунги кунда илм-фан ва технология орқали кенг қамровли тарзда изоҳланмоқда. Бироқ тарихий ўзгаришларга қарамасдан, инсон дунёқарашининг асосий мақсади ўзгармай қолмоқда: **борлиқда ўз ўрнини англаш ва ҳаётдан маъно топиш** бугунги куннинг энг долзарб масаласи.

Инсон дунёқараши ва унинг борлиққа муносабати ҳақида кўплаб буюк олим ва файласуфлар фикр билдирган. Улар турли даврларда турлича қарашга эга бўлган, аммо умумий мақсад – инсоннинг ҳаётдаги ўрни ва маъносини англаш. Қуйида айрим машҳур олим-файласуфларнинг **муносабати ва тавсияларини** келтиришимиз мумкин. Жумладан, **қадимги ва Ўрта аср файласуфларидан Сократ (б.з.м. V аср)** – “Ўзингни бил” деган шиори билан инсонни ўзини англашга чорлаган. Унга кўра, ҳақиқий билим инсоннинг ички дунёси ва ахлоқида намоён бўлади. **Платон** эса инсоннинг ҳақиқий дунёси маънавий олам, ғоялар дунёси эканини таъкидлаган. У инсонни маънавий комилликка интилишга тавсия этганлар. **Аристотель** – инсонни “ижтимоий мавжудот” сифатида таърифлаб, инсоннинг табиат ва жамият билан уйғун яшаши зарурлигини айтганлар. **Форобий** – инсон дунёқараши илм ва

маърифат орқали бойиши керак, деб ҳисоблаган. У “фозил жамият” ғоясини илгари суриб, маърифатли инсон жамият тараққиётининг асоси эканини изоҳлаб берган. **Ибн Сино** – инсон ақли ва илмининг чексиз имкониятларига ишонган. У табиат ва борлиқни илм билан англашга чақирганлар.

Янги давр файласуфларидан Рене Декарт – “Фикрлайман, демакки, мавжудман” деган ғояси орқали инсон ақлини борлиқни англашнинг асосий манбаи сифатида кўрган. **Иммануил Кант** – инсон борлиқ ҳақида ҳамма нарсани билиши мумкин эмас, лекин у ахлоқий қоидалар орқали ҳаётга маъно киритиши зарур, деганлар. У инсонга “ўзини ва бошқаларни мақсад сифатида кўриш”ни тавсия этган. **Гегель** – борлиқ ва тафаккур бир-биридан ажралмас тушунча. Унингча, инсон дунёқараши тарихий тараққиёт билан узвий боғлиқ деб таърифлаб беради.

Замонавий файласуфлардан Жан-Пол Сартр – инсон эркин, лекин эркинлик ҳам масъулиятни талаб қилади деганлар. У инсонга ўз ҳаёти учун масъулиятни ўз зиммасига олишни тавсия қилган. **Альбер Камю** – борлиқ абсурд, лекин инсон унга маъно бериш орқали ўз ҳаётини қимматли қилади, деб айтган. **Мартин Хайдеггер** – инсон борлиқни англаш учун “ҳақиқий ҳаёт” кечириши, яъни ўз ўлимлилигини англаб, вақтидан тўғри фойдаланиши кераклигини таъкидлаган. **Эрих Фромм** – инсонга моддий нарсалар ортидан қувмасдан, “борлиқ”ка асосланган ҳаёт кечиришни, яъни севги, ижод ва маънавий муносабатларга урғу беришни тавсия қилганлар.

Бундан куйидаги хулоса ва тавсиялар чиқариш мумкин.

1. Инсон ўзини англаши ва маънавий жиҳатдан ривожланиши лозим.
2. Ақл ва илм борлиқни англашда асосий восита ҳисобланади.
3. Ахлоқ ва маънавият инсон ҳаётига йўналиш беради.
4. Инсон эркин, лекин эркинлик масъулиятни талаб қилади.
5. Табиат ва жамият билан уйғун яшаш – барқарор дунёқарашнинг асоси эканлигини эсдан чиқармаслигимиз зарур.

Бундан ташқари санъатнинг инсон дунёқарашининг шаклланишини назарий таҳлил этиб кўрсак. Масалан, **фалсафий нуқтаи назардан** санъат инсоннинг маънавий оламини очади. Гегель фикрича, санъат ҳақиқатни гўзаллик орқали намоён қилади. Санъат орқали инсон ўзини, табиатни ва жамиятни янги маънода кўради.

Психология нуқтаи назаридан эса санъат ҳиссиётларни бошқариш воситасидир. У инсон руҳини тозалайди, “арт-терапия”да стресс ва руҳий кийинчиликларни енгиш учун қўлланилади.

Ижтимоий нуқтаи назардан санъат жамиятнинг маънавий бирлигини таъминлайди, халқларнинг тарихий хотирасини сақлайди. Масалан, театр, миллий мусиқа ва рақс маданий ўзликни мустаҳкамлайди.

Бунга амалий мисоллар келтириш мумкин. **Мусиқа:** қўшиқ эшитиш инсоннинг кайфиятини ўзгартиради. Масалан, лирик мусиқа орқали инсон тинчланиши мумкин, марш мусиқаси эса руҳлантиради.

Расм ва ҳайкал: Чизилган манзаралар инсонда табиатга меҳр уйғотиши ёки муайян туйғуларни ифода этиши мумкин. Ван Гог расмларидаги ранглар одамда кучли руҳий таъсир уйғотади.

Адабиёт: Достоевский асарлари инсон руҳиятини чуқур таҳлил қилиб, яхшилик ва ёмонлик, имон ва гуноҳ ҳақида ўйлашга ундайди.

Кино ва театр: Кинофильмлар орқали инсон турли воқеаларни “бошидан кечиргандек” ҳис қилади. Театр сахнаsidан эса жонли таъсирни олади.

Мусаввирлик ва дизайн: Замонавий шаҳар меъморлиги инсоннинг кундалик кайфияти ва ҳаёт тарзига таъсир кўрсатади. Масалан, гўзал ва қулай муҳит инсонда ижобий руҳият уйғотади.

Демак, санъат инсонга уч асосий тарзда таъсир қилади: **руҳан** – ҳиссиёт ва туйғулар орқали. **Маънан** – ахлоқий ва маданий қадриятларни шакллантиради. **Ижтимоий** – инсонни жамият ва халқ руҳи билан боғлайди.

Шу боисдан санъат инсон ҳаётининг ажралмас қисми бўлиб, унинг маънавий ўсишида, дунёқарашининг ривожланишида ва ҳаётга ижодий ёндашувида ҳал қилувчи ўрин эгаллайди.

Адабиётлар

1. Антология мировой философии. Т.1.Ч.1. М.,1969.
2. Лешкевич Т.Г. Философия вводнқй курс. М.: Контур, 1998. С.29
3. Лешкевич Т.Г. Философия вводнқй курс. М.: Контур, 1998. С.41

4. Хрестоматия по истории философии. Учеб.пособие.Ч.1. М.:ВЛАДОС, 1997.
5. Хрестоматия по истории философии. Учеб.пособие.Ч.2. М.: ВЛАДОС, 1997.
6. Крапивенский С.Э. Социальная философия. М.:Владос, 1998
7. Фалсафа. Қисқача изоҳли луғат. Т.:Шарқ, 2004
8. Западная философия от Шопенгауэра до Дерриды. М.:Владос, 1997